O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA TA’LIM VAZIRLIGI

Buxoro viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi

MAKTABGA TAYYORLOV GURUHLARIDA BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISH



BUXORO – 2022

Ushbu metodik qo‘llanma maktabgacha ta’lim tashkilotining tayyorlov guruhi bolalarini tabiat bilan tanishtirishda ota-onalar va maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilariga metodik yordam sifatida tayyorlandi. BVXTXQTMOHMning 2022-yil “__” _____ __- sonli kafedra yig’ilishida muhokama qilindi va ilmiy kengashning 2022-yil __ _____ ___- sonli yig’ilishi qaroriga muvofiq nashrga tavsiya etildi.

Tuzuvchilar:

Aslanova Nozima Hakimovna - Buxoro viloyati XTXQTMOHM “Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari” kafedrasi katta o’qituvchisi

Begandikova Marjona Shuhratovna - Jondor tuman 6-son DMTT tarbiyachi-metodisti

Elliyeva Dildora Anvarovna - Jondor tuman 4-son DMTT tarbiyachisi

Taqrizchilar:

G.T.Yadgarova - Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari” kafedrasi mudiri, ps.f.n

G.Sh.Karimova - Buxoro viloyati Maktabgacha ta’lim boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari

So‘z boshi

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori barkamol avlod ta’lim-tarbiyasini sifatli bosqichga ko‘tarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda bolalarni maktabga sifatli tayyorlash ishlarini tubdan yaxshilash, ularning intellektual, axloqiy–estetik va jismonan rivojlanishi uchun ilg‘or xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, tarbiyachi-mutaxassis, pedagoglarni tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishga doir o‘quv reja, dasturlarni zamon talablariga muvofiq takomillashtirish, muassasalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Hammualliflikda tayyorlangan “**Maktabga tayyorlov guruhlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirish”** metodik tavsiyasi pedagog-tarbiyachilar hamda ota-onalar uchun tayyorlangan bo‘lib, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga tabiat haqidagi tasavvurlarni shakllantirish va rivojlantirishda amaliy yordam beradi.

ps.f.n. G.T.Yadgarova

MAKTABGA TAYYORLOV GURUHLARIDA BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISHNING MAZMUNI

Maktabgacha ta’lim sohasi uzluksiz ta’lim tizimining birlamchi bo‘g‘ini hisoblanib, u har tomonlama sog‘lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida respublikada ta’lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlari darajasiga ko‘tarildi. O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’limi tizimini modernizatsiya qilish maktabgacha ta’limga teng imkoniyatlar yaratishning zarurati va muhimligi hamda bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashning muqobil va kamchiqim modellarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Biroq o‘tkazilgan tahlillar maktabgacha ta’lim sohasida olib borilayotgan ishlarning samarasi va natijasi yetarli darajada emasligini ko‘rsatdi. Hozirgi kunda Respublikamizda ushbu sohaga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan pedagoglar oldida o‘ta muhim, maktabgacha ta’lim sohasini isloh qilish vazifasi qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son "2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qaroriga asosan, bolalarni maktabgacha ta’lim muassasalarida har tomonlama rivojlantirish, ularga ta’lim-tarbiya berish, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hamda maktab ta’limiga tayyorlash bo‘yicha davlat talablari belgilandi. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari asosida bolalarda bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, ularning har tomonlama rivojlanishi hamda maktab ta’limiga tayyorgarlik darajalari aniqlanishi,ularni oila va maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyalash uchun tashkiliy, pedagogik, psixologik va uslubiy manbalar yaratilishi zarurligi qayd etildi. Shuningdek, 6-7 yoshli bolalarni o‘qitish majburiy boshlang‘ich ta’limga bir yillik tayyorlash

guruhlari uchun “Ilm yo‘li” variativ dasturi Maktabgacha ta’lim muassasalari rahbarlari va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ilmiy-metodik kengashining 2019-yil 29-avgust 7-sonli yig‘ilish qarori bilan, maktabgacha ta’lim vazirligi huzuridagi o‘quv metodik ishlarni muvofiqlashtiruvchi yig‘ilishining 2019-yil 20-sentabrdagi 1-son bayoni bilan tasdiqlandi va nashrga tavsiya etildi.

O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining maqsadi — mamlakatda o‘tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg‘or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan holda maktabgacha ta’lim tizimida ma’nan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdir.



Hozirgi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida **STEAM (S-SUBJECT-fan, T-TECHNOLOGY-texnologiya, E-ENGINEERING-muhandislik, A–ART-can’at, M–MATHEMATICS-matematika)** - ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani birlashtiruvchi zamonaviy yondashuv asosida maktabgacha ta’lim muassasalarida rivojlantiruvchi markazlar tashkil etilgan.

STEAM bolalarda quyidagi muhim xususiyatlar va ko‘nikmalarni rivojlantirishga quyidagicha yordam beradi:

- Muammolarni keng qamrovli tushunish;
- Ijodiy fikrlash;
- Muhandislik yondashuv;

- Tanqidiy fikrlash;
- Ilmiy metodlarni tushunish va qo‘llash;
- Dizayn asoslarini tushunish.

Bu yondashuv kelajakda bolalarda hayotiy muammolarni hal etishda yordam beradi. Ko‘pgina rivojlangan davlatlarda, jumladan **AQSh, Yaponiya, Izroil, Singapur, Rossiya**da maktabgacha ta’lim muassalarida bolalarni ijodiy va ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida mazkur yondashuv metodlaridan samarali foydalanib kelinmoqda.

STEAM yondashuvi tufayli bolalar tabiatni tushunib, dunyoni muntazam o‘rganishadi va shu bilan qiziqishlarini, muhandislik fikrlash uslubini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini, jamoaviy ish qobiliyatini rivojlantirish va liderlik, o‘z-o‘zini namoyon qilish asoslarini o‘rganishadi, o‘z navbatida, bolalar rivojlanishining tubdan yangi darajasini ta’minlaydi.

O‘z-o‘ziga ishonchni shakllantirish.

Bu yondashuvda bolalar o‘z qo‘llari bilan yaratgan ko‘prik va yo‘llar, samolyotlar va avtomobillarni "ishga tushirib", suv osti va havo tuzilmalarini "rivojlantirib", sinovdan o‘tkazib, har safar ular maqsadga yaqinlashib borishadi. Yaxshi natija bermagan “mahsulot”ni qayta-qayta sinovdan o‘tkazib, takomillashtirib borishadi. Natijada barcha muammolarni o‘zi hal qilish, maqsadga erishish bolalar uchun ilhom, g‘alaba, adrenalin va quvonch olib keladi. Har bir g‘alaba, o‘zlarining qobiliyatlariga ko‘proq ishonch uyg‘otadi.

Faol muloqot va jamoaviy ish. **STEAM** dasturlari ham faol muloqot va guruh ishi bilan ajralib turadi. Muhokama bosqichida ular fikr bildirishga qo‘rqmaslikka o‘rganadilar. Ko‘pincha, stol atrofida o‘tirmaydi, o‘zlarining dizaynlari asosidagi “mahsulot”larni sinovdan o‘tkazadi va rivojlantiradi. Ular hamma vaqt hamkorlikni ta’minlaydigan jamoada tarbiyachilar va ularning do‘stlari bilan muloqot qilish bilan band bo‘lishadi.

Texnik fanlar bo‘yicha qiziqishlarni rivojlantirish. Maktabgacha va boshlang‘ich maktab yoshidagi **STEAM** ta’limi vazifasi qiziqishning rivojlanishi uchun dastlabki shart-sharoitlarni yaratishdir. Bolalar uchun tabiat fanlari va texnik

fanlar bo‘yicha, qilgan ishni yaxshi ko‘rish, qiziqishni rivojlantirish uchun asosdir.

STEAM–bolalar uchun juda qiziqarli va dinamik bo‘lib, bolalarning zerikishlariga to‘sqinlik qiladi. Ular vaqt o‘tayotganini sezmaydilar, lekin ham charchamadilar. Raketalar, avtoulovlar, ko‘priklar, osmono‘par binolarni qurish, elektron o‘yinlar, fabrikalar, logistika tarmoqlarini yaratish, dengiz osti kemalari, ilm-fan va texnologiyaga qiziqishi ortib borada.

Loyihalar uchun ijodiy va innovatsion yondashuvlar.

STEAM ta’limi oltita bosqichdan iborat**: savol (vazifa), muhokamalar, dizayn, qurilish, test va takomillashtirish**. Ushbu bosqichlar muntazam ravishda loyiha yondashuvining asosidir. O‘z navbatida hamkorlik yoki turli imkoniyatlardan birgalikda foydalanish ijodkorlik asosi hisoblanadi. Shunday qilib, bir vaqtda bolalarda fan va texnologiyalarni qo‘llash, yangi innovatsiyalarni yaratishi mumkin.

Oqilona tashkil etilgan sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhit bolalarda izlanishga, tashabbus ko‘rsatishga va ijodkorlik qobiliyatlarini namoyon etishga rag‘bat uyg‘otadi. Bunda tarbiyachilar bola rivojlanishi qanday kechayotganligi to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lishlari, buning uchun esa ularni doimiy raviщda nazorat qilib borishlari zarur bo‘ladi. Tarbiyachi o‘quv materialini bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ularga munosib tarzda yetkazadilar. Maktabgacha ta’lim muassasalari pedagogik jamoasining o‘rni shundan iboratki, ular har bir bolaning qiziqishi, qobiliyati va ehtiyojini inobatga olgan holda mos keladigan maqsadlar qo‘yishlari, bolalardagi tabiiy qiziqishlarni qo‘llab-quvvatlashlari, ularda borliqni birgalikda o‘zlashtirish ko‘nikmalarini shakllantirishlari kerak.

Bola rivojlanishining o‘ziga xosligini inobatga olishda avvalo shuni tushunib yetish kerakki, barcha bolalar rivojlanishning ma’lum bosqichlarini bosib o‘tadilar, biroq bunda har bir bola noyob va takrorlanmasdir.

Tarbiyachilar bolalarni aynan bir xil, o‘xshash narsalar va faoliyat turlari bilan ta’minlashlari uchun ularning o‘ziga xos, boshqalardan ajralib turadigan rivojlanish ko‘rsatkichlari to‘g‘risida to‘liq tasavvurga ega bo‘lishlari lozim. Shuningdek,

tarbiyachilar bir xil yoshdagi turli bolalarning qobiliyatlari va qiziqishlaridagi farqlarga e’tibor bilan munosabatda bo‘lishlari kerakligini mutaxassislar alohida ta’kidlashadi. Bunda bola rivojlanishining o‘ziga xosligiga doir, bolalar qiziqishlariga javob beruvchi faoliyat turlari, ya’ni ularning aqliy, ijtimoiy va ma’naviy yetuklik darajasi nazarda tutiladi. Bunday faoliyat turlari bolalarning tabiatga qiziqishlariga, tajribadan qoniqish hosil qilishlariga va o‘z g‘oyalarini tajribada sinab ko‘rish xoxish-istaklariga qaratilgandir. Bunda bolalarda paydo bo‘lgan savollarga o‘zlari javob topishiga yordam berish muhim ahamiyatga ega. Negaki, savolga javob izlash barobarida bolada qiziqish, dalillash va e’tibor berish avtomatik tarzda faollashadi. Bunda tarbiyachining roli savolni soddalashtirmasdan va bolani ko‘p axborot bilan chalg‘itmasdan uni qoniqtiradigan javob topish yo‘llarini birgalashib qidirishdan iboratdir.

Rivojlanish markazlaridagi ta’lim jarayonida bolalarning o‘zlari tegishli rivojlanish markazini ixtiyoriy tanlay boshlaydilar. Bolalarni mustaqil guruhlarda ishlashi, individuallashtirishda tarbiyachi shunday faoliyat turlarini o‘ylab topadiki, unda barchaga birdek ko‘rsatma berilsa-da, biroq har bir bola undan kelib chiqqan holdaa o‘zi mustaqil ravishda muvaffaqiyatga erishishiga imkon beriladi. Individuallashtirish darajasini optimallashtirish mumkin. Epchillik va topqirlik talab yetiladigan faoliyat turini tanlagan va bolalarni diqqat bilan kuzatgan holda tarbiyachi zaruriyat tug‘ilib qolsa topshiriq va materiallarni o‘zgartirishi yoki moslashtirishi mumkin.

Respublikamizda **“Ilm yo‘li”** dasturi asosida bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda 6-7 yoshlilarning intellektual imkoniyatlari ularning shaxsiy portfoliosida to‘planib boriladi. Bu bolaning qisqa muddatli guruhga kelganidan tortib ta’limni yakunlagunga qadar yutuqlari va ishlarining individual to‘plamidir. Portfoliodan rivojlanishning o‘z-o‘ziga baho berish vositasi foydalanish, unga bolaning o‘z fikr-mulohazalarini aks ettirishga harakat qilib, so‘zlar va sonlarni yozishga urinishlarini, nuqt namunalarini ham kiritish mumkin. Bundan tashqari, ota-onalarning ruxsati bilan bola faoliyatini aks ettiradigan fotosuratlarni, og‘zaki nutqlari yozilgan audiodisklarni tanlab olish mumkin. Bolalar ularga tegishli

bo‘lgan portfolio ota-onalarga ko‘rsatilishini bilishi lozim.

Tayyorlov guruhida tabiat bilan tanishtirish mashg‘uloti 6-7 yoshli guruhlarda hafta davomida jami 1 ta mashg‘ulot, oy davomida 4 ta, yil davomida 36 ta mashg‘ulot olib boriladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida Tabiat bilan tanishtirish faoliyat turi sifatida kiritilgan. Tabiat bilan tanishtirish mashg‘ulotlarida bolalar tabiatning inson hayotidagi roli, bola tarbiyasida tabiatning ahamiyati haqida tushunchalarga ega bo‘ladilar. Tabiatga muhabbat juda keng qamrovli va murakkab his tuyg‘udir. U yuksak ruhiy va aqliy qatlamlarni o‘z ichiga oladigan murakkab bir butunlikni tashkil etadi. Har bir bolada o‘zi yashab turgan mahalliy o‘lka va O‘zbekiston jonli va jonsiz tabiatiga muhabbat bilan qarash, unga ko‘ngil qo‘yish ishtiyoqi o‘sib boradi. Bolalikda tug‘ilgan bu tuyg‘u maktab yillarida rivojlanib, boyib boradi.

Bolalar bog‘chasida bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida xilma-xil metodlar:

- ko‘rgazmali (kuzatish, rasmlarni ko‘rish, filmlarni namoyish qilish),
- amaliy (o‘yin metodi, mehnat, oddiy tajribalar),
- og‘zaki (tarbiyachining hikoyasi, badiiy asarlarni o‘qish, suhbat) metodlaridan, mashg‘ulotlardan sayrlardan kundalik hayotga mehnatdan, kuzatishlardan, yer maydoni va tabiat burchagidan, o‘yinlardan foydalanilgan holda olib boriladi.

Natijada bolalarda bilimlarni egallash malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish qobiliyatlarini o‘stirish ilmiy dunyoqarashlarni axloqiy sifatlarini xulq atvorlarini shakllantirishga erishiladi.

Metodlarni tanlashda tarbiyachi bolalarning yosh xususiyatlari, psixologiyasi, bilimlari, dastur talablari, o‘z o‘lkasi iqlimining tabiati, pedagogik tamoyillarga moslashadi. Yuqoridagi metodlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq va bir-birini to‘ldiradi.

Bolalanii tabiat bilan tanishtirishda doimiy kuzatishlar olib borish ularning mantiqiy fikr yuritishi va nutqini o‘stirishda g‘oyat katta ahamiyatga egadir. Bu haqda K.D.Ushinskiy shunday deydi: «Haqiqiy insoniy, aqliy nutq,

to‘g‘ri mantiqiy fikr yuritishdan iboratdir, to‘g‘ri mantiqiy fikr yuritish esa, biz ko‘rsatgandek, boshqa biror narsadan emas, haqiqiy va aniq kuzatishlardan kelib chiqadi». Bolalarni tabiatdagi narsa va hodisalar bilan ma’lum bir tartibda tanishtirib borilsa, ularda diqqat va kuzatuvchanlik, tabiatga qiziqish, undagi hodisalarni bilishga intilish kuchayib boradi. Kuzata bilish — juda muhim xususiyat bo‘lib, bunda bolada to‘g‘ri yoza bilish, og‘zaki nutq malakalari rivojlanadi. Bolalarni hodisa va narsalarni maqsadga muvofiq holda o‘zlashtira olishga va ularning eng muhimlarini ajrata olishga o‘rgatish zarur. Tarbiyachi kuzatish ishlarini olib borishda narsa va hodisalar o‘rtasidagi aloqa va sabablarning bog‘lanishlarini ilg‘ab olishni bolalarga o‘rgatishi kerak. Shunday qilib maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning tafakkurlari tabiat haqidagi aniq bilimlarni to‘plash orqali o‘sadi. Kuzatishlar diqqatni jalb qilish bilangina olib borilishi mumkin. Kuzatish, ya’ni narsa va hodisalarga diqqatni maqsadga muvofiq holda jalb qilishga o‘rgatish bilan biz ularda ixtiyoriy diqqatni ham o‘stiramiz. Noto‘g‘ri tushunchalarni tuzatish, yangi tushunchalar hosil qilishga nisbatan ancha qiyinroqdir. Shuning uchun bolalar maktabgacha ta’lim yoshidayoq, his qilish tajribalariga asoslangan holda, tabiat haqida to‘g‘ri tushunchalarga ega bo‘lishlari juda muhimdir. Bolalarda tabiatga qiziqishni tarbiyalash zarur, chunki u sog‘lom bo‘lmagan faotiyatlarda ham vujudga kelishi mumkin. Masalan, bolalar qo‘ng‘iz va kapalaklarni tutib olib, nima qilar ekan deb, ularning qanot va oyoqlarini uzib tashlaydilar. Yoki hayvonlarni, qushlarni qiynab, natijasi nima bo‘lar ekan, deb qiziqadilar. Ularga tabiatning o‘zaro bog‘liqligini, ya’ni uning “oltin zanjir” ekanligini tushuntirish zarur. Bu orqali bolalarga ekologik talim-tarbiya berib boriladi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni kattalarga beradigan «Bu nima?», «Nima uchun?», «Qanday qilib?» kabi cheksiz savollari bunga misol bo‘la oladi. Bu o‘rinda tarbiyachi savollarga javob topishda bolalarning o‘zlarini yo’naltirishga harakat qilishi zarur.

Katta guruh bilan olib boriladigan kuzatishlar jarayonida bolalar obyektlarning xarakterli va muhim belgilari bilan tanishadilar, o‘simlik hamda

hayvonlarning o‘sishi va rivojlanishi, tabiatdagi mavsumiy o‘zgarishlar ustida uzoq muddatli kuzatishlar olib boradilar. Tarbiyachi kuzatishni tashkil qila turib, bolalarni ma’lum usullardan foydalanishga, rejaga rioya qilishga, mustaqil ravishda murakkab bo‘lmagan xulosalar chiqarishga o‘rgatishda davom etadi. Bunda kuzatilayolgan jism va hodisalarda u yoki bu faoliyat uchun ahamiyatli yoki butun bir obyektlar guruhining umumiy belgilari ajratib ko‘rsatiladi, jismlarning tevarak-atrof bilan aloqasi va munosabati aniqlanadi.

O‘simlik va hayvonlarning o‘sishi hamda rivojlanishi, mavsumiy o‘zgarishlar ustida olib borilgan kuzatishlarda bolalarning vaqt, faza, bosqich yoki holatlarni ko‘ra bilish xususiyatlari shakllantiriladi. Masalan, ular o‘sayotgan no‘xat novdalari, poyasi, barglari, gajaklar, g‘unchalar, gul va mevalarning paydo bo‘lishini sinchkovlik bilan kuzatadilar. Bolalarni jism va hodisalarni ko‘ra olish, eshitish va qabul qilib olishga o‘rgatish tarbiyachining eng muhim vazifalaridan biridir. Bolalar ko‘pincha ikkita tanish jismga qaraydilaru, ularni bir-biridan ajrata olmaydilar. Shuning uchun tarbiyachi kuzatishni tashkil qilar ekan, aniq obyektlarni topishi, ularni ta’riflashi, savollarga javob berishga oid muayyan vazifalar qo‘yishi kerak. Kuzatishlarda qo‘llaniladigan qiyoslash usullari borgan sari xilmaxillashadi: kuzatilayotgan obyekt rasmda tasvirlangani yoki tasavvurdagisi bilan qiyoslanadi. Faqat ayrim jismlargina emas, balki tabiat hodisalari ham (masalan, bog‘ning bahor va qishdagi ko‘rinishi) qiyoslanadi. Jismlarni taqqoslashda tarbiyachi bolalarning diqqatini bir necha umumiy bo‘lgan belgilarga, ayniqsa ularning muhim tomonlarini aks ettirgan belgilariga qaratadi. Masalan, bolalar turli hasharotlarni kuzatar ekanlar, ularning oltitadan oyoqchasi borligini bilib oladilar. Tarbiyachi kuzatilayotgan jism va hodisalarni qiyoslash uchun vazifa topshirar ekan, bolalarning mustaqil ishlashga qiynalib qolgan hollaridagina yordam berishga harakat qiladi. Xuddi o‘rta guruhdagidek kuzatish natijalari haqidagi og‘zaki hisobot iloji boricha mustaqil bo‘lishi lozim. Kuzatish natijalarini bolalar rasmlarda, yasagan buyumlarida aks ettirishlari mumkin.

Maktabgacha tayyorlov guruhi

Bu guruhdagi kuzatishlarga rahbarlik qilishning o‘ziga xos

xususiyatlari bolalarga ko‘proq mustaqilliklarini namoyon qilish uchun sharoit yaratishdan iboratdir. Uzoq muddatli kuzatishlar uchun topshiriqlarning bir qismi bolalarga oldindan beriladi. Tarbiyachi bularni bolalarga ba’zi-ba’zida eslatib turadi. Qisqa muddatli kuzatishlarda tarbiyachi savol-topshiriqlardan foydalanadi. Masalan, «Yangi keltirilgan qush, oldin yashagan qushdan nimasi bilan farq qiladi?» «Bog‘chamizdagi daraxt va butalarning barglari bir xilda sarg‘ayganmi?» va shu kabilar. Ko‘pincha savollar faqatgina bolalar ba’zi bir murakkabliklarga uchraganlaridagina beriladi. Tadqiqotchilik harakatlaridan ham yuqoridagi holatda foydalaniladi.

Tayyorlov guruhi bolalari o‘z kuzatishlarida oddiy moslamalar, ba’zan esa asboblar — termometr, flyuger, lupa, reyka (qonning qalinligini o‘lchash uchun va boshqalardan foydalanishlari mumkin.

Amaliy usul va uning turlari

O‘yin. Tabiatning oddiy hodisa va tasavvurlarini kengaytirish maqsadida o‘tkaziladigan kuzatishlar bilan bir qatorda xilma-xil o‘yinlardan keng foydalaniladi. Bu o‘yinlarda bolalar sezuvchanlik tajribasini orttiradilar, egallagan bilimlarini ijodiy o‘zlashtiradilar. Bolalani tabiat bilan tanishtirishda didaktik, harakatli va ijodiy o‘yinlardan foydalaniladi.

Didaktik o‘yinlar. Didaktik o‘yinlarda bolalar o‘zlarida tabiatdagi narsa va hodisalar, hayvonlar va o‘simliklar haqida mavjud bo‘lgan bilimlarni aniqlaydilar, mustahkamlaydilar, kengaytiradilar. Ko‘pgina o‘yinlar bolalarni umumlashtirish hamda turkumlashga o‘rgatadi. Didaktik o‘yinlar xotira, diqqat, kuzatuvchanlikning o‘sishiga yordam beradi, yangi sharoitlarda bolalarni mavjud bilimlaridan foydalanishga o‘rgatadi, turli aqliy jarayonlarni faollashtiradi, lug‘atni boyitadi, bolalarda birgalikda o‘ynash ko‘nikmasini tarbiyalashga yordam beradi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda predmetli, stol-bosma va og‘zaki didaktik o‘yinlardan foydalaniladi.

Predmetli o‘yinlar — barglar, urug‘lar, gullar, mevalar, sabzavotlar bilan o‘ynaladigan «Ajoyib qopcha», «Mevalar va ildizlar», «Bu butoqda kimning bolakaylari” kabi o‘yinlardir. Predmetli o‘yinlar barcha yoshda guruhlarning biroz

murakkablashtirilgan bilimlarini kengaytirish tafakkurlarini kuchaytirish hamda harakatlarini rivojlantirish o‘z ichiga oladi.

Stol-bosma o‘yinlari — «Yilning to‘rt fasli», «Kichkintoylar», «Mevalar», «O‘simliklar», «Barglarni terib ol»... Bu o‘yinlar bolalarning o‘simliklar, hayvonlar, tabiat hodisalari haqidagi bilimlarini o‘zlashtirish, aytilayotgan so‘zga qarab predmetni tasvirlash ko‘nikmasini shakllantirishga yordam beradi. O‘yin so‘z bilan birgalikda olib boriladi so‘z yoki rasm idrok etilishidan oldin keladi yoki o‘yin bilan uyg‘unlashib ketadi. Bunday o‘yinlar ozchilik bolalar bilan o‘tkaziladi.

Og‘zaki o‘yinlar («U nima uchun uchadi, yuguradi, sakraydi», «Suvda, havoda, yerda», «Kerak-kerak emas» va shu kabilar) hech qanday jihoz talab qilinmasligi tufayli juda maqbuldir. Ular u yoki bu predmetlarning vazifalari hamda harakatlari haqidagi bilimlarni mustahkamlash, umumlashtirish va bir tizimga solish maqsadida o‘ynaladi. Bu o‘yinlar diqqatni, zehnni, qabul qilish tezligini, ravon nutqni rivojlantiradi. Tabiatga oid o‘yinlarni o‘rganish barcha didaktik o‘yinlar uchun umumiy bo‘lgan qoidalar bo‘yicha amalga oshiriladi. Kichik yosh guruhlarda dastlabki bosqichlarda tarbiyachi o‘yinni bolalar bilan birga o‘ynaydi, o‘yin davomida u bir qoidani aytib, uni shu zahotiyoq tadbiq qiladi. Takroriy o‘yinda esa qo‘shimcha qoidalarni aytadi. Ikkinchi bosqichda tarbiyachi o‘yinda faol qatnashmaydi, chetdan rahbarlik qilib, o‘yinni boshqarib turadi. Uchinchi bosqichda bolalar mustaqil o‘ynaydilar.

Ijodiy o‘yinlarning mustaqillik xarakteri tarbiyachiga bolalarni yangi bilim, malaka va ko‘nikmalardan o‘rgatish metodi sifatida foydalanish imkonini bermaydi. Biroq bunda tarbiyachi bolalar qaysi bilimlarni etarlicha egallaganlaru, qaysilarini yana kengaytirish lozimligini bilib olish uchun ijodiy o‘yinlarni diqqat bilan kuzatib borishi lozim. Tarbiyachi tabiatshunoslik mazmunidagi ijodiy syujetli, rolli o‘yinlarni boyitib, ekskursiyalar, sayrlar vaqtida bolalarni kattalarning mehnati haqidagi bilimlarini kengaytiradi, diafilmlar ko‘rsatadi, kitoblar o‘qib beradi. O‘yinni rivojlantirishda dala mehnati, sut sog‘uvchi, bog‘bonlar haqidagi hikoyalar bolalarga alohida ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga

ularda kattalar mehnatiga nisbatan qiziqish uyg‘otib o‘yin mazmunini boyitadi.

Har bir yosh guruhda yilning fasliga mos tabiiy material bilan o‘ynash uchui sharoit yaratiladi. Bular qum maydonchalari hamda qunj stollari, qum va qor bilan o‘ynash uchun shakl to‘plamlari, odamlar va hayvonlarning rezinkadan yasalgan figuralari, uy, daraxtlarning fanyerdan yasalgan siluetlari, butalar, shoxchalar chakamug, metall karkaslar bo‘lib, bular yordamida figuralar yasaladi. Suhbat - bu bolalar bilan o‘tkazilgan mashg‘ulotning yakunidir. Uning samaraliligi bolalarning tayyorgarliklariga bog‘liq. SHuning uchun tarbiyachi bolalarni kuzatishlar, mehnat faoliyati, o‘yinlar, tabiat haqidagi hikoyalar orqali suhbatga tayyorlashi lozim. Bolalarda nima haqida konkret tasavvur bo‘lsa, faqat shu mavzu yuzasidan suhbat o‘tkazish maqsadi yaxshi fikrdir.

Tarbiyachi suhbatning didaktik maqsadini aniq tasavvur qilishi ya’ni, uning mazmunini aniqlashi, umumlashtirishi hamda muhim tomonlarini ajratib, suhbat yakunida aniq bir xulosa chiqara olishi lozim. Suhbat hodisa, faktlarni analiz qilishdan, ularning xususiyatlari, belgilari, o‘rtasidagi muhim aloqa hamda munosabatlarni ta’kidlashdan boshlanadi. Bunday analiz umumlashtirib o‘tishni ta’minlaydi, tarqoq faktlarni bir tizimga soladi. Masalan: “Qaysi qushlar birinchi bo‘lib uchib keladi? Qora qarg‘ani qanday tanib oldik? Biz ularni qayerda ko‘rganmiz? Qora qarg‘alar dalada nima qilayotgan edi? Qora qarg‘alar nima yeydi”. So‘ng keyingi savol beriladi: «Nima uchun qora qarg‘alar boshqa qushlardan oldin uchib keladi?» (chug‘urchuq, qaldirg‘och va shu kabi boshqa qushlar haqida ham shunday savollar beriladi). Suhbatning ikkinchi qismida «Nima uchun hamma qushlar bir vaqtda uchib kelmaydi?» kabi umumlashtiruvchi savolni berish mumkin. Ular mazmunan aniq, to‘g‘ri, qisqa bo‘lishi kerak. Har bir savolda bitta fikr bo‘lishi shart. Qisqa “ha” yoki “yo‘q” javoblarini talab qiluvchi savollarni berib bo‘lmaydi. Bunday savollar tafakkurning o‘sishini, munosabatlarning aniqlanishini ta’minlamaydi. Tarbiyachi suhbat davomida bolalarning xulosa, umumtashtirishlarni o‘zlari mustaqil boshqarishlariga g‘amxo‘rlik qiladi. Suhbatda xilma-xil ko‘rgazmali materialiardan ham foydalanish zarur. Bular tabiat jismlari,

ob-havo kalendarlari, gerbariylar, illyustratsiyalardir. Bundan tashqari topishmoqlar, she’rlar, qushlar ovozining yozuvlari foydalidir. Bu bolalarda muhokama qilinayotgan hikoyaga nisbatan emotsional munosabat uyg‘oladi. Suhbat bolalarni tabiat bilan tanishtirish uslubi sifatida, o‘rta va maktabgacha katta

Mashg‘ulotlar jadvali		
Sentabr	1	Sabzavot va mevalardan bo‘yoq olish
	2	Loy va qumning xususiyatlari
	3	Ajoyib magnitlar
	4	Qiziqarli mashg‘ulotlarga ota-onalarni jalb qilish
Oktyabr	1	Tabiiy bo‘yoqlar
	2	Tomchilatib sug‘orish usuli
	3	“Mazali peechne” oshpaz master-klassi
	4	Chigitdan yog‘ olamiz
Noyabr	1	Alanga havoni ifloslantiradi(ekologiya)
	2	Ichimlik suvini qanday olish mumkin
	3	Suv va qum xususiyatlari – o‘t o‘chiruvchilarning yordamchilari
	4	Baliqlarni parvarishlash
Dekabr	1	Archa va qarag‘ay daraxti
	2	Muz bilan tajribalar
	3	«Ustki, bosh va oyoq kiyimlarni tayyorlash uchun matolarni nimadan
	4	Daraxtning turlari bilan tanishish
Yanvar	1	Oor va muz bilan tajribalar
	2	Ko‘rinmas - havo. SHamol
	3	Sog‘lom ovqatlanish – salomatlik garovi
	4	Qushlarni parvarishlaymiz
Fevral	1	MTT bog‘ida tajriba «Piyoz va sabzi ekish»
	2	Tajriba ishi «Elektr haqida tushuncha».
	3	Tajriba ishi: «Kun va tun almashinuvi». (lampochka va globus bilan
	4	Qog‘oz xususiyatlari bilan tanishish
Mart	1	«Soyani tutish» (MTT hududida
	2	Tajriba «Muzlatish»
	3	Bug‘doy ekayapmiz!
	4	O‘zbekiston qushlari
Aprel	1	«Hidiga ko‘ra top» gullar ifori. Suv va qog‘oz bilan tajriba ishi «Gul
	2	«Tortishish markazi» magnit bilan birgalikdagi tajriba. Teleskop bilan
	3	Tirik organizmlarni o‘rganamiz (lupa ostida). Suv xossalari
	4	«Sayyoralarni taqqosla», «Vulqon otilishi» tajibasi.
May	1	To‘kiluvchan jismlarni hajmini o‘lchash.
	2	Qog‘ozning xususiyatlari bilan tanishish
	3	Loy bilan tajribalar. Loydan idishlar yasaymiz
	4	Qum bilan tajriba "Qumning xususiyatlari"

yoshda qo‘llaniladi.

Sentabr 1-hafta

Mashg‘ulot: Tabiat bilan tanishtirish.

Mavzu: Sabzavot va mevalardan bo‘yoqlar tayyorlash (lavlagi, sabzi, bodring, uzum, ko‘katlar, piyoz, barglar va maysalar)

Maqsad:

a) O‘lkamiz ona tabiati zaxiralari sabzavot va mevalarning xususiyatlari bilan tanishtirish, meva va sabzavotlarni urug‘idan boshlab, to o‘sish davriga qadar va hosil berishiga qadar davri haqida bolalarga tushuncha berish. Meva va sabzavotlardan tabiiy bo‘yoqlar olish orqali amaliy mashg‘ulot olib borish.

b) Bolalarni o‘rtoqlari bilan do‘stona munosabatlarini yanada mustahkamlash, tabiatga va undagi ekinzorlar, bog‘larga bo‘lgan mehrini oshirish, sabzavot va mevalarni etishtirishda kattalarning mehnati haqida tushuncha berish, bolalarni qalbida mehnatsevarlikni yanada uytg‘otish va tasavvurlarni shakllantirish.

c) Mevalar, ish taxtachasi, pichoq, qo‘lbola sharbat siquvchi moslama, idish, qum, loy, suv, meva va sabzavotlar urug‘i va tarqatma materiallar.

Bu she’r bizning jonajon yurtimiz haqida.

Tarbiyachi: FAOLIYATNING BORISHI:

Tashkiliy qism:

Tarbiyachi: -Assalomu – alaykum aziz bolajonlar.

Bolalar: Assalomu – alaykum

Tarbiyachi: Bugungi mashg‘ulotlarga tayyormisiz? Kayfiyatingiz a’lomi?

Bolalar: Ha

Tarbiyachi: Kelinglar yana kayfiyatimiz a’lo bo‘lishi uchun salomlashish mashqini bajaramiz (Ingliz tilida ham)

Bolalar:-Salom mening qo‘llarim! (qarsak)

-Hello, my hands

-Salom mening oyoqlarim! (tap-tap-tap)

-Hello, my feet

-Salom mening yuzlarim! (oh-oh)

-Hello, my faces

-Salom mening tishlarim! (tars-tars-tars)

-Hello, my teeth

-Salom mening burunlarim! (bum-bum-bum)

-Hello, my noses

-Salom mening o‘rtoqlarim! (qo‘llar birlashtirib yuqoriga ko‘tariladi)

-Hello, my friends

Tarbiyachi: Barakalla bolajonlar endi manabu she’rga diqqat bilan quloq soling, she’r nima haqida?

Alpomishdek alpqomatli

Jaloliddindek shiddatli,

Ulug‘bekdek ma’rifatli

Ulug‘ sultonlar yurti bu.

Bolalar Juda ham to‘g‘ri, bizning Vatanimiz qayer?

Bolalar : O‘zbekiston.

Tarbiyachi: Sizning shaxringiz chi?

Bolalar: Bizning shahrimiz Buxoro viloyati.

Tarbiyachi: Vatan- nima?

Bolalar:

Vatan-bu bizning ona yerimiz,

Vatan ostonadan boshlanadi,

Vatan bu kindik qoni to‘kilgan ona zamin, biz Vatanimizni ko‘z qorachig‘imizday asraymiz.

Bolalar ijrosida qo‘shiq

“Vatan”

Bulbul Vatanim der Sayhun chamanni,

Kiyik ko‘zga surtar cho‘lda yavshanni.

Vatandan muqaddas ayting nima bor?

Ko‘zlar qorasida asrang Vatanni,

Qoshlar orasida saqlang Vatanni.

Tarbiyachi: Meni juda xursand qildingiz. Mana YUrtimizda kuz fasli, bu

faslda meva va sabzavotlar pishib yetiladi hamda ularni yig‘ib – terib oladilar Kelinglar bolajonlar biz sizlar bilan meva va sabzavotlar bilan yaqinroq tanishib olamiz. Buning uchun biz 4 ta guruhlarga bo‘linamiz. Mana bu yerda tarqatma suratlar bor siz o‘z ixtiyoringiz bilan shu suratlarni birini tanlaysiz va shu suratlar asosida guruhlarga bo‘linasiz.

1- Guruh: Olmalar,
2- Guruh: Sabzilar,
2- Guruh: Xurmolar,
4- Guruh: pomidorlar



Tarbiyachi: Bolajonlar hozir sizlar bilan qiziqarli sayohatga yo‘l olamiz. Bu sayohat shaxrimizda joylashgan faollik markazlariga olib boradi. U yerda sizlarni qiziqarli, hayajonli, bilimlarga boy jarayonlar kutib turmoqda. Sizdan talab shu topshiriqlarni a’lo darajada o‘zlashtirib, yanada o‘zingizdagi kompitentlikni ya’ni bilimingizni oshirishdan, guruhingizga rag‘batlarni olib berishdan iboratdir. Bolajonlar bu yer faollik markazlari joylashgan shahar.

Keling sizlarni markazlar bilan tanishtiraman.

1- **Markaz-***Ilm-fan va tabiat*:- bu markazda siz bolajonlar meva va sabzavotlarni urug‘idan to o‘simlik davri va hosil berish davrigacha bo‘lgan jarayonni bilib hamda shu o‘simliklarni mevasidan tabiiy bo‘yoqlar olishni bilib olasiz.

2- **Markaz**-*Til va nutq*:- bu yerda siz meva va sabzavotlar haqida she'r, qo'shiq va surat asosida hikoya tuzasiz, topishmoqlar, tez aytishlar va ingliz tilida meva va sabzavotlar nomini aytishni o'rganasiz.

3- **Markaz**-*Syujetli rolli o'yinlar va drammalashtirish*:-bu yerda siz o'rtoqlaringizga meva va sabzavotlarni pantomime shaklida tushuntirasiz.

4- **Markaz**– *San'at*:- Bu yerdasiz meva va sabzavotlarni suratini chizasiz va ranglariga mos ravishda bo'yaysiz. Applikatsiyadan foydalanib meva va sabzavotlarni yelimlaysiz. Mana guruhlar markazlarga joylashib olishdi.

Markazda– *Olmalar guruhiga :*

Tarbiyachi: - Olma daraxtini etishtirish uchun nima qilish kerak.

Bolalar:- Birinchi erni yaxshilab yumshatib, unga ozuqa berib olma urug'ini yerga ekamiz.

Tarbiyachi: -Juda ham to'g'ri, yana qanday usulda ekish mumkin.

Bolalar:-Yana ko'chatlar orqali ham daraxt yetishtiriladi**.**

Tarbiyachi: -Shu jarayonni bajarib ko'rsatamiz.

Tarbiyachi:-Bolajonlar mana shu ekkan urug'ingiz yoki ko'chatingizni yaxshilab parvarish qilsangiz 3 yildan keyin hosilga kira boshlaydi. Shu o'rinda sizga mantiqiy masala-siz 5 ta o'rtoq 3 tadan olma ko'chati ekdingiz, u nechta daraxt bo'lib unib chiqadi.

Bolalar:-15 ta olma daraxti bo'ladi.

Tarbiyachi: -Juda ham to'g'ri.

Yana bir savol – siz ekkan ko'chat hosilga kirsa qanday meva soladi?

Bolalar: -Olma mevasi.

Tarbiyachi: -Olmalardan sharbat olsa bo'ladimi? Bo'yoqchi?

Bolalar: -Olmadan faqatgina sharbat olinadi.

Tarbiyachi: -Qaysi meva yoki sabzavotdan bo'yoq olinadi?

Bolalar: -Sabzi, qizil lavlagi, pomidor, gilos hamda ko'katlar.

Tarbiyachi: -Kelinglar qizil lavlagidan qizil rang olish jarayonini bajarib ko'ramiz. (Amaliy ish bajariladi)





Tarbiyachi : - Bolajonlar savollarga to‘g‘ri javob berdingiz va guruhingiz yana birta rag‘batga ega bo‘ldi.

Markazda– *Sabzilar guruhiga:*

Men aytaman topishmoq siz topasiz tez chaqqon

Er tagida oltin qoziq u hammaga berar oziq

Tarbiyachi: - Demak bu topishmoqning javobi

Bolalar: - Sabzi

Tarbiyachi: -endigi topshiriqlarimiz sabzi guruhiga. Ingliz tilida meva va sabzavotlar qanda aytiladi?

Bolalar: - FRUTS – mevalar, VEGETABLS – sabzavotlar.

Tarbiyachi: -Juda ham to‘g‘ri . Mana shu yerda turgan meva va sabzavotlar hikoya tuzing.

Bolalar: - “Bizning bog‘da” hikoyasini so‘zlab berishadi.

Tarbiyachi: -olma, sabzi, gilos, uzum, pomidor so‘zlarini bo‘g‘inlarga bo‘ling.

Bolalar: OL-MA, GI-LOS, SAB-ZI, PO-MI-DOR

Tarbiyachi : - Juda ham yaxshi bolajonlar, mana bu yerdagi so‘zlarni ayrim tovushlari tushib qolgan shu tovushni topib o‘rniga qo‘ying.

<u>BOSHQOTIRMA</u>

...LMA , AN…R , …ZUM , SH…LG‘ …M

Tarbiyachi: -Barakalla bolajonlarsiz tushib qolgan tovushlarni topdingiz. Tushib qolgan tovushlar unlimi yoki undosh?

Bolalar: Tushib qoldirilgan tovushlar unli tovushlar edi.

Tarbiyachi: -Barakalla bolajonlarsiz ham barcha savollarga to‘g‘ri javob

berdingiz va guruhingizga yana bir rag‘bat olib berdingiz.

Markazda – Xurmolar guruhiga:

Tarbiyachi: -O‘zim kichkina sarg‘ish, daraxtlarda o‘saman,

Ko‘rib havas qilasiz eb hech sira to‘ymaysiz .

Vitaminlar barii menda, g‘arq pishaman kuz faslida

Qani toping bolalar, budir qaysi meva.

Bolalar: -xurmo

Tarbiyachi: -Demak endi topshirig‘imiz Xurmo guruhiga. Kelinglar bolajonlar bir o‘yin o‘ynaymiz bu o‘yinimiz “Aytganimni top” deb nomlanadi. Tayyor bo‘lsangiz boshlaymiz.

“Aytganimni top” o‘yini: Menga yashil rangdagi meva va sabzavotlarni ko‘rsating.

Bolalar:-bodring, turp, kivi

Tarbiyachi:- Juda ham yaxshi endi esa qizil rangdagi meva va sabzavotlarni ko‘rsating.

Bolalar: -pomidor, gilos, qizil olma, qizil lavlagi.

Tarbiyachi: -Endi men sizlarni aktyorlik qobiliyatlaringizni sinab ko‘rmoqchiman, meni qo‘limda yashirin suratlar turibdi shu suratlar asosida pantamima shartini bajaramiz. Bu shart ovoz chiqarmagan holda harakatini ko‘rsatib berasiz.

Bolalar : Olma, uzum, sabzi, piyoz, anor meva sabzavotlarni harakati va shakli orqali ko‘rsatib beradi.

Tarbiyachi: Bolajonlar kelinglar bir o‘yin o‘ynaymiz.

“Nasibaning olmasi” Bolalar ijrosida. Harakatli o‘yin.

Tarbiyachi: Bolajonlar, siz ham topshiriqlarni a’lo darajada bajardingiz va guruhingizga 1 ta rag‘bat olib berdingiz.

Tarbiyachi: 4-markazda pomidorlar guruhi.

Qani bolajonlar siz nimaning suratini chizyapsiz?

Bolalar: Olma, uzum, anor, sabzi.

Tarbiyachi: Sabzining rangi qanaqa rangda?

Bolalar: Sariq va to‘q sariq.

Tarbiyachi: Sabzi suratini chizish uchun qaysi ranglardan foydalanyapsiz?

Bolalar: Sariq va yasil rang.

Tarbiyachi: Barakalla bolajonlar. Endi chizgan suratlaringizni rangini ingliz tilida nomlang.

Bolalar javobi: green, red, ellov, orange.

Tarbiyachi: Barakalla bolajonlar siz ham topshiriqlarni a'lo darajada bajardingiz va guruhingizga rag'bat olib berdingiz.

Tarbiyachi: Bolajonlar kuchli shamol bo'lib hammani birinchi markazga uchirdi.

Bolalar: Shamol harakatini qilib birinchi markazga borishadi.

Tarbiyachi: Bolajonlar sabzavotlar qayerga o'sadi va qaysi faslda ularni eka boshlashad?

Bolalar: Sabzavotlar polizda o'sadi, bahor faslida ekishadi.

Tarbiyachi: Siz menga mana bu urug'lardan birini tanlab ekib bering.

Bolalar: Bolalar bu amaliy ishni bajarib ko'rsatishadi.

Tarbiyachi: Siz qaysi sabzavotni ekdingiz?

Bolalar: Pomidor.

Tarbiyachi: Bu sabzavotni rangi va foydali tomonini ayting undan sharbat olsa bo'ladimi bo'yoqchi?

Bolalar: Bu pomidorninig rangi qizil, vitaminlarga boy, undan sharbat ham rang ham olsa bo'ladi.

Tarbiyachi: Kelinglar shu jarayonni bajarib ko'ramiz. Bolalar va tarbiyachi tomonidan amaliy ish bajariladi.

Tarbiyachi: Barakalla bolajonlar siz barchangiz topshiriqlarni a'lo darajada bajardingiz va meni juda ham xursand qildingiz.

Kelinglar mavzuni mustahkamlash uchun milliy o'yinlarimizdan biri bo'lgan "oq terakmi-ko'k terak" o'yini bilan mustahkamlab olamiz.

"Oq terakmi-ko'k terak bizdan sizga kim kerak
Gijinglagan toy kerak bizga Javohirbek kerak
"Oq terakmi-ko'k terak bizdan sizga kim kerak

Osmondagi oy kerak bizga Munisaxon kerak”

Bolalar rag‘batlantirilib, mashg‘ulot yakunlanadi.

Sentabr oyi 2- mavzu

Mavzu –Toshning xususiyatlari.

Maqsad;

a) Bolalarga toshlarning xususiyatlarini, tashqi ko‘rinishlarinig xususiyatlarini tabiatdagi va inson hayotida toshlarning afzalliklari haqida tushuncha berish va bilimlarini oshirish .Nutq matematik va ijodiy qobilyatlarini shakllantirish.

b) Jonli va jonsiz tabiatga mehrini uyg‘otish, do‘st bo‘lib yurishga undash va estetik tarbiyalash.

c) Bolalardagi yirik mayda va sensor matorikalarini yanada rivojlantirish, ijtimoiy hissiy jihatdan so‘z boyligini soda arifmetik masalalar yechish va tuzish orqali fikrlash doirasini yanada kengaytirirish.

Kerakli jihozlar: qum, suv, tosh, qum xavzasi, ishchi taxtacha, banka, maxsus plasmassa idish, plastilin.

Faolyatning borishi:

Tashkiliy qism:

Tarbiyachi: Bolajonlar bugun havo qanday ajoyib to‘g‘rimi?

Bolalar: Ha bugun havo judaham yaxshi.

Tarbiyachi: Demak bu qaysi fasldan darak?

Bolalar: Kuz fasli

Tarbiyachi: Kuz faslida tabiatda qanday o‘zgarishlar yuz beradi?

Bolalar: Kunlar goh salqinlashadi goh issiq bo‘ladi. Daraxtlarning barglari asta-sekin sarg‘aya boshlaydi. Meva va sabzavotlar g‘arq pishgan bo‘ladi.

Tarbiyachi: Rahmat bolajonlar siz kuz fasli haqida yaxshi so‘zlab berdingiz.

Yangi mavzu bayoni:

Tarbiyachi: Aziz bolajonlar bugun biz tabiatning yana bir mo‘jizasi bo‘lgan “Toshning xususiyatlari” bilan yaqinroq tanishib olamiz.

Buning uchun tabiat qo‘yniga sayohatga chiqamiz, sayohatimizni biz poyezdda

davom ettiramiz, qani hamma poyezdga.

Bolalar: Bolalar saflanib poyezd va vagonlar bo‘lishadi.

Bolalar: Pup-pup yuramiz

Manzilga tez yetamiz.

Tarbiyachi: Mana bolajonlar biz qayerga keldik?

Bolalar: Qum xavzasiga

Tarbiyachi: Bu yerda siz nimalarning ovozini eshityapsiz **?**

Bolalar: Qushlarning, mashinalarning, toshlarning.

Tarbiyachi: Juda ham to‘g‘ri eshitgan ovozlaringizni masalan;mashina ,qushlar va toshlarning ovozi qanday ekanligini ko‘rsatib bering.

Bolalar: Qushlar chirq-chirq , deb ovoz chiqaradi va uchadi.

Mashinalar: g‘ang- g‘ang deb ovoz chiqaradi, yerda yuradi.

Toshlar: Qars-qars deb ovoz chiqaradi, tog‘larda, daryolarda, akvariumda va qum havzalarida bo‘ladi.



Tarbiyachi: Barakallabolajonlar siz qushlarni, mashinalarni va toshlarni ovozini taqlid qilish orqali “CH”,”G‘”,”Q”, tovushlarining talaffuzini bilib oldingiz.

Hozir sizlar bilan qiziqarli o‘yin o‘ynaymiz, yarim doira shaklida turib olaylik-chi.,

Bolalar: Yarim doira shakli bo‘lib turadilar.

Tarbiyachi: Qo‘llarimizni balandga qanday ko‘taramiz?

Bolalar: Daraxtlar kabi

Tarbiyachi: Qo‘llarimizni qanday ushlaymiz?

Bolalar: Tog‘lar kabi.

Tarbiyachi: Qo‘llarimizni yuqoriga ko‘tarib qanday tebratamiz ?

Bolalar: Shamol kabi**,**

Tarbiyachi: Qo‘llarimizni oldinga uzatib qanday harakatlantiramiz**?**

Bolalar: Yomg‘ir yog‘ayotgandek.

Tarbiyachi: O‘tirgan holda barmoqlarimizni qanday sakratdik?

Bolalar: yomg‘ir yerga tushgandek.

Tarbiyachi: Qo‘llarimizni O‘ng va chap tomonga qanday tebratamiz **?**

Bolalar: Suv oqayotgandek.

Tarbiyachi: Qo‘llarimizda aylanani qanday chizamiz**?**

Bolalar: Quyosh chiqqandek

Tarbiyachi: Bolajonlar bularning barchasi qayerda yuz beradi**?**

Bolalar: tabiatda

Tarbiyachi: ham to‘g‘ri bu tabiat hodisalari.Tabiat ikki turga bo‘linadi Jonli va Jonsiz tabiat.

Jonli tabiatga-o‘simliklar, qushlar, hayvonot olami, daraxtlar suvlar kirsa

Jonsiz tabiatga –toshlar, tog‘lar, tabiiy qazilmalar ko‘mir, oltin, gaz kiradi.

Mana bu yerda toshlarni ko‘ryapsiz uqaysi tabiat turiga kiradi?

Bolalar: Toshlar jonsiz tabiat turiga kiradi.

Tarbiyachi: Kelinglar manashu toshlardan tajribalar o‘tqazamiz.

(shu payt diqqat-diqqat tajribalarga tayrormisiz!!!!! degan ovoz

audio orqali uzatiladi)

Tarbiyachi: 1-tajriba topshirig‘ida shunday deyiladi.

Toshlarning rangi va shaklini aniqlang?

Tarbiyachi: Siz qanday toshlarni ko‘ryapsiz?

Bolalar: Qizil, qora, kulrang, oq, ko‘k.

Tarbiyachi: Qaysi rangdagi tosh rangi va hajmi jihatdan katta?

Bolalar: Qo‘llariga toshlarni olib katta va kichikligini aniqlab aytishadi.

Tarbiyachi: Juda ham to‘g‘ri bolajonlar: 1-tajriba topshirig‘ini a’lo darajada bajardingiz va 2-tajribaga o‘tdingiz.

2-tajriba topshirig‘ida shunday deyiladi.

Silliq va dag‘al toshni ko‘rsating?

Bolalar: Qo‘llariga olib silab toshning silliq va dag‘alligini aytishadi.

Tarbiyachi: Bolajonlar 2-tajribaning topishmog‘ini tinglang**.**

Shatir-shutir etadi,

Yerni cho‘qib ketadi.

Bolalar: “ YOMG‘IR” deb aytishadi**.**

Tarbiyachi: Juda ham to‘g‘ri bolajonlar bu yomg‘ir edi, siz 3-tajribaga o‘tdingiz.

3-tajriba topshirig‘ida shunday deyiladi**.**

-Toshlarni magnit oynasida tekshiring?

Tarbiyachi: Bolajonlar buning uchun lupalardan foydalanamiz**.**

Bolalar: Birma-bir toshlarni tekshira boshlashadi.

Tarbiyachi: Bolajonlar qiziqarli nimalarni ko‘ryapsiz?

Bolalar: chiziqlar, yo‘laklar, rasmlar, naqshlar va gular deb javob beradilar**.**

Tarbiyachi: Endi bolajonlar qiziqarli o‘yin o‘ynaymiz .O‘yininimiznig nomi “Tarozichalar”

Tarozi bilan nima qilinadi?

Bolalar: Og‘irlik o‘lchanadi.

Tarbiyachi: Siz menga tarozichalar bo‘lib eng og‘ir toshlarni aniqlab bering.

Bolalar: Aniqlab ko‘rsatadilar.

Tarbiyachi: Juda ham to‘g‘ri bolajonlar: 3-tajriba topshirig‘ini a’lo darajada bajardingiz va 4-tajribaga o‘tdingiz.

4-tajriba topshirig‘ida shunday deyiladi**.** O‘yin “issiq va Sovuq”, demak siz issiq va sovuq toshlarni aniqlang va farqlang ,issiq toshlar o‘ng tomonga sovuq toshlar chap tomonga yig‘ing va qaysi toshlar ko‘p bilib bering.

Bolalar: Vazifani bajararishadi toshlarni ajratadilar.

Issiq tosh 10 ta, sovuq tosh 15 ta

Tarbiyachi: Qaysi tosh ko‘p va nechtaga ?

Bolalar: Sovuq tosh ko‘p, 5 taga.

Tarbiyachi: Kelinglar yana bir o‘yin o‘ynaymiz “Nafas chiqor”, bu o‘yinda siz sovuq toshlarni nafasingiz orqali isitasiz vaissiq toshlarni ham ko‘payishiga

yordam berasiz.Buning uchun burundan nafas olasiz va og‘iz orqali asta chiqorasiz .

Bolalar: Qo‘llariga toshlarni olib vazifani bajaradilar.

Barakalla bolajonlar siz 4-tajribani topshirig‘ni a’lo darajada bajardingiz va 5-tajribaga o‘tdingiz.

5-tajriba topshirig‘ida shunday deyiladi: Siz menga toshlarni suvda cho‘kadimi yo‘g‘mi aniqlab bering.

Bolalar: Qo‘llariga toshlarni olishadi va ehtiyotkorlik bilan bankaga tashlaydilar.

Tarbiyachi: nima hosil bo‘ldi?

Bolalar: Tosh cho‘kdi chunki u og‘ir va zich, suvga solgandan so‘ng rangi o‘zgardi yanada yorqinroq bo‘ldi ,atrofida doirachalar hosil bo‘ldi.

Tarbiyachi: Bolajonlar 2-topshiriq mantiqiy masala diqqat bilan tinglang. Qo‘ziqorin yasash uchun 15 ta rangli toshlar kerak. Ammo sizda 13 ta tosh bor 15ta bo‘lishi uchun sizga yana necha dona tosh kerak?

Bolalar: 2 ta ,chunki 13+2=15 bo‘ladi.

Tarbiyachi: Juda ham to‘g‘ri siz barcha tajribalarni topshiriqlarini a’lo darajada bajardingiz va oltinlarga ega bo‘ldindiz oltonlarni olib endi guruhimizga qaytsak ham bo‘ladi mana siz bilimdon bolalar uchun yo‘llar ham ochildi.

Bolalar: Poyezd va vagonlar bo‘lib yuradilar

Pup-pup yuramiz

Manzilga tez etamiz.

Tarbiyachi: Mana bolajonlar guruhimizga ham yetib keldik endi “Qurish yasash va konstruksiyalash” markazida legolar orqali Qum xavzasini yasaysiz ,”San’at” markazida plastilin orqali rangli toshlarni yasaysiz.

Bolalar: Ixtiyoriy tarzda markazlarga o‘tirib oladilar .

Mashg‘ulotni mustahkamlash: Uchun test savollari:

Tarbiyachi: Bolajonlar toshlar ranglimi yoki rangsiz?

A)rangli **B)**rangsiz **D)**yumshoq

Bolalar: A) rangli

Tarbiyachi: Bolajonlar toshlar qanday turlarga bo‘linadi?

A) toshlar turlarga bo‘linmaydi

B) silliq va dag‘al

C) qattiq

Bolalar: B) silliq va dag‘al

Yakuniy qism: Tarbiyachi: Rahmat bolajonlar barchangiz mashg‘ulotda yaxshi qatnashdingiz va rag‘batlarga ega bo‘ldingiz .

Sentabr oyi 3-mavzu:

Mavzu: Qumda magnit.

Maqsad:

a) Bolalarda magnit tushunchasini bilish asosida magnit xususiyatlari va magnit bilan bog‘liq buyumlardan foydalanish mumkinligiga doir tushunchalarini shakllantirish.

b) Tabiatni sevishga, ardoqlashga, jamoa bo‘lib amaliy tadqiqotlar olib borishga va do‘stona munosabatda orqali ahillika o‘rgatib borish.

c) Bolalarning e’tibori va diqqatini rivojlantirish vabilimlarini umumlashtirish.

Jihozlar: turli formadagi magnitlar, quruq qum to’ldirilgan idishlar,
magnit doska va magnitli rasmlar.





Faoliyatning borishi:

Tashkiliy qism:

Tarbiyachi: bolajonlar barchangizni diqqatingizni monitorga qarating, nimalarni ko’ryapsiz, kuzating.

(klip) tabiatni asrash to’g’risida va qumli manzarali videoni ko’rish.

Tarbiyachi: bolajonlar bu videodan o’zingizda qanday tasavvur qoldi?

Bolajonlar: tabiatni asrash, uni barcha ne’matlarini tejashni va go’zal tabiatni manzarasidan bahramand bo’ldik. Ayniqsa qumli manzaradan.

Tarbiyachi: juda ham yaxshi bolajonlar. Endi bir o’yin o’ynaymiz, bu sehrli o’yin. Sehrli so’zni aytasiz, tezda g’oyib bo’lasiz.

Bolajonlar: shamol bo’lib yelamiz

Sahroga yo’l olamiz. (silkitib qo‘llarini yuqoriga)

Guruh xonasi sahro manzarasiday bezatilgan.

Tarbiyachi:

Ko’zimizni ochamiz,
Sahroda tez bo’lamiz.
Tushib qoldik sahroga,
Bo’ldi mo’jiza shu onda
Qizlar bo’ldi bir tomon.
Yigitlar bo’ldi hayron,
Bo’linishib markazga.
Aylandilar har yonga
Bilimlarin sinashib,
Mo’jizalar izlashib.
Bo’ldi qumdan mo’jiza
Tayyorladik musiqa.

Tarbiyachi:

voy bolajonlar tushib qoldik sahroga

Endi nima qilamiz

Markazlarni topamiz

Sizga uycha quramiz





Bolajonlar: har tomondan markazlarni qidira boshlashadi va bir bola men topdim qurish yasash va konstruksiyalash matematika markazini.

Tarbiyachi: Boramiz shu tomonga,

Ne gap bo’lar u yonda.

Bolajonlar: Hamma shu markazga kelishadi.

Tarbiyachi:

Bolajonlar bu markazimizda qumdan uycha quramiz va yasaymiz

Kim bo’lmoqchi duradgor,

Yoki arxitektor .

Qurib bersin uycha,

Yoki katta shaharcha.

Bolajonlar: Ixtiyoriy tarzda kim usta bo’lmoqchi, uycha qurishadi.

Tarbiyachi:

Barakalla bolajonlar

Jajji duradgorlar

Uyni qurdingiz qanchada

Shaharnichi anchada

Farqlab bering siz shu on

Qay biri kattakon

Bolajonlar: Qurdik uycha va shahar

Bo’ldi shahar eng baland.

Tarbiyachi:

To’g’ri javob qildingiz

Meni xursand etdingiz.

Qidiringlar har tomon

Topasiz qanday markaz.

Bolajonlar: Har tomondan qidirishadi.

Yana bir bola:

Men topdim qanday markaz

Bordir qum va magnit

Idishlar ko’pdir chora

Tajriba bo’lar rosa.

Tarbiyachi:

Bilimdonim bolajon

Sen, topgan markazjon

Ilm, fan va tabiat

Hamma kelsin shu yonga

Mo’jizalar makoniga.

Bolajonlar: Kelishadi.

Tarbiyachi:

Siz ko’rdingiz magnitlar

Va qum to’la idishlar

Qilasiz mo’jizalar

Yana qumli manzaralar.

Kim bo’lmoqchi olimlar

Qilar tajribalar.

Bolajonlar: Ixtiyoroiy tarzda tarbiyachi yordamida qum ustida magnit orqali rasm chizadilar va stol ustidagi magnitni yurg’izadilar. Amaliy mashg’ulot bajarib ko‘rsatadilar.

Tarbiyachi: Bo’ldi qanday mo’jiza

So’zlab bering siz bizga.

Bolajonlar:

Magnitlar yurganida

Mo’jizalar yuz berdi

Qum ustida chizilgan rasm

Hammamizga xush keldi.

Tarbiyachi:

Vazifalarni qilib

Rosa charchab qoldingiz

O’yin o’ynab dam olib

Yana ishga tushingiz.

O’yin:

“Eslab qol” tarbiyachi tomonidan havo, olov, yer deyiladi. Bolalar shu so‘zlarni eslab qolib harakatini bajaradi.

Havo desa – qo’llar yuqorida.

Olov desa – qo’llar birlashgan.

Yer desa – qo’llar pastda.

Tarbiyachi:

Mana dam ham oldingiz,

Endi ishga tushingiz.

Xotirangizni charxlab,

Yasang magnitli gulcha.

Bolajonlar: stol va idishli qumlar ustida magnit orqali gullar yasashadi.

Tarbiyachi: Qumni ushlab ko’rasiz

Qandayligin aytasiz.

Bolajonlar: Qumni qo’llariga ushlab ko’radi va qumning xususiyati quruq, yengil, issiq deb aytishadi.

Tarbiyachi: To’g’ri javob berdingiz,

Meni xursand etdingiz.

Tarbiyachi: Bu markazdan o’tdingiz

Qani qayga ketdingiz

Qidiringlar yana bir

Ko’rasizlar nimadir.

Yana bolalar qidirishadi va topdik topdik deb aytishadi.

Tarbiyachi: Topoldingiz qanday markaz

Nomin ayting shu mahal.

Bolajonlar: Biz topgan markaz

Budir musiqa va ritmika

Bordir turli asboblar

Nay, doira, ruboblar.

Tarbiyachi: Bu asboblarning bordir egasi

Sizga chalsin nay musiqasin.

Suvning, shamolning, qushlarning, sovuq qish shabadasi kuylari musiqachi tomonidan chalinadi. Bolalar tinglib topadilar. Musiqa rahbari tomonidan musiqa asboblari tanishtiriladi.

Tarbiyachi: Qo’shiq ayting boalar

Tinglab orom olayin

Vatanni kuylab madhin

Jaranglasin qid-adir.

Bolalar: Qo’shiq “Vatan”.

(SHu payt shamol bo’ladi bolalar guruhlariga qaytishadi ko’zlari yumilgan holda)

Mavzuni mustahkamlash.

Tarbiyachi: Siz bo’ldingiz qaylarda

Ne gap o’sha tomonda.

Bolalar:

Biz bordik bir sahroga

Mo’jizalar koniga.

Tarbiyachi: Bo’ldi qanday mo’jiza

Ilm, fan va tabiat markazida.

Bolalar: Bo’ldi mo’jiza rosa,

Magnitli qum ustida.

Qumli manzara bo’ldi,

Qumda gullar chizildi.

Tarbiyachi: Qurish, yasash va konstursiyalash markazida ne bo’ldi?

Bolalar: Uycha qurdik biz qumdan,

SHahar ham qurdik qumdan

Farqladik biz ularni

Katta kichikligini.



Bilimimiz oshdi ko’p,

Qo’shiqlar aytdik sho’x-sho’x

Sahro bizlarga yoqdi.

Sarguzashtlar ko’p bo’ldi.

Yakuniy qism:

Tarbiyachi tomonidan bolalar rag’batlantiriladi va mashg’ulot yakunlanadi.



Sentabr oyi 4-mavzu.

Mavzu-Bog‘chamiz bog‘iga sayohat.

Maqsad:

A) Bolalarga jonli olamni kuzatishga qiziqish uyg‘otish, bog‘dagi daraxtlarning xususiyatlari haqida tasavvurlarini yanada kengaytirish, mevali va manzarali daraxtlarni farqlay olishga undash.

B) Bolalarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash, bog‘bon mehnatini qadrlashga va hurmat qilishga o‘rgatib borish

C) Bolalarda tabiat qo‘ynida mehnat qilish orqali tasavvurlarini o‘stirish va boladagi yirik mayda motorikalarini va nutq boyligini yanada rivojlantirish.

Kerakli jihozlar: mavzu yuzasidan bog‘bon asboblari va jihozlar.

Faolyatning borishi:

Tashkiliy qism:

Tarbiyachi: G‘ir-g‘ir shamol yelibdi,

O‘lkamga kuz kelibdi.

CHak-chak yomg‘ir yog‘ibdi

Tarbiyachi: Bolajonlar she’rimizni davomi qanday edi?

Bolalar:

Mevalar g‘arq pishibdi,

Bog‘da olma pishibdi.

Yerga to‘p-to‘p tushibdi,

Sa’vatchangni olaqol,

Mevalarni solaqol.

Tarbiyachi: Bolajonlar mana shu she’rda qanday ma’no yashiringan?

Bolalar: bu she’rda o‘lkamizga kuz fasli kelganligi, tabiat hodisalari, bog‘da mevalarning g‘arq pishganligi va mevalarni yig‘ib olish kerakligi haqida aytilgan.

Tarbiyachi: Barakalla bolajonlar juda ham to‘g‘ri javob berdingiz, bugun biz mana shu mevalarni yig‘ib olish jarayonini ko‘rish hamda siz ham mevalarni yig‘ib olishga yordam berishingiz uchun bog‘chamizni bog‘iga sayohatga boramiz.

Bolalar: Qanday yaxshi!

Yangi mavzu bayoni:

Shu payt eshik taqillab bog‘bon bobo kirib keladilar

Bolalar: Assalomu alaykum bog‘bon bobo**.**

Bog‘bon: Va alaykum salom mening bog‘bon bolajonlarim, siz yuborgan maktubingizni oldim va juda xursand bo‘ldim .Bog‘ga sayohat qilmoqchi ekansiz juda ham yaxshi, lekin bizning bog‘imiz oddiy bog‘lardan emas, u yerda mehnat qilishdan tashqari bilimingizni ham sinab ko‘rasiz, shunga tayyormisiz?

Bolalar: Albatta tayyormiz**.**

Tarbiyachi: Bog‘bon bobojon bizning bolajonlarimiz mehnatsevar, bilimli va albatta donodirlar va barcha topshiriqlarni bajara oladilar.

Bog‘bon: qani bolajonlar mening uchqur otimga chiqib olamiz va tezda bog‘da paydo bo‘lamiz.

Bolalar: Birin-ketin o‘rnashib oladilar va qo‘shiq aytib tezda bog‘da paydo bo‘ladilar.

Bizda ko‘p kuch g‘ayrat,

Bizlar chaqqonmiz.

Har kun har soat,

Biz chiniqamiz.

Tarbiyachi: Mana bolajonlar uchar ot bilan tezda bog‘ga etib keldik, qarang ko‘rkam va chiroyli joy havosi ham yoqimli to‘g‘rimi bolajonlar?

Bolalar: Ha juda ham chiroyli va ko‘rkam joy.

Tarbiyachi: Bog‘bon bobojon bolajonlarimizga nimadir demoqchi bo‘lib turibsizmi?

Bog‘bon: Bolajonlar mana bizning bog‘imiz bu yerda turli tuman mevali va manzarali daraxtlar bor va bu daraxtlar markazlarga bo‘lingan.

1-markazda olma va o‘rik daraxti joylashgan.

2-markazda shaftoli, nok va gilos daraxtlari joylashgan.

3-markazda anor, uzum va manzarali daraxtlar joylashgan**.**

Mana bog‘imizning xaritasini bilib oldingiz endi xohlagan markazdan

sayohatingizni boshlasangiz bo‘ladi.

Tarbiyachi: Bobojon biz raqam boshi bo‘lgan 1-markazdan boshlaymiz. Bu markaz orqali bolajonlarimizni nutq boyligini yanada rivojlantirishga undaymiz.

Tarbiyachi: Bolajonlar 1-markazimizda qanday daraxtlarni ko‘ryapsiz?

Bolalar: Olma o‘rik daraxtlarini ko‘ryapmiz

Tarbiyachi: Olmalar necha xil rangda bo‘ladi?

Bolalar: uch xil rangda bo‘ladi, qizil, sariq va yashil.

Tarbiyachi: Olma so‘zini bo‘g‘inga bo‘ling va nechta unli tovush bor ayting.

Bolalar: OL-MA. Ikki bo’g‘inga bo‘linadi “A” va “O” unli tovushi bor.

Tarbiyachi: Barakalla, bolajonlar a’lo darajada bajardingiz va bog‘bon bobomizni olmalariga ega bo‘ldingiz, endi bobojon 2-markazga o‘tsak maylimi?

Bog‘bon: Albatta

Tarbiyachi: Bu markazda bolalarimizni ilm fan va tabiat haqidagi bilimlarini sinab ko‘ramiz. Bolajonlar bu yerda qanday daraxtlarni ko‘ryapsiz?

Bolalar: Shaftoli, nok va gilos daraxtlarini

Tarbiyachi: Mana shu daraxtlarning yerga tushgan barglarini olib ularni farqlang

Bolalar: Bolalar barglarni olib, qaysi daraxtga ega rangi shakli haqida aytishadi va shu daraxtni oldiga borib turadilar.

Tarbiyachi: Bolajonlar mana shu barglar orqali arifmetik masalalar tuzing.

Bolalar: Bor edi qo‘limda 6 ta barg ,

O‘rtog‘im berdi yana 5 ta barg

Hammasi bo‘lib 11 ta barg.

Tarbiyachi: Endi meni tinglang,

Bor edi daraxtda 12 ta barg, kuchli shamol bo‘lib barglarni uchirib yubordi. Daraxtda 2 ta barg qoldi, shamol necha dona bargni uchirgan?

Bolalar: Shamol 10 ta bargni uchirgan, chunki 12-2=10 bo‘ladi.

Tarbiyachi: Balli, mening bilag‘on bolajonlarim kelinglar bir ajoyib o‘yin o‘ynaymiz .

“Nimani olib qo‘ydim”(tarbiyachi tomonidan bog‘bon ish qurollari terib qo‘yiladi va bittadan olib qo‘yiladi ,bolalar qaysi ish quroli olinganligini topadilar)

Tarbiyachi: Mana bolajonlar o‘yin o‘ynab ham oldik , bog‘ning 3-markaziga ham etib keldik.Bu yerdagi daraxtlarni yaqindan bog‘bon bobojonimiz tanishtiradilar.

Bog‘bon: Bolajonlar ertaklarni yaxshi ko‘rasizmi, men sizga “Maqtanchoq daraxtlar” haqidagi ertakni aytib beraman diqqat bilan tinglang. (Ertak bog‘bon tomonidan hikoya qilinadi va bolalarga ertak yuzasidan savollar beriladi)

Tarbiyachi: Bolajonlar ertakda qaysi daraxtlar bor edi?

Bolalar: Mevali va manzarali daraxtlar haqida edi.

Tarbiyachi: Daraxtlar maqtanchoqlik bilan yaxshilikka erishdimi?

Bolalar: Yo‘q, chunki bu maqtanchoqlik yomon odat.

Tarbiyachi: Manzarali daraxtlar tabiatga nima uchun kerak ekan.

Bolalar: Manzarali daraxtlar havoni tozalashda va ekologiyani ifloslanmasligiga va chiroyli bo‘lishi uchun kerak bo‘lar ekan.

Tarbiyachi: Barakalla bolajonlar bugungi sayohatimiz sizlarga yoqdimi va bu sayohat orqali o‘zingizda qanday ta’ssurot uyg‘ondi?

Bolalar: Biz ham uyimizga borib ko‘proq ko‘chatlar ekamiz, maylimi dehqon bobojon hozir bizga ko‘chat ekishni o‘rgatsangiz va biz hammamiz bog‘chamizni bog‘iga ko‘chat eksak.

Bog‘bon: mayli bolajonlar men sizlarga ko‘chat ekishni o‘rgataman, so‘ng siz menga olmalarni yig‘ishga yordamlashasiz.

Bolalar: bog‘bon bobo bilan birgalikda ko‘chat ekishadi va olmalarni yig‘ib savatlarga solishadi.

Bog‘bon: men sizlardan juda xursand bo‘ldim va mana bu savatdagi olmalarni sizga sovg‘a qilaman va uchar otimga chiqib oling, sizni bir zumda guruhingizga olib boradi. Xayr bolajonlar.

Tarbiyachi: Bolalar bog‘bon bobo bilan xayrlashadi va bir zumda guruhda paydo bo‘lishadi.

Tarbiyachi tomonidan bolalar rag‘batlantiriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

Oktyabr 1-hafta

Mavzu: Tabiiy bo‘yoqlar.

Maqsad:

a) O‘lkamiz ona tabiati zahiralari sabzavot va mevalarning xususiyatlari bilan tanishtirish, meva va sabzavotlarni urug‘idan boshlab, o‘sish davriga va hosil berishigacha davri haqida bolalarga tushuncha berish. Meva va sabzavotlardan tabiiy bo‘yoqlar olish orqali amaliy mashg‘ulot olib borish.

b) Bolalarni o‘rtoqlari bilan do‘stona munosabatlarini yanada mustahkamlash, tabiatga va undagi ekinzorlar, bog‘larga bo‘lgan mehrini oshirish, sabzavot va mevalarni etishtirishda kattalarning mehnati haqida tushuncha berish, bolalarni qalbida mehnatsevarlikni uytg‘otish va tabiat haqidagi tasavvurlarni shakllantirish.

C) Bolalarda, meva va sabzavotlarning shakli, rangi, hajmi, ta’mi va iste’mol qilinishiga qarab qiyoslash va xarakterlash ko‘nikmasini shakllantirish.

Kerakli jihozlar: Fartuk, sabzavotlar, mevalar, ish taxtachasi, pichoq, qo‘lbola sharbat siquvchi moslama, idish, qum, loy, suv, meva va sabzavotlar urug‘i va tarqatma materiallar.

FAOLIYATNING BORISHI :

Tashkiliy qism:

Tarbiyachi: -Assalomu-alaykum aziz bolajonlar.

Bolalar: Assalomu – alaykum

Tarbiyachi: Bugungi mashg‘ulotlarga tayyormisiz? Kayfiyatingiz a’lomi?

Bolalar: Ha

Tarbiyachi: Barakalla bolajonlar endi manabu she’rga diqqat bilan quloq soling, she’r nima haqida?

Alpomishdek alpqomatli
Jaloliddindek shiddatli,
Ulug‘bekdek ma’rifatli
Ulug‘ sultonlar yurti bu.

Bolalar: Bu she’r bizning jonajon yurtimiz haqida.

Tarbiyachi: Juda ham to‘g‘ri, bizning Vatanimiz qayer?

Bolalar: O‘zbekiston Respublikasi.

Tarbiyachi: Sizning shaxringiz qayer?

Bolalar: Bizning shaxrimiz Buxoro viloyati.

Tarbiyachi: Vatan - bu nima?

Bolalar: Vatan - bu bizning ona yerimiz, Vatan ostonadan boshlanadi, Vatan bu kindik qoni to‘kilgan ona zamin, biz Vatanimizni ko‘z qorachig‘imizday asraymiz.

Tarbiyachi: Meni juda xursand qildingiz. Mana Yurtimizda kuz fasli, bu faslda meva va sabzavotlar pishib yetiladi hamda ularni yig‘ib – terib oladilar Kelinglar bolajonlar biz sizlar bilan meva va sabzavotlar bilan yaqinroq tanishib olamiz. Buning uchun biz 4 ta guruhlarga bo‘linamiz. Mana bu yerda tarqatma suratlar bor siz o‘z ixtiyoringiz bilan shu suratlarni birini tanlaysiz va shu suratlar asosida guruhlarga bo‘linasiz.

1 - Guruh: - Olmalar

2 - Guruh: - Sabzilar

3 - Guruh: - Xurmolar

4 - Guruh: - pomido rlar





Tarbiyachi: Bolajonlar hozir sizlar bilan qiziqarli sayohatga yo‘l olamiz. Bu sayohat shahrimizda joylashgan faollik markazlariga olib boradi. U yerda sizlarni qiziqarli, hayajonli, bilimlarga boy jarayonlar kutib turmoqda.

Sizdan talab shuki, topshiriqlarni a’lo darajada o‘zlashtirib, yanada o‘z bilimingizni oshirishdan, guruhingizga rag‘batlarni olib berishdan iborat. Bolajonlar bu yer faollik markazlari joylashgan shahar. Keling sizlarni markazlar bilan tanishtiraman.

1 - **Markaz-***Ilm-fan va tabiat*:-bu markazda siz bolajonlar meva va sabzavotlarni urug‘idan to o‘simlik davri va hosil berish davrigacha bo‘lgan jarayonni bilib hamda shu o‘simliklarni mevasidan tabiiy bo‘yoqlar olishni bilib olasiz.

2 - **Markaz-***Til va nutq*:- bu yerda siz meva va sabzavotlar haqida she’r, qo‘shiq va surat asosida hikoya tuzasiz, topishmoqlar, tez aytishlar va ingliz tilida meva va sabzavotlar nomini aytishni o‘rganasiz.

3 - **Markaz**- *Syujetli rolli o‘yinlar va drammalashtirish*: -bu yerda siz o‘rtoqlaringizga meva va sabzavotlarni pantomime shaklida tushuntirasiz.

4 - **Markaz**– *San’at :*- Bu yerdasiz meva va sabzavotlarni suratini chizasiz va ranglariga mos ravishda bo‘yaysiz. Applikatsiyadan foydalanib meva va sabzavotlarni yelimlaysiz.

Mana guruhlar markazlarga joylashib olishdi.

1 - Markazda– *Olmalar guruhi*

2 - Markazda– *Sabzilar guruhi*

3 - *Markazda – Xurmolar guruhi*

4 - *Markazda – Pomidorlar guruhi* *joylashib oldi*

Markazda– *Olmalar guruhiga:*

Tarbiyachi: - Olma daraxtini etishtirish uchun nima qilish kerak.

Bolalar: -Birinchi erni yaxshilab yumshatib, unga ozuqa berib olma urug‘ini yerga ekamiz.

Tarbiyachi: -Juda ham to‘g‘ri, yana qanday usulda ekish mumkin.

Bolalar: -Yana ko‘chatlar orqali ham daraxt yetishtiriladi**.**

Tarbiyachi: -Shu jarayonni bajarib ko‘rsatamiz.





Tarbiyachi: -Bolajonlar mana shu ekkan urug‘ingiz yoki ko‘chatingizni yaxshilab parvarish qilsangiz 3 yildan keyin hosilga kira boshlaydi. Shu o‘rinda sizga mantiqiy masala – siz 5 ta o‘rtoq 3 tadan olma ko‘chati ekdingiz, u nechta daraxt bo‘lib unib chiqadi.

Bolalar:-15 ta olma daraxti bo‘ladi.

Tarbiyachi: -Juda ham to‘g‘ri.

Yana bir savol – siz ekkan ko‘chat hosilga kirsa qanday meva soladi?

Bolalar: -Olma mevasi.

Tarbiyachi: -Olmalardan sharbat olsa bo‘ladimi? Bo‘yoqchi?

Bolalar: -Olmadan faqatgina sharbat olinadi.

Tarbiyachi: -Qaysi meva yoki sabzavotdan bo‘yoq olinadi?

Bolalar: -Sabzi, qizil lavlagi, pomidor, gilos hamda ko‘katlar.

Tarbiyachi: -Kelinglar qizil lavlagidan qizil rang olish jarayonini bajarib ko‘ramiz. (Amaliy ish bajariladi)



Tarbiyachi : - Bolajonlar savollarga to‘g‘ri javob berdingiz va guruhingiz yana birta rag‘batga ega bo‘ldi.

Markazda– *Sabzilar guruhiga:*

Men aytaman topishmoq siz topasiz tez chaqqon

Er tagida oltin qoziq u hammaga berar oziq

Tarbiyachi: - Demak bu topishmoqning javobi

Bolalar: - Sabzi

Tarbiyachi: -endigi topshiriqlarimiz sabzi guruhiga. Ingliz tilida meva va sabzavotlar qanda aytiladi?

Bolalar: - FRUITS – mevalar, VEGETABLES – sabzavotlar.

Tarbiyachi: -Juda ham to‘g‘ri . Mana shu yerda turgan meva va sabzavotlar hikoya tuzing.

Bolalar: -“Olma” hikoyasini so‘zlab berishadi.



Tarbiyachi: -olma, sabzi, gilos, uzum, pomidor so‘zlarini bo‘g‘inlarga bo‘ling.

Bolalar:-OL-MA, GI-LOS, SAB-ZI, PO-MI-DOR

Tarbiyachi : - Juda ham yaxshi bolajonlar, mana bu y e r dagi so‘zlarni ayrim tovushlari tushib qolgan shu tovushni topib o‘rniga qo‘ying.

<u>BOSHQOTIRMA</u>

...LMA, AN…R, …ZUM , SH…LG‘ …M

Tarbiyachi:-Barakalla bolajonlarsiz tushib qolgan tovushlarni topdingiz. Tushib qolgan tovushlar unlimi yoki undosh?

Bolalar: -tushib qoldirilgan tovushlar unli tovushlar edi.

Tarbiyachi: -Barakalla bolajonlarsiz ham barcha savollarga to‘g‘ri javob berdingiz va guruhingizga yana bir rag‘bat olib berdingiz.

Markazda – Xurmolar guruhiga:

Tarbiyachi: -O‘zim kichkina sarg‘ish, daraxtlarda o‘saman,

Ko‘rib havas qilasiz eb hech sira to‘ymaysiz.

Vitaminlar bari menda, g‘arq pishaman kuz faslida

Qani toping bolalar, budir qaysi meva.

Bolalar: -xurmo

Tarbiyachi:-Demak endi topshirig‘imiz xurmo guruhiga. Kelinglar bolajonlar bir o‘yin o‘ynaymiz bu o‘yinimiz “Aytganimni top” deb nomlanadi. Tayyor bo‘lsangiz boshlaymiz.

“Aytganimni top” o‘yini: Menga yashil rangdagi meva va sabzavotlarni ko‘rsating.

Bolalar: -bodring, turp, kivi

Tarbiyachi: - Juda ham yaxshi endi esa qizil rangdagi meva va sabzavotlarni ko‘rsating



Bolalar:-pomidor, gilos, qizil olma, qizil lavlagi.

Tarbiyachi: -Endi men sizlarni aktyorlik qobiliyatlaringizni sinab ko‘rmoqchiman, meni qo‘limda yashirin suratlar turibdi shu suratlar asosida pantamima shartini bajaramiz. Bu shart ovoz chiqarmagan holda harakatini ko‘rsatib berasiz.

Bolalar: Olma, uzum, sabzi, piyoz, anor meva sabzavotlarni harakati va shakli orqali ko‘rsatib beradi.

Tarbiyachi: Bolajonlar kelinglar bir o‘yin o‘ynaymiz. “Nasibaning olmasi”, Bolalar ijrosida. Harakatli o‘yin.

Tarbiyachi: Bolajonlar, siz ham topshiriqlarni a’lo darajada bajardingiz va guruhingizga 1 ta rag‘bat olib berdingiz.

Tarbiyachi: 4-markazda pomidorlar guruhi.

Qani bolajonlar siz nimaning suratini chizyapsiz?

Bolalar: Olma, uzum, anor, sabzi.

Tarbiyachi: Sabzining rangi qanaqa rangda?

Bolalar: Sariq va to‘q sariq.



Tarbiyachi: Sabzi suratini chizish uchun qaysi ranglardan foydalanyapsiz?

Bolalar: Sariq va yasil rang.





Tarbiyachi: Barakalla bolajonlar. Endi chizgan suratlaringizni rangini ingliz tilida nomlang.

Bolalar javobi : green, red, ellov, orange .

Tarbiyachi: Barakalla bolajonlar siz ham topshiriqlarni a'lo darajada bajardingiz va guruhingizga rag'bat olib berdingiz.

Tarbiyachi: Bolajonlar kuchli shamol bo'lib hammani birinchi markazga uchirdi.

Bolalar : shamol harakatini qilib birinchi markazga borishadi.

Tarbiyachi : Bolajonlar sabzavotlar qayerga o'sadi va qaysi faslda ularni eka boshlashad?

Bolalar: sabzavotlar polizda o'sadi, bahor faslida ekishadi.

Tarbiyachi: Siz menga mana bu urug'lardan birini tanlab ekib bering.

Bolalar: Bolalar bu amaliy ishni bajarib ko'rsatishadi.

Tarbiyachi: Siz qaysi sabzavotni ekdingiz?

Bolalar: Pomidor.

Tarbiyachi: Bu sabzavotni rangi va foydali tomonini ayting undan sharbat olsa bo'ladimi bo'yoqchi?

Bolalar: Bu pomidorninig rangi qizil, vitaminlarga boy, undan sharbat ham rang ham olsa bo'ladi.

Tarbiyachi: Kelinglar shu jarayonni bajarib ko'ramiz.

Bolalar va tarbiyachi tomonidan amaliy ish bajariladi.

Tarbiyachi: Mavzu mustahkamlanib "kamalak" o'yini orqali bolalar rag'batlantiriladi.

Oktabr oyi 2- mavzu

Mavzu: Tomchilab sug‘orish

Ta’limiy maqsad: O‘simliklarni sug‘orish usullari haqida tushuncha berish, odatiy sug‘orish, tomchilatish usulida sug‘orish, o‘simliklarni sug‘orish usullarini taqqoslash, insonlar, barcha jonivorlar o‘simliklar suvsiz yashay olmasliklarini tushuntirish.

Tarbiyaviy maqsad: Suvni iflos qilmaslikka, tejab foydalanishag stol ustiga kiyimlariga bo‘yoqlarni to‘kmaslikka, shoshilmasdan toza ozoda ishlashga chaqirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: Bolalarni jonli va jonsiz tabiatga bo‘lgan qiziqishlarini, nutqiy ta’sirini. Ko‘ruv, eshituv usulida qabul qilish, javobni og‘zaki, dadail tarzda ifodalash ko‘nikmalarini boyitish, fikrlash qobiliyatini, mayda motorika sini rivojlantirish, mexnatga munosabatini jamoa bo‘lib ishlashini rivojlantirish.

Kerakli jihozlar: undirilgan urug‘, tuvakcha, leyka, turli hajmdagi yelim idishlar, naychalar, suv, idishlar, rangli qalamlar, oq qog‘oz.

Mashg‘ulotning borishi

Tarbiyachi: Assalomu alaykum bolajonlar kayfiyatlar yaxshimi

Bolalar: yaxshi

Tarbiyachi: men aytaman topishmoq, siz topasiz tez chaqqon?

Ketaveradi ketaveradi

Orqasiga qaramaydi

Bolalalr: SUV

Tarbiyachi: Barakalla bolajonlar topishmoqning javobi: **suv**

Yangi mavzu bayon qilinadi.

Tarbiyachi: Bugun men sizlar bilan suv hamda tomchilatib sug‘orish haqida suhbatlashaman. Buning uchun biz sizlar bilan tajriba sinov markazlariga sayohatga boramiz. Bolajonlar sayohatimizni avtobusda davom ettiramiz. (Bolalar avtobusga chiqib, o‘rnashib oladilar.)

Tarbiyachi: bolajonlar suv haqida nimalarni bilasiz?

Bolalar: Suvni ichamiz, qo‘limizni yuvamiz, gullarni, o‘simliklarni, daraxtlarni

suv orqali sug‘oramiz hamda hayvonlar, qushlar suv orqali hayot kechirishadi. **Tarbiyachi:** Barakalla bolajonlar siz suv haqida to‘g‘ri ma’lumot aytdingiz, suv yana suyuq rangsiz, sochuluvchan bo‘ladi (Suvni ko‘rsatib tushuntiradi). Suvdan foydalanishda tejab ishlatmog‘imiz ltozim, suv ariqlarda, ko‘llarda, daryolarda bo‘ladi. Bolajonlar mana biz til va nutq markaziga yetib keldik, barchangiz avtobusdan tushib, markazda o‘z o‘rinlaringizni egallang. Mana bu video rolikka diqqatimizni qaratamiz va nimalar aks etirilganligini bilib olamiz.

Bolalar: video rolikni tomosha qiladilar

Tarbiyachi: Bu video rolikda nimalarni ko‘rdingiz?

Bolalar: Biz bunda suvni tejashni, asrashni, har xil chiqindilarni suvga tashlamaslikni bilib oldik.

Tarbiyachi: bolajonlar mana bu yerda suv rasmlari ular orqali hikoya tuzamiz.

Bolalar: Har bir bola surat orqali qisqacha hikoya tuzadi

Mana bu markazimiz topshiriqlarini bajarib oldik endi keyingi markazga yo‘l olamiz.

Bolalar: Avtobusga chiqib yo‘lda davom etadilar:

Tarbiyachi: mana bolajonlar keyingi markazimizga yetib keldik, bu markazimiz ILM FAN va Tabiat markazidir. Bu markazimizda tomchilab sug‘orish usulini tajriba orqali bilib olamiz.

1- tajriba:

Unib chiqgan urug‘larni kuzatish.





Tarbiyachi: endi unib chiqgan niholni tomchilab sug‘oramiz

Bu tajriba orqali nimani o‘rgandingiz?

Bolalar: suvni tejashni o‘rganib oldik.

2- Tajriba:

Bolajonlar endi unib chiqgan niholni odatiy tarzda sug‘oramiz



Bolalar: bu amaliy ishni bajaradilar va ikkala tajribani taqqoslaydilar.

Tarbiyachi: Bolajonlar bu tajribalar orqali nimalarni o‘rganib oldingiz?

Bolalar: Bu tajribalar orqali ko‘p va kam haqida tushunchaga ega bo‘ldik hamda suvni tejash orqali ham nihollarni parvarish qilishni o‘rganib oldik.

Tarbiyachi: Bolajonlar bu markazdan ham o‘tdingiz endi keyingi markazga yo‘l olamiz, bu markazimiz san’at markazi.

Bolalar: Yana avtobusga chiqib yo‘lda davom etadilar

Tarbiyachi: Bolajonlar bu markazda o‘tkazgan tajribalarimizni rasm orqali

tasvirlaymiz.

Bolalar: Suratlarni chizib surat haqida o‘z fikrlarini bildirishadi.

Tarbiyachi: Siz bu suratni chizish orqali qaysi ranglardan foydalandingiz? Bolalar: Yashil, jigar, ko‘k ranglardan foydalandik.

Tarbiyachi: Niholchangizda nechta barg bor?

Bolalar: bolalar o‘z suratlariga qarab javoblarini aytishadi.

Tarbiyachi: Bolajonlar mana markazlarimizga bo‘lgan sayohatimiz o‘z nihoyasiga etdi, endi guruhimizga qaytib, o‘rganganlarimizni yanada mustahkamlab olamiz.

Bolalar: barchalari avtobusga chiqib guruhga qaytadilar.

Mavzuni mustahkamlash:

Tarbiyachi: til va nutq markazida nimalarni o‘rgandingiz?

Bolalar: surat asosida hikoya tuzdik va video rolik orqali suv haqida ko‘proq ma’lumotlarni bilib oldik.

Tarbiyachi: Ilm fan va Tabiat markazida qanday ishlar bajrdingiz?

Bolalar: Tajribalar o‘tkazdik, tomchilab sug‘orish orqali niholni parvarish qilishni bilib oldik.

Tarbiyachi: san’at markazida nimalar qildingiz?

Bolalar: niholni rasmini chizib bo‘yab oldik.

Mashg‘ulotni yakunlash: Bolalar rag‘batlantiriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

Oktyabr oyi 3- mavzu

Mavzu: Mazali pechenye.

Maqsad: Bolalarni pechenye tayyorlashga qiziqishini uyg‘otish, xamirdan va qumdan pechenye yasash orqali tayyorlashni bilib olishlarini o‘rgatish.

Tarbiyaviy maqsad: pechenye uchun kerakli mahsulotlarninig nomini be xato aytishga o‘rgatish, o‘z fikrini ravon tushuntirishga undash jarayon davomida gigienik qoidalarga rioya qilish orqali toza va ozoda ishlashga o‘rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: Mantiqiy fikrlash malakalarini rivojlantirish. Bolalarni mehnat qilish davomida mas’uliyatni xis qila olish orqali ko‘nikmalarini shakllantirish

Kerakli jihozlar: Likopcha, xamir uchun kerakli mahsulotlar, tuprli xil shakldagi qoliplar, idishlar, bosh kiyim, fartuk.

Mashg‘ulotning borishi:

Tashkiliy qism: Bolajonlar bugun guruhimizdagi Munisaning tug‘ilgan kuni unga atab o‘z qo‘llarimiz bilan mazali pechenye pishirib sovg‘a qilamiz. Sizlar nima deysiz.

Bolalar: opajon bu fikringiz bizga juda yoqdi.

Yangi mavzu bayoni:

Kelinglar bu mazali pechenyemizga qanday mahsulotlar kerak ekanligini saralab olsak?

Kerakli masalliqlar: 4 dona tuxum, 200gr un, 200gr shakar, 200gr margarin, 1l sut, ichimlik sodasi.

Mana mahsulotlarni saralab ham oldik, lekin bolajonlar pechenyeni qanday tayyorlash kerakligini bilmaymiz, siz nima deb o‘ylaysiz?

Bolalar: Opajon muassasamizdagi bosh oshpazdan yordam so‘raymiz. Tarbiyachi Barakalla mening bilag‘on bolajonlarim unday bo‘lsa hammamiz birgalikda oshxonaga sayohat qilamiz.

Bolalar oshxona eshigini taqqilatib kirish uchun ruxsat so‘rashadi. Bolalar: Assalomu alaykum oshpaz opajon (Tug‘ulgan kunda pechenye pishirish kerakligini oshpaz opaga aytiishadi)

Oshpaz: Gar salomingiz bo‘lmasa oshxonaga na hojat

Oshpaz Bolajonlar bu oshxona oddiy oshxona emas, oshxonamiz markazlashgan, siz bu markazlardan o‘tsangizgina sizga mazali pechenye pishirib beraman kelishib olamizmi?

Bolalar: Haa kelishdik

Oshpaz: Bolalarni markazlar bilan tanishtiradi va birinchi markazga olib boradi

1- Markaz Syujetli o‘yinlar va dramalashtirish

Bunda siz (do‘kon-do‘kon)o‘yini orqali do‘kondan pechenye uchun kerakli mahsulotlarni xarid qilib olib kelishingiz kerak bo‘ladi.

Bolalar: o‘yinni o‘ynab maxsulot xarid qilib kelishadi.

Oshpaz Barakallabolajonlar siz vazifani alo darajada bajardingiz endi keyinggi markazga o‘tsak ham bo‘ladi.

2- Markaz Til va Nutq markazi:

Bunda bolajonlar siz pechenye haqida ajoyib sherlarinigizni aytib berishingiz kerak. **Bolalar: o‘zlari yod olgan sherlardan aytib berishadi.**

Oshpaz: Barakalla bolajonlar sherlaringiz menga juda yoqdi

3- Markazda birgalikda sizlar bilan pechenyeni pishirishni boshlaymiz.

Ilm Fan va Tabiat markazi







Bu pishirig‘imizning nomi mazali pechenye

1- Tuxumni va shakarni solib aralashtiramiz, so‘ng boshqa idishga qattiq bilan margarinni aralashtiramiz hamda tuxumli aralashmani ustiga solib yaxshilab aralashtiramiz. Boshqa yana bir idishga un va ichimlik sodasini aralashtirib tayyor bo‘lgan qorishmani ustiga solib barchasi birga aralashtiriladi va xamir hosil bo‘lgunga qadar qoriladi.

2- Mana xamirimiz ham tayyor bo‘ldi uni 2 ga bo‘lib 1- zuvalasini qolibga yaxshilab yoyib uning ustiga olma bo‘lakchalarini yoyib chiqamiz so‘ng yana 2- zuvalani ustidan yoyib chiqamiz endi ularni elektr pechda 45 daqiqa 200 daraja issiqlik davomida pishiriladi.

3- Bolalar pechda pishish jarayonini kuzatib turishadi

4. Oshpaz: Mana bolajonlar pishiririg‘imiz ham tayyor bo‘ldi, endi uni gaz pechidan oliamiz.(oshpaz gaz pechidan pechenyeni oladi).
Tarbiyachi: bolajonlar bu pishiriqlar necha dona ekanligini bilib bering.
Bolalar: 25 dona pechenye borligini sanab olishdi.

Tarbiyachi: mana bolajonlar bugungi tug‘ulgan kun uchun pechenyemiz ham tayyor bo‘ldi endi uni maxsus idishga solib guruhimizga olib boramiz. Bolalar maxsus likopchani o‘zlarining yaxshi tilakalrini bildirib Munisaga sovg‘a qilishadi. Munisa esa idishni ochib ichidagi pishiriqlarni bolalarga ulashib ular bilan birgalikda mazali pechenyeni tanavul qilishadi.



Bolalar pechenyeni tanavul qilib uning shirin, yumshoq, va mazali ekanligini aytishadi.

Tarbiyachi: mana mazali pishiriqlarni pishirish usulini ham o‘ragib oldik, bolajonlar barchangizga vazifa uyingizga boragndan so‘ng oyingiz bilan birgalikda mana shu pishiriqni tayyorlang.

Mashg‘ulotni yakunlash: bolalar rag‘batlantiriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

Oktyabr oyi 4- mavzu

Mavzu: Chigitdan yog‘ olamiz

Maqsad: Bolalarga paxta urug‘i haqida tushuncha berish, ona tabiatimizning saxovatidan issiq sevar o‘simlik paxtaning etishtirilishi to‘g‘risidagi tasakvvurlarini oshirish.

Bolalarda tevarak atrofga, tabiatga bo‘lgan mehr muhabbatini oshirib borish. Bolalarga tevarak atrofdagi narsalarga nisbatdan ehtiyotkorlik munosabatlarini shakllantirish. Bolalar nutqini rivojlantirish.

Mashg‘ulotning borishi:

Tarbiyachi: Bolajonlar bugun guruhda hamma kelganmi?

Demak hamma sog‘lom.

TArbiyachi: kelinglar mana shunday yaxshi kayfiyat bilan o‘yinlarimizni davom ettiramiz

Men sizga bir topishmoq aytaman.

Tagida bor yulduzi

Terib uysam bo‘lar tog‘

Urug‘idan chiqar yog‘

Darrov o‘ylang bu haqda

Buchi “oq oltin”.....(Paxta)

Bolalar javobi

Tarbiyachi: Juda to‘g‘ri aytingiz buning javobi **PAXTA. Paxta bu-** O‘zbekistonimizning milliy boyligi, paxtadan turli xil mahsulotlar olinadi shuning uchun O‘zbekistonning ramzi bo‘lmish Gerbda ham paxta surati aks ettirilgan. Bolalar keling hozir slayd orqali paxtaning kelib chiqishi haqida ma’lumotga ega bo‘lamiz. (Paxta haqidagi lavhalar ko‘rsatiladi).







Lavha asosida bolalar bilan suhbat olib boriladi.

Tarbiyachi: bolajonlar keling sizlar bilan “avval nima edi- nima bo‘ldi” o‘yinini o‘ynaymiz. Bu o‘yinda siz chigitdan paxta va paxtadan qanday mahsulotlar olinishi kerakli haqidagi jarayonlarini tartib bilan teradilar



Barakalla bolajonlar endi sizlar bilan birgalikda markazlarda chigitdan turli xil tajribalar bajaramiz.

Buning uchun bolajonlar siz bilan 4 guruhga bo‘linib olishimiz kerak. Buning uchun sanama o‘yinidan foydalanamiz. Bolalarga 4 xil nom qo‘yib ular orqali guruhlarga bo‘lib olinadi va markazlarda qilinadigan ishlar tushuntiriladi

1.Fan va tabiat markazida 2 xil chigitdan qanday qilib yog‘ olish tajribasi bajariladi. Bunda borlalar oldiga oq qog‘oz va o‘qlov qo‘yiladi. Bolalar bu ishni amalda bajarib ko‘rishadi.

Tarbiyachi: Bolajonlar siz qora va kulrang chigitlarning qay biridan ko‘proq yog‘ chiqdi?

Bolalar: Bolalar javobi tinglanadi.

Tarbiyachi: Bolajonlar qaysi chigitning urug‘idan olingan yog‘ning dog‘i oq qog‘ozga qoladi?

Bolalar: Bolalar qora chigitning dog‘i ko‘proq qolganini tajribada ko‘rib aytishadi.

2. San’at markazi:

Bolalar bilan paxta gulli likopchani bo‘yoq bilan trafaret yordamida chizish. Bunda bolalarga oq qog‘oz va oldindan tayyorlab qo‘yilgan paxtagul naqshi chizilgan trafaret beriladi. Bolalar bo‘yoq bilan tasvirlaydilar.



3. Qurish yasash markaz: CHigit yordamida men sevgan o‘yinchoq tayyorlash.

Bolalar: o‘z xoxishlariga ko‘ra o‘yinchoqlar yasashadi.

4. Til va nutq markazi: bolalar paxta dalasi surati asosida hikoya tuzishadi.

Har 5 minutda tarbiyachining signali orqali bolalar markazda o‘rin almashadi. So‘ng o‘yin yakunida bolalarning qilgan ishlari savol javob orqali xulosalanib rahbatlantiriladi.

Noyabr oyi 1-mavzu.

Mavzu: Gulxan havoni ifloslantiradi.

Maqsad:

a) Bolalarni havo xususiyatlari bilan tanishtirish is gazlari olovdan havoni ifloslanish oqibatida barchaga zarar ekanligini tushuntirish, va shu ifloslanishni, o‘simliklardan chiqayotgan kislorod havoni tozalay oladigan jihatlari haqida tushuncha berib borish. Hayotda uchraydigan favqulotda holatlarda telefondan foydalanishni o‘rgatish.

b) Bolalarni tabiatni sevishga va undagi har bir ne’matlarni qadrlay olishiga va tejashga o‘rgatib, hayot xavfsizligiga rioya qilishga undash. Berilgan mavzuga oid sujetli rolli o‘yinlarni ijro eta olishi hamda mashg‘ulot davomida bolalarni mustaqil fikrlash va uni bayon qila olishlarini ta’minlash.

c) Tajribalarni o‘tqazish va sog‘liqni saqlash qoidalariga rioya qilish o‘simliklarni parvarishlash bo‘yicha bolalardagi mehnatsevarlikni yanada rivojlantirish.

Kerak jihozlar: har bir bolaga xaltacha, (paket), mavzuga oid rasmlar, tabiat havoni tozalaydi mavzusida slayd, o‘t o‘chirish moslamasi, tez yordam mashinasi, telefon.

Faoliyatni borishi: Tashkiliy qism:

Tarbiyachi: Bolajonlar bugun pochtachi bizga xat tashlab ketdi. Bu xat “Quvnoq sarguzashtlar” orolidagi hayvonlardan ekan, kelinglar xatni o‘qiymiz.

“Assalomu alaykum bolajonlar, biz “Quvnoq sarguzashtlar” orolidanmiz. Bizning orolchamiz juda chiroyli va xushmanzara joy edi . Biz ahil, inoq va sog‘lom

edik . Ammo kunlardan bir kun orolchamizda qayerdandir yong‘in boshlandi, biz olovni o‘chirolmadik, uzoq yondi va ko’p hayvonlar shu olovdan chiqqan tutundan zaharlanib qolishdi. Kimga murojaat qilishni bilmadik, siz aziz bolajonlardan shuni iltimos qilamizki yong‘in chiqqanda, yoki tutundan zaharlanganda va havoni tozalashimizda nimalar qilishimizni bizga yozib yuboring. Aziz bolajonlar yordamingizni kutib qolamiz.



Yangi mavzu bayoni:

Tarbiyachi: Mana aziz bolajonlar xatda nima topshiriq berilgan bilib oldik. Buning uchun tajribalar o‘tqazib javobini tezda “Quvnoq sarguzashtlar” orolchasiga yuborishimiz kerak, tajribalarga tayyormisiz?

Bolalar: Albatta.

(Guruh xonasi mahalla ko‘chalariday bezatiladi)

Tarbiyachi: Bolajonlar kelinglar bir o‘yin o‘ynab guruhlarga bo‘linib olamiz.

Bolalar: Musiqa sadosi ostida guruhlarga bo‘linishadi.

1-guruh “CHaqqonlar”

2-guruh “Epchillar”

3-guruh “Zukkolar”

Tarbiyachi: Mana guruhlarga bo‘linib oldik, tajribalarni esa mahallamizdagi faollik ko‘chalarida olib boramiz, ko‘chalar uchta qismga bo‘linib 1-ko‘cha Ilm fan va tabiat ko’chasidir. Bu ko‘chada shifokorlar, olimlar va o‘t o‘chiruvchi

xodimlar istiqomat qilishadi. Ko‘chada katta bog‘ ham bor .

2-ko‘cha “Syujetli rolli o‘yinlar va drammalashtirish” ko’chasidir. Bu ko‘chada aktiyorlar, san’atkorlar va duradgorlar istiqomat qilishadi. Bu ko‘chada eng ko‘rkam bino - qo‘g‘irchoq teatri binosidir.

3-ko‘cha “Til va nutq” ko’chasi bo’lib, bu ko‘chada o‘qituvchilar, shoirlar va jurnalistlar istiqomat qilishadi. Bu ko‘chada ilmlar koni bo‘lgan maktab joylashgan. Mana mahallamiz ko‘chalari bilan yaqindan tanishib oldingiz, endi yo‘lga chiqsak ham bo‘ladi. Mahallamizga maxsus avtobusda boramiz qani hamma avtobusga chiqib olsin.

Bolalar: Navbat bilan avtobusga chiqib olishadi.

Tarbiyachi: Bolajonlar mana mahallamizni 1-ko‘chasiga ham yetib keldik bu ko‘chamizning nomi qanday edi?

Bolalar: Bu ko‘chanining nomi “Ilm fan va tabiat”

Tarbiyachi: Bolajonlar mana kuz faslining 3-oyi bu qaysi oy?

Bolalar: Kuz faslining 3- oyi bu noyabr.





Tarbiyachi: Juda ham to‘g‘ri javob berdingiz , mana shu oyda daraxtlar barglarini to‘ka boshlaydi va xazon rezgilik boshlanadi, kelinglar manashu barglardan yig‘ib olamizda gerbariylar yasashimiz uchun yig‘ib qo‘yamiz. Bu shartimizni 1-guruh “Chaqqonlar”bajarishadi.

Sahna namoyishi: Bolalar barglarni yig‘a boshlashadi va shu payt sho‘x bir bola yig‘ilgan xazonlarni yoqib yuboradi, undan chiqqan tutunlar havoni ifloslantiradi

bolalar ham nafas olishlari qiyinlasha boshlaydi.

(Guruh xonasida temir chelakda barglar bo‘ladi)

Tarbiyachi: Voy bolajonlar tezda “101” telefoniga va”103” telefonlariga qo‘ng‘iroq qilamiz.

“101”- o‘t o‘chiruvchi xodimlar,”103” tez tibbiy yordam (tarbiyachi tomonidan qo‘ng‘iroq qilinadi va tezda yordamga kelishadi, o‘tni o‘chirishib, jarohatlangan bolalarga tezda birinchi yordam ko‘rsatadilar)

Tarbiyachi: Rahmat sizlarga, sizday kasb egalari bor ekan favqulotda holatlarda tezda sizga murojaat qilamiz siz beminnat yordamingizni ayamaysiz, sizday kasb egalariga rahmat.

Bolalar: Raxmat sizlarga endi, hech qachon xazonlarni yoqmaymiz. (Bolalar “101”va”103” xodimlari bilan xayrlashadilar)

Tarbiyachi: Mana aziz bolajonlar xazonlarni yoqish, mashinalardan chiqayotgan is gazlari, zavodlardan chiqayotga tutunlar, hamda sigaret va chiqindi uyumlar orqali havo ifloslana boshlaydi, bu esa barchamizga insolarga, hayvonlarga, o‘simlik dunyosiga juda katta zarar keltiradi. Bu xazonlarni yoqish kerak emas, ularni yig‘ib yer ostiga ko‘mish lozim, shunda ular vaqt o‘tgach o‘g‘itga aylanadi va bu o‘g‘it ekinlar uchun juda foydalidir. Bu zararli tutunlardan ko‘proq daraxtlarni ko’paytirish natijasida havoni, tabiatni, va ekologiyani zararlanishidan asrab qolamiz, chunki daraxt va o‘simliklar havodagi changlarni o‘ziga tortib oladi va toza havoni kislorodni chiqaradi. Endi “Chaqqonlar” guruhi yiqqan barglarni idishlarga solamiz va ularni olqishlaymiz.

Tarbiyachi: Endigi tajribani 2-guruh “Epchillar” bajarishadi. Mana bu yerda shamlar bor, men ularni gugurt yordamida yoqaman so‘ng ularni ustiga siz chinni idishlarni qo‘yib turing natijada nima hosil bo‘ladi kuzating.

Bolalar: Qo‘llaridagi idishni shamning ustida ushlab turishadi, biroz vaqt o‘tgach, idish qoraya boshlaydi.

Tarbiyachi: Bolajonlar bu tajriba orqali nima sodir bo‘ldi?

Bolalar: Bu tajribamiz orqali shamdan chiqqan olovdan idishni qora tutun

egalladi va idishimizda issiqlik paydo bo‘ldi.

Tarbiyachi: Mana ko‘rdingizmi bolajonlar kichkina bir sham orqali mana shuncha tutun chiqa boshladi katta –katta gulxanlar yonganda esa qanchadan –qancha tutunlarni tabiat o‘ziga oladi mana shu tutunlarni nafas olish orqali biz ichimizga yutamiz va zararlanamiz. Xona gullarini, daraxtlarni, manzarali o‘simliklarni yanada ko‘proq ekib katta –katta bog‘larni yaratishimiz lozim. Bu tajribani “Epchillar” guruhi juda yaxshi bajarishdi ularni ham olqishlaymiz.

Endigi tajribamizni “Zukkolar” guruhi bajarishadi. Men sizlar bilan bir o‘yin o’ynamoqchiman. Bu o‘yinimiz “Havo og‘irmi yoki yengil” deb nomlanadi. Siz xaltachalarni olasiz va ularni havo bilan to‘ldirasiz. Havo yengil yoki og‘irligini aniqlab berasiz.

Bolalar: Xaltachalarni olib nafas orqali havoga to‘ldirishadi va havo yengil ekanligini aytishadi.

Tarbiyachi: Barakalla “Zukkolar” siz ham topshiriqni a’lo darajada bajardingiz va olqishlarga ega bo‘ldingiz.

Mana 1-ko‘chamizda shuncha bilimga ega bo‘ldingiz. 2- ko‘chamizda qanday topshiriqlar bo‘lar ekan qani ketdik aziz bolajonlar.

Bolalar: Qo‘shiq sadosi bilan 2-ko‘chaga keladilar.

Tarbiyachi: Bolajonlar bu ko‘chamizni nomi qanday edi?

Bolalar: Bu ko‘chaning nomi “Syujetli rolli o‘yinlar va drammalashtirish” edi.

Tarbiyachi: Bu ko‘chada qanday kasb egalari yashar edi va qanday bino bor edi?

Bolalar: Bu ko‘chada aktiyorlar, san’atkorlar va duradgorlar istiqomat qilishadi. Bu ko‘chada eng ko‘rkam bino bu ‘Qo‘g‘irchoq “ teatri binosidir.

Tarbiyachi: Kelinglar mana shu qo‘gi’rchoq teatrga boramiz bugun bu yerda “Tabiat havoni tozalaydi”mavzusida vidiofilmni tomosha qilamiz.

(Bolalar bu filmni ko‘radilar va tabiatni asrashni yana bir bor tushunib oladilar)

Tarbiyachi: Siz bu filmda nimalarni ko‘rdingiz va qanday taassurotlarga ega bo‘ldingiz?

Bolalar: Bu film orqali tabiatni asrashni,taiat nematlari bo‘lgan suv,gaz,va elektr

toklarini tejashni bilib oldik .Hamda ifloslangan havoni daraxtlar va o‘simliklar tozalashini yana bir -bor bilib oldik.

Tarbiyachi: Barakalla mening bilimdon bolajonlarim, kelinglar, kayfiyatimizni yanada ko‘tarish uchun o‘yin o‘ynaymiz. O‘yin “Quyosh va yomg‘ir” (quyosh deyilsa hamma o‘ynab yuradi,yomg‘ir desa hamma soyabon ostiga yashirinib oladi)

Tarbiyachi: 3 ta guruhga ham olqishlar, barakalla bolajonlar, endi navbat oxirgi ko‘chamizga. Qani ketdik (musiqa sadosi ostida 3-ko‘chaga o‘tib oladilar)

Mana bu ko‘chamizga ham yetib keldik bu ko‘chaning nomi qanday edi va buyerda qanday kasb xodimlari yashashadi va qaysi bino joylashgan?

Bolalar: Bu “Til va nutq” ko‘chasi, bu ko‘chada o‘qituvchilar, shoirlar va jurnalistlar istiqomat qilishadi. Bu ko‘chada ilmlar koni bo‘lgan maktab joylashgan.

Tarbiyachi: Manashu bilimlar koni bo‘lgan dargohga sizlarni olib boraman,uyerda hurmatli o‘qituvchilarimiz bilan tanishib olamiz, hamda “Quvnoq sarguzashtlar “orolidan kelgan xat bilan tanishtiramiz va maslahatlariga quloq solamiz.

Bolalar: 1-sinfga keladilar va o‘qituvchi bilan salomlashib,topshiriqni bajara boshladi.

O‘qituvchi: Bolajonlar men sizga kelgan xat bilan tanishib oldim va sizga yordam berishim uchun mening topshirig‘imni bajarishingiz kerak. Mana bu suratda nimani ko‘ryapsiz?

Bolalar: Bu su’ratda tabiat manzarasini ko‘ryapmiz.

O‘qituvchi: Juda ham to‘g‘ri, mana shu su’rat orqali “Zukkolar” guruhi hikoya tuzing.

Bolalar: “Zukkolar” guruhi tabiat haqida rasm asosida hikoya tuzadilar.

O‘qituvchi: Endigi topshirig‘im **“**Epchillar” guruhiga, mana bu suratlarni birlashtirib so‘z tuzing, va shu so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘ling. So‘zlar: quyosh, daraxt, gullar

Bolalar: QU-YOSH, DA-RAXT, GUL-LAR.

O‘qituvchi: Juda ham yaxshi endigi topshirig‘m “CHaqqonlar” guruhiga. Qani

sizlar menga tabiat haqida she’r aytib bering.

Bolalar:

Qish der - Kumush qorim bor,

Qorbobo yasang!

Bahor de r- Gulim ko‘rkam,

Guldasta yasang!

Yoz der - Suvim beg‘ubor

Suv baliq misol!

Kuz der - Mevam, bolim bor,

Bari senga ol!

Demak, ona-tabiat

Bizni der har vaqt.

O‘qituvchi: Juda ham zukko bolalar ekan siz, meni xursand qildingiz va mana bu yer shari tasvirlangan Globusga ega bo‘ldingiz men sizlarni yana maktabimizda kutib qolaman xayr.

Bolalar: Xayrlashadilar.

Tarbiyachi: Bolajonlar xatdagi topshiriqqa javob topa oldikmi?

Bolalar: Ha javoblarni topdik va endi maktubga javob yozamiz.

Tarbiyachi: Buning uchun guruhimizga tezda qaytamiz va tezda xatni yozib “Sarguzashtlar orolchasi”ga yuboramiz.

Mavzuni mustahkamlash:

Tarbiyachi: Yong‘in chiqqanda qaysi raqamga telefon qilamiz?

Bolalar: “101” raqamiga telefon qilamiz ular o‘t o‘chiruvchi xodimlar.

Tarbiyachi: Yong‘in chiqqanda jarohat olganda, qaysi raqamga telefon qilamiz?

Bolalar: **“**103” raqamiga telefon qilamiz, ular tez tibbiy xodimlari.

Tarbiyachi: Tabiatni asrash uchun va havoni tozalash uchun nimalar qilamiz?

Bolalar: Ko‘proq gullar, daraxtlar va o‘simliklar ekmog‘imiz kerak ekan.

Tarbiyachi: Sizga uyga vazifa shunday, har biringiz uyingizda ko‘chat va gullar ekasiz ularni bahor faslida men uyingizga borib ko‘raman, kim yaxshi parvarish qilgan bo‘lsa shu bola guruhimizni bog‘boni bo‘ladi.

Mashg‘lotni yakunlash:

Bolalarni rag‘batlantirib mashg‘ulotni yakunlash.

Noyabr oyi 2-mavzu.

Mavzu: Ichimlik suvi qanday keladi.

Maqsad:

A) Bolalardagi suv haqidagi tushunchalarini shakllantirish. Tabiiy sharoitda suv chiqarish usullari orqali bolalardagi mehnatsevarlikni oshirish. Suv quvirlari va suv havzalari ariqlar, daryolar ko‘llar va dengizlar orqali ham suvlar kelishini tushuntirib suv haqidagi bilmlarini yanada oshirish.

B) Suvni tejashga uni isrof qilmaslikka suv hayot manbai ekanligi haqidagi bilmlarini oshirish va tejamkor bo‘lishga undash.

C) Bolalardagi nutq boyligini hikoyalar orqali yanada kengaytirish. Yirik va mayda motorikalarini rivojlantirish va ijtimoiy hissiy jihatdan kamol toptirish.

Kerakli jihozlar: Belkurak lineyka, tosh, chelak, sahro surati va sayohatchilar suratlari.

Faolyatning borishi:

Tashkiliy qism**:**

Tarbiyachi: Men aytaman topishmoq,

Siz topasiz tez chaqqon.

O‘yib oldim izi yo‘q. (suv)



Bolalar: Bu topishmoqning javobi - suv

Tarbiyachi: Barakalla bolajonlar siz to‘g‘ri topdingiz bu suv edi. Demak bugun sizlar bilan suv haqida yanada yaqinroq bilib olamiz, ya’ni ichimlik suvi qanday, qayerdan olinadi bilib olamiz. Biz suv qanday olinishini yaxshiroq bilib olishimiz uchun suv inshootida ishlaydigan guruhimizdagi Javohirning dadasidan bilib olamiz. U kishi bugun mehmon bo‘lib keladilar, so‘ng bizga ichimlik suvi qanday olinishini ko‘rsatib beradilar.

Yangi mavzu bayoni:

Tarbiyachi: Bolajonlar mehmonimiz kelgunlariga qadar barchangizni “Til va nutq” markaziga taklif qilaman va sizga “Suvsiz qolgan sayohatchilar” haqidagi bir hikoyani aytib beraman.

Bolalar barchasi “Til va nutq”markaziga keladilar va hikoyani diqqat bilan tinglaydilar.

Tarbiyachi: Qadim zamonlarda uzoq o‘lkalarda sayohatchilar yashar ekan. Ular turli mamlakatlarga, o‘rmonlarga, tog‘larga sayohatlar qilib, ularning iqlimini, tarixini o’rganishar va xazina izlar ekanlar. Kunlardan bir kun, sayohatchilar bir sahro haqida eshitib qolishibdi va u yerda xazinalar ko‘p deb o‘ylashibdi, so‘ng shu sahroga sayohat qilmoqchi bo‘libdilar. Barcha sayohatga kerakli anjomlar, oziq-ovqat, ichimlik suvi olib sayohatga chiqibdi. Yo‘l yurishibdi, yo‘l yursa ham, mo‘l yurishibdi, tog‘u toshlardan o‘tishibdi va o‘sha sahroga yetib kelibdilar. Yo‘l azobi barcha sayohatchilarni charchatib qo‘yibdi, ular sahrodan bir joyni tanlab dam olishibdi ertasi kuni esa ishga tushishibdi. Sahroni cheg-chegarasi yo‘q ekan, u yerda bironta jonzot ham ko‘rinmas ekan, sahroning hamma yog‘i qum bilan qoplangan va yurganda oyoqlari qum ostiga kirib ketar ekan. Kunlar o‘taveribdi sayohatchilar o‘sha xazinalarini qidirishdan to‘xtashmabdi. Bu orada ularni yeguliklari tugab qolibdi, hattoki ichimlik suvlari ham qolmabdi. Nima qilishni bilmay holdan tolishibdi. Shu payt ulardan biri yeguligimiz bo‘lmasa ham yashay olamiz ammo suvsiz yashay olmaymiz, kelinglar mana bu yerdan quduq qazib suv chiqaramiz debdi. Hammalari quduq qaziy boshlashibdi. Uch kechayu uch kunduz tinmay qazishayverishibdi-qazishayverishibdi va to‘rtinchi kun ozgina suv

chiqibdi. Ular xursand bo‘lganlaridan yana qazishibdi shu payt qandaydir xumcha ko‘rinibdi, xumchani olsalar tillalar ekan ammo tillarga ham etibor berishmabdi. Yana qazishda davom etishibdi shu payt suv otilib chiqibdi, sayohatchilar tezda suvni ko‘zlariga surtib shukronalar aytib icha boshlashibdi.





Tarbiyachi: Mana ko‘rdingizmi bolajolar hattoki topilgan oltinlar ham sayohatchilarni xursand qilmadi. Shuning uchun ota-bobolarimiz “suv bor joyda, hayot bor” suvni tejab, tergab ishlatmog‘imiz lozim, deydilar.

(Shu payt eshik taqillab mehmon kirib keladi)

Tarbiyachi: Mana biz kutgan mehmon ham keldilar

Bolalar: Assalomu-alaykum

Mehmon: Vaalaykum-assalom aziz bolajonlar, bugun sizlarga ichimlik suvi qanday kelishini va suvning xususiyati haqida bilganlarimni sizga o‘rgataman. Buning uchun bog‘changizni bog‘dan joy tanlab olmog‘miz kerak.

Tarbiyachi: Hurmatli mehmonimiz ish boshlashdan oldin bolajonlarimiz qanday ish qurollarini olsinlar? Axir ularsiz hech narsa qila olmaymiz.

Mehmon: Albatta bizga belkurak, chelak, santimetr, toshlar, polietilen va yashil o‘tlar kerak.

Tarbiyachi: Bu jihozlarning barchasini bog‘bon bobomizdan bolajonlarimiz bilan birga olamiz.

Bolalar: Bog‘bondan barcha ish qurollarini olib, barchalari bog‘dan joy

tanlaydilar.

Mehmon: Mana bolajonlar joyni ham tanladik endi chuqurlik qaza boshlaymiz. Bu chuqurligimizning bo‘yi 60 sm va eni 50 sm bo’lishi kerak.

Tarbiyachi: Keling shu o‘rinda bolajonlarimizning fazoviy bilimlarini ham sinab ko‘ramiz.

Har biringizda o‘lchov asbobi santimetrlar bor mana shu bog‘dagi daraxtchalarning bo‘yini va qalinligini aniqlab bering-chi?



Bolalar: Har xil katta kichiklikdagi, daraxtlarni o‘lchay boshlashadi va aytishadi.

Tarbiyachi: Barakalla bolajonlar siz o‘lchov birligi orqali daraxtlarning o’lchamini to‘g‘ri o‘lchadingiz.

Qo‘lingizdagi santimetrdan 50 sm va 60 smni topib ko‘rsating.

Bolalar: Aniqlab ko‘rsatadilar.

Tarbiyachi: Bolajonlar mehmonimiz qanday ish qilyaptilar?

Bolalar: Yerdan chuqurlik qazyaptilar.

Tarbiyachi: Shu chuqurlikni bo‘yi va eni necha santimetr?

Bolalar: Bo‘yi 60 sm eni 50 sm

Tarbiyachi: Bolajonlar mana mehmonimiz chuqurlikni qazib bo‘ldilar, mana suv ham chiqib qoldi, juda ham qiziqarli va mashaqatli ekan. Keyingi bosqich qanday bo‘ladi?

Mehmon: Endigi ishimiz chuqurligimizning atrofi mustahkam bo‘lishi uchun toshlar terib chiqamiz, bu toshlarni bolalar o‘z qo‘llari bilan tera qolsinlar.

Bolalar: Bu ishni maroq bilan bajaradilar.

Tarbiyachi:

Chuqur qazib ariqcha,

Bo‘lib qoldi quduqcha.

Mehmon: Mana oxirgi bosqichga ham keldik, bolajonlarimiz olib kelgan, yashil o‘tlarni quduqchamiz atrofiga ekib chiqamiz va chelak orqali suv quyamiz. So‘ngra quduqchamizning og‘zini polietilen klyonka bilan yopib plasmassa tog‘orani qo‘yamiz.





Bolalar: Mehmonga yordam berib amaliy ishni bajaradilar.

Tarbiyachi: Barakalla bolalajonlar, mehmonimizga ham katta rahmat, endi bu

suvni ichimlik suvi desa bo‘ladimi?

Mehmon: Biz oldin suvni ta’mini bilmog‘imiz lozim, buning uchun bu suvni laboratoriyaga yuborib sifatini tekshirib ko‘ramiz.

Tarbiyachi: Bolajonlar qiziqtirgan savollaringiz bo‘lsa marhamat aytamiz.

Bolalar: Yana ichimlik suvi qayerlardan olinadi?

Mehmon: Yer yuzida ichimlik suvlari juda ko‘p, ammo ularning hammasi ham ichimlik suvi bo‘la olmaydi chunki ular sho‘r bo‘ladi. Suvlar tog‘lar va daryolar, ko‘llar, ariqlar orqali ham oqadi. Ichimlik suvlari maxsus suv inshootlarida katta-katta quduqlarda ham bo‘ladi. Suvni zararli moddalardan himoyalash uchun maxsus vositalar orqali zararsizlantiriladi.

Tarbiyachi: Rahmat sizga suv haqida shuncha ma’lumotlarga ega bo‘ldik, to‘g‘rimi bolajolar?

Bolalar: Albatta

Mehmon: Sizlarga ham katta rahmat, endi men sizlar bilan xayrlashaman, xayr bolajonlar.

Bolalar: Xayr yana bog‘chamizga kelib turing.

Tarbiyachi: Endi bolajonlar guruhimizga qaytamiz.

Mavzuni mustahkamlash:

Tarbiyachi: Bolajonlar siz qanday hikoyani tingladingiz?

Bolalar: “Suvsiz qolgan sayohatchilar” haqida

Tarbiyachi: Ular qayerda suvsiz qolishdi va qanday qilib bu vaziyatdan chiqishdi?

Bolalar: Sahroda suvsiz qolishdi va quduq qazib suv chiqarishdi.

Tarbiyachi: Siz ham quduq qaziganingizda suv chiqdimi?

Bolalar: Ha bizning quduqdan ham suv chiqdi.

Tarbiyachi: Ota bobolarimiz nimalar deganlar?

Bolalar: “Suv bor joyda, hayot bor”suvni tejab, tergab ishlatmog‘imiz lozim

Tarbiyachi: Shu so‘zlarga amal qilamizmi?

Bolalar: Albatta.

Mashg‘ulotni yakunlash: Tarbiyachi tomonidan bolalar rag‘batlantiriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

Noyabr oyi 3-mavzu

Mavzu Quyonni parvarish qilish.

Maqsad:

A) Bolalarni tabiatdagi hayvonot olamiga bo‘lgan qiziqishini oshirish. Shu hayvonlardan quyonlarni asrash hamda ularni parvarish qilish orqali quyonchilik kasbiga qiziqtirish.

B) Quyonlarni parvarish qilish orqali bolalardagi mehnatsevarlik xususiyatlarini oshirib borish, hamda jamoa bo‘lib ishlashda o‘rtoqlarini javobini bo‘lmaslik va bir-birlariga hurmat hissini tarbiyalash.

C) Mustaqil fikrlash qobilyatini shakllantirish, mantiqiy fikrlash orqali lug‘at boyligini rivojlantirish.

Kerakli jihozlar: Savatcha, quyon, idishda suv, karam, sabzi, o‘t maysalar, “Maqtanchoq quyon” ertagi audio disk.

Faoliyatning borishi:

Tashkiliy qism:

Tarbiyachi: Bolajonlar kelinglar bir o‘yin o‘ynaymiz. O‘yinimiz “Havoda yerda suvda” deb nomlanadi va ingliz tilida hayvonlarni ham nomini aytasiz. (Yerda yashaydigan hayvonlar aytilsa, o‘tirib olish, suvda yashovchilarning nomi aytilsa, to‘lqinsimon harakatni bajaradilar, qushlar aytilganda qanot qoqish kerakligi tushuntiriladi)

Tarbiyachi: Ot

Bolalar: o‘tirib oladilar, (Ingliz tilida nomlaydilar) : hourse

Tarbiyachi: Kapalak

Bolalar: Qanot qoqadilar, (Ingliz tilida nomlaydilar) butterfly (shu tariqa o‘yin davom etadi)

Tarbiyachi: Bolajonlar, sizlar o‘yinda juda faol ishtirok etyapsiz. Kelinglar ayni paytda yana bir o‘yin o‘ynaymiz. O‘yinimizning nomi “Uydami o‘rmondami” (tarbiyachi tomondan uy va o‘rmon hayvonlari aytiladi, bolalar qayerda yashashini aytadilar)

Mana o‘yinlarimizni o‘ynab oldik, bolajonlar quyon qayerda yashar ekan u ingliz

tilida qanday nomlanadi?

Bolalar: Quyon uy va yovvoyi hayvon - ingliz tilida “Rabbit” deb aytiladi

Yangi mavzu bayoni:

Tarbiyachi: Voy Saidabegim nega xafa bo‘lib qolding o‘yinlarimiz senga yoqmadimi?

Saidabegim: Yo‘q, opajon o‘yinlar rosa yoqdi, kecha dadam menga oppoq rangdagi quyonchani sovg‘a qildilar va uni parvarishlasang u katta bo‘ladi va quyonlaring ko‘p bo‘ladi dedilar, ammo men uni qanday ovqatlar bilan oziqlanadi bilmayman.

Tarbiyachi: Sen hech ham xafa bo‘lmagin mana bolajonlar bilan birgalikda quyonlarni qanday parvarishlashni va nimalar bilan oziqlanishini senga o‘rgatamiz to‘g‘rimi bolajonlar?

Bolalar: Ha. (shu payt Saidabegimni dadasi savatda quyonchani keltirib beradi.)



Tarbiyachi: Mana aziz bolajonlar quyonchamiz ham keldi, buning uchun biz guruhlarga bo‘linib olamiz.

Bolalar (Guruhlarga bo‘linishib oladilar va tarbiyachi tomonidan vazifalarni oladilar) 1-guruh, 2-guruh, 3-guruh.

Tarbiyachi: Voy bolajonlar quyonchamiz savatchadan chiqib “Til va nutq” markaziga qochib qolibdi. Kelinglar bu yerda quyonchamizni “Ta’limiy” o‘yinlarimiz orqali xursand qilamiz.

1-guruh : musiqa orqali tovushli kartochkalardan” QUYON” so‘zini yasaydilar.
2-guruh:”QUYON”so‘zini bo‘g‘inlarga bo‘ladilar.
3- guruh: “Q.yo.n tushib qoldirilgan tovushlarni o‘z o‘rniga qo‘yadilar va tushib qoldirilgan tovushlar unli yoki undoshligini aytadilar.
Tarbiyachi: Barakalla, bolajonlar quyonchamizni ham xursand qildingiz. Qani quyonchamizdan o‘yinlar yoqqanini bilib olaylikchi.
Bolalar: Opajon quyonchamiz yana qochib qolibdi.
Tarbiyachi: Bolajonlar qidiramiz qayerga bekinib olibdi.
Bolalar qidiradilar va mana bu “Syujetli rolli o‘yinlar va drammalashtirish” markazida ekan deb aytishadi.
Tarbiyachi: Bolajonlar demak quyonchamiz dam olmoqchi ekan, kelinglar barchamiz ertak tomosha qilamiz va birga dam olamiz. Ertagimizning nomi “Maqtanchoq quyon”
Bolalar barchalari televizorda “Maqtanchoq quyon” ertagini tomosha qiladilar (ertak yuzasidan savollar beriladi)
Tarbiyachi: Bu ertak orqali nimalarni bilib oldingiz?
Bolalar: Maqtanchoq bo‘lmaslikni, maqtanchoqlik yomon odat ekanligini bilib oldik.
Tarbiyachi: Quyonlar qaysi hayvondan qo‘rqar ekanlar?
Bolalar: Yirtqich bo‘ridan.
Tarbiyachi: Juda ham to‘g‘ri, qani quyonchamizga ham ertak yoqqanmi bilib olaylikchi.
Bolalar: Voy opajon quyonchamiz yirtqich bo‘ridan qo‘rqib qochib qolgan.
Tarbiyachi: Qidiramiz qayerga ketgan?
Bolalar: Mana bu yerda ekan, quyonchamiz o‘t yeyapti.
Tarbiyachi: Voy bolajonlar quyonchamiz “Ilm fan va tabiat” markaziga kelib qolibdi. Demak quyonchamiz och qolgan shekilli, kelinglar uni oziqlantiramiz. Quyonchamiz uchun 1-guruh sabzi, 2-guruh karam, 3-guruh maysa o‘tlar, idishda suv ham olib keling .
Bolalar berilgan vazifani bajaradilar.

Tarbiyachi: Bolajonlar quyonlar necha mahal ovqatlanishadi?

Bolalar javobi



Tarbiyachi: Barakalla, bolajonlar siz to‘g‘ri javob berdingiz, yana doimiy tarzda yoniga o‘t tashlanadi va undan tashqari bir kunda uch mahal suv, sabzi, karam, ham berib turiladi. Bolajonlar quyonlarimiz qayerlarda yashaydi? Siz yana qanday rangdagi quyonlarni bilasiz?

Bolalar : quyonchilik fermalarida, uylarda ham quyonchilik qilishadi.

Tarbiyachi: quyonlarni parvarishlash davomida uy harorati 18-20 darajada issiq bo‘lmog‘i lozim.Yana xona havosini tez-tez shamollatib turishimiz kerak

Bolalar: Oq, qora, jigar, kulrang.

Tarbiyachi: Bolajonlar quyonlar har xil bo‘ladi qanday?

Bolalar: Katta –kichik

Tarbiyachi: Mana Saidabonu quyonlarni parvarish qilishni bilib oldingmi?

Saidabonu: Rahmat sizlarga quyonlarni parvarish qilishda nimalar qilinadi bilib oldim.Endi quyonchamni o’zim parvarishlayman.

Tarbiyachi: Bolajonlar mana quyonchamiz qorni to‘yib dam olyapti, endi uni bezovta qilmaymiz.

Mavzuni mustahkamlash:

Tarbiyachi: Saidabonuni dadasi unga nima sovg‘a qildi?

Bolalar: Oppoq quyoncha

Tarbiyachi: Qanday ertak tomosha qildingiz?

Bolalar: “Maqtanchoq quyon”

Tarbiyachi: Quyonlar yashaydigan havo harorati necha darajada bo‘lishi kerak?

Bolalar: 18-20 darajada.

Mashg‘ulotni yakunlash:

Tarbiyachi: Bolajonlar bugungi o‘yinimizni o‘yin orqali yakunlab olamiz “Bo‘ri va quyonlar” harakatli o‘yin.

Tarbiyachi tomonidan bolalar rag‘batlantiriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

Noyabr oyi 4-mavzu

Mavzu- Baliqlarni parvarishlaymiz.

Maqsad:

A) Bolalarga akvariumdagi baliqchalarni oziqlantira olishga o‘rgatish.Baliqlarni ozuqalari bilan tanishtirish.Suvda baliqlarni qanday nafas oladi tushuntirish.

B) Bolalarni jonzotlarni asrashga va ularni parvarish qilishga undash.O‘rtoqlariga

yordam berishga, yumushlarni birga bajarishga va do‘st inoq bo‘lib o‘ynashga

chorlash.

S) Bolalarni o‘yinlar davomida jismonan sog‘lom bo‘lishini shakllantirish va mayda motorikalarini rivojlantirish.

Kerakli jihozlar: Baliqlar bilan akvarium, ularning ozuqasi, qarmoq, bolalar uchun suv osti o‘yinchoqlari, oq qog‘oz va rangli qalamlar.

Faolyatning borishi:

Tashkiliy qism:

Tarbiyachi: Bolajonlar o‘yinlarimizga tayyormisiz?

Bolalar: Albatta

Tarbiyachi: Kelinglar doira shakli bo‘lib turib olamiz va men quruqlikdagi hayvonlar va suvda yashovchi hayvonlarni nomini sizga aytaman siz quruqlikda

yashovchi hayvonlarni nomini aytsam siz yurib kelasiz.Suvda yashovchi hayvonlarni aytsam qo‘lingizni suzgich qilib joyingizga borasiz. Bolalar o‘yinni bajaradilar.

Tarbiyachi: Demak suvda yashovchi hayvonlarga nimalar kirar ekan?

Bolalar : baliq,delfin,akula,sakkiz oyoq,qisqichbaqa,dengiz mushugi.

Yangi mavzu bayoni:

Tarbiyachi: Bolajonlar biz bugun sizlar bilan Suvda yashovchi baliqchalarni qanday qilib parvarishlashni o‘rganib olamiz. Shu payt eshik taqqillab mehmon kirib keladi.

Tarbiyachi: Assalomu alaykum, quyonvoy

Quyon: Salom bolajonlar men sizlarga bir sovg‘a olib keldim, qani toping-chi u nima? (Quti ichidan banka ichida turgan baliqchani olib ko‘rsatadi)

Bolalar: Voy, quyonvoy axir bu baliqchalar-ku

Quyon: Juda ham to‘g‘ri bolajonlar men bu baliqchalarni olib kelishimdan maqsad, ularni parvarish qila olmadim shu sababli sizlarga olib keldim. Tarbiyachi:Quyonvoy juda ham yaxshi ish qilibsiz ,biz bugun mana shu baliqchalarni qanday parvarishlashni bilib olmoqchi edik.Kelinglar balajonlar o‘yinlarimiz bilan baliqchalarimizni xursand qilamiz.Buning uchun baliqchalar bo‘lib olasiz va guruhlarga bo‘linasiz.(bolalar turli xil rangdagi baliqchalar maskalari orqali bo‘lib olishadilar)”Qizil baliqchalar” “Sariq baliqchalar” Yashil baliqchalar”

(guruh xonasi dengiz manzarasiday bezatilgan)

Mana baliqchalar endi birinchi o‘ynimizni boshlaymiz, bu o‘yinimiz “Baliqning ini”, bu o‘yinimizni Qurish yasash va konstruksiyalash matematika markazida bo‘ladi. Bu yerda tayyor shakldagi baliqlar inini olib kelasiz. (Bolalar turli xil shakldagi akvariumlarni yig‘adilar)

Tarbiyachi: Nimalarni yig‘dingiz?

Bolalar: Akvariumlarni

Tarbiyachi: Akvariumlarni shakli qanaqa?

Bolalar: To‘g‘ri to‘rtburchak,to‘rtburchak ,doira

Tarbiyachi: Bolajonlar mana endi shu baliqchalarni to‘g‘ri to‘rtburchak shakldagi akvariumga joylashtiring va akvariumga nimalar bo‘ladi,so‘ng necha dona baliq borligini aniqlang.

Bolalar: vazifani bajaradilar va baliqlar soni 15ta ekanligini aytadilar

Tarbiyachi: Bolajonlar men sizga mantiqiy masala aytaman qani qaysi rangdagi baliqchalar tez va chaqqon topadi. –Bor edi akvariumda 15ta baliqcha, yana olib kelishdi 5ta baliqcha. Hammasi bo‘lib nechta baliqcha?

Bolalar: 20ta baliqcha

Tarbiyachi: Bolajonlar siz baliqchalaringizni qaysi markazga qo‘ydingiz.

Bolalar: Ilm fan va tabiat markaziga

Tarbiyachi: Hamma baliqchalar shu markazga suzib kelishsin.

Bolalar: Harakatli o‘yin “Dengiz baliqchalari” bo‘lib suzib kelishadi.

Tarbiyachi: Mana akvariumdagi baliqchalarimiz ham rosa och qolishgan kelinglar ularni ovqatlantiramiz va quyonchamizga ham baliqlarni qanday parvarish qilishni o‘rgatamiz .Demak baliqlar uchun maxsus yemishlarimiz olib kelingan va ularni baliqchalarimiz oziqlanishi uchun akvariumga solamiz.

Bolalar: Bu jarayonni kuzatib turadilar.

Tarbiyachi: Bolajonlar akvariumdagi baliqchalar maxsus tayyorlangan, emishlar orqali oziqlanadi,lekin dengizda daryoda va ko‘llarda yashovchi baliqlarning ozuqasi masalan kata-katta baliqlar, mayda baliqchalar bilan mayda baliqlar esa dengiz o‘tlari bilan oziqlanadi.

Demak siz uyda baliqlarni qanday parvarish qilasiz?

Bolalar ;o‘zlari bilganlaricha javob berishadi.

Tarbiyachi:Qani dengiz baliqchalarim barchangiz to‘lqinlar orqali san’at markaziga etib keling bu yerda siz har xil rangdagi baliqchalar suratini chizib va shu chizgan suratlaringizni quyonchamizga sovg‘a qilasiz.Mehmonni quruq qo‘l bilan yubormaslik kerak.

Bolalar:vazifani bajaradilar va quyonvoyga sovg‘a qiladilar.

Quyon: rahmat sizga bolajonlar meni juda xursand qildingiz, endi bularni olib o‘z uyimga qaytaman yana albatta sizlarni yoningizga qaytaman xayr.

Bolalar: quyonvoy bilan xayrlashadilar

Tarbiyachi : bolajonlar barakalla, kelinglar endi “Baliq ovi “o‘yinini o‘ynaymiz buning uchun bizga nimalar kerak?

Bolalar: qarmoq, chelak,suv dengiz baliqchalari va chuvalchang.(bolalar o‘yinni maroq bilan o‘ynashadi va yana bir bor mavzu mustahkamlanadi)

Dekabr oyi 1-mavzu

Mavzu: Archa qarag‘ay daraxti

Maqsad: a)Bolalarga archa va qarag‘ay daraxtlari haqida tushuncha berish. Daraxtlarni bir-biridan farqlashga o‘rgatib borish. SHu daraxtlardan qanday buyumlar olinadi, bolalarga o‘rgatib borish.

b) Tabiatni sevishga, ardoqlashga o‘rgatish hamda jamoa bo‘lib tadqiqotlar olib borish va do‘stona munosabatlar va ahillikda ishlashga undash.

Bolalarning diqqat e’tiborini rivojlantirish, bilimlarini mustahkamlash.

Kerakli jihozlar: archa, qarag‘ay daraxtlari, chelak, suv, daraxtlar haqida videorolik, rangli plastilinlar.

Faoliyatning borishi:

Tashkiliy qism:

Tarbiyachi: Salom bolajonlar! Bugun kayfiyatlaringiz a’lomi, kelinglar bir o‘yin o‘ynaymiz. Bu o‘yinimizning nomi “Daraxtdagi qushlar”

Bolalar: 2 guruhga bo‘linadilar 1-guruh daraxtlar, 2-guruh qushlar. Qushlar daraxtlar ustiga uchib kelib qo‘nadilar. Daraxtlar shamol bo‘lib tebranadilar va qushlar uchib ketadilar. (shu tariqa bolalar o‘yinni davom ettiradilar).

Tarbiyachi: Bolajonlar o‘yin o‘ynab charchab qolmadingizmi?

Bolalar: yo‘q.

Tarbiyachi: Juda ham yaxshi, endi topishmoqlarimni tinglang.

Qishin-yozin bir xil kiyimda.

Bolalar: archa

YAngi mavzu bayoni.

Tarbiyachi: Yangi yilning elchisi

Mana archajon.

Bolajonlar bu she’rimizning davomi qanday edi?

Bolalar: Ko‘k shoxida ko‘ylagi

Ko‘ksida marjon.

Tarbiyachi: Siz qanday she’rni aytdingiz?

Bolalar: archa haqidagi she’r.

Tarbiyachi: juda ham to‘g‘ri, bugun biz sizlar bilan archa va qarag‘ay daraxtlari haqida yanada yaqinroqdan tanishib olamiz. Buning uchun ikki guruhga bo‘linamiz. 1-guruh archa,

2-guruh qarag‘ay.

Bolalar guruhlarga bo‘linib olishadi.

Tarbiyachi: boalajonlar barchangizni til va nutq markaziga kelishingizni va bu yerda archa va qarag‘ay daraxtlarini nihollik davridan to daraxt bo‘lgunga qadar jarayonini suratlar orqali ko‘rsatib bering.

Bolalar: vazifani bajaradilar.

Tarbiyachi: Barakalla bolajonlar. Siz daraxtlarning o‘sish jarayonin to‘g‘ri tartib bilan terdingiz. Mana endi bu yerda mevali va manzarali daraxtlarning suratlari berilgan, ularni ajrating. Archalar guruhi mevali daraxtlarni, qarag‘ay guruhi manzarali daraxtlarni ajrating va farqlang.

Bolalar: daraxtlarni ajratadilar va har bir daraxtni tariflab beradilar.



Tarbiyachi: vazifalarni bajarib charchab qoldingiz, kelinglar syujetli rolli o‘yinlar va drammalashtirish markazida “Maqtanchoq daraxtlar” haqidagi ertakni tomosha qilamiz. (Bolalar bu ertakni televizor orqali tomosha qiladilar)
Tarbiyachi: bu ertak orqali nimalarni bilib oldingiz. Bolalarnig javoblari.



Tarbiyachi: ertakda qaysi daraxtlar qatnashgan?
Bolalar: mevali va manzarali daraxtlar.
Tarbiyachi: juda ham to‘g‘ri. Ifloslangan havoni qanday daraxtlar orqali tozalay olamiz?
Bolalar: manzarali daraxtlardan archa, qarag‘ay, majnuntol, sadaqayrag‘och va shular.
Tarbiyachi: bu daraxtlar haqida bilib oldingiz endi barchangizni san’at markaziga taklif qilaman. Bu markazda siz archa va qarag‘ay daraxtlari barglaridan gerbariylar yasaysiz.
Bolalar amaliy ishni bajaradilar.

Tarbiyachi: bolajonlar mana qish fasli ham keldi, bu faslda siz yaxshi ko‘rgan bayram qaysi bayram edi?

Bolalar: archa bayrami

Klaster metodi orqali mavzu mustahkamlanib olinadi.

Tarbiyachi: juda ham to‘g‘ri shuning uchun ham guruhimizga archa daraxtini olib kelganman, ammo u hali bezatilmagan. Kelinglar hammamiz bayram uchun eng chiroyli archani bezatamiz.

Bolalar tayyor o‘yinchoqlardan archa daraxtini bezatadilar.

Faoliyatni yakunlash.

Tarbiyachi bolalarni rag‘batlantirib, faoliyatni yakunlaydi.



Dekabr oyining 2-haftasi

Mavzu: Muz bilan tajribalar.

Maqsad: Bolalarni tabiatga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish. Qishki ob-havo haqida tushunchaga ega bo‘lish, qor va muzning fizik xususiyatlarini bilishga oid masalalarni echadi va xulosalar chiqaradi.Turli tajribalar orqali bolalarda ixtirochilik qobiliyatini rivojlantirish.

Kerakli jihoz va materiallar: Audio yozuv, xaltacha, bo‘yoq mo‘yqalam disk, televizor baliq ovlash uchun muzli ko‘lcha, quttidagi baliqchalar, magnitli qarmoqchalar, suratli plazmalar, 2 ta tog‘oracha qor va muz. 2 ta stakan, sham, tuz, 2 ta magnit doska, qor va muz rasmli plakatlar

Mashg‘ulotning borishi: Tarbiyachi bolalarni diqqatini jamlash uchun o‘yin o‘ynashadi. O‘yin quyidagicha bo‘ladi:

Tarbiyachi: qo‘llarimizni ko‘taramiz

Bolalar: Daraxtlar kabi (qo‘llarini yuqoriga ko‘taradilar)

Tarbiyachi: qo‘llarimizni birlashtiramiz.

Bolalar: tog‘lar kabi (qo‘llar yuqorida birlashtiriladi)

Tarbiyach: Silkitamiz (qo‘llarini ikki tomonga silkitadi)

Bolalar: shamol kabi

Tarbiyachi: yog‘diramiz

Bolalar: qor kabi (bolalar aylanib o‘tiradi)

Tarbiyachi: mana bolajonlar tetiklashib ham oldik deb turgan bir mahal bir ovoz eshitiladi (audio diskada ayoz boboning ovozi yangraydi. Bolalar bilan salomlashib bolalarga savollar beradi.

Ayozbobo: “Huvvilab” ovoz chiqaradi

Tarbiyachi: Ie bolajonlar bu kim bo‘ldiykan

Ayozbobo: salom bolalar men ayoz bobo, qish faslining elchisi bo‘laman

Bolalar: salomlashadilar

Ayozbobo: Bolajonlar men sizlarni bilimlarinigizni sinashga keldim. Qani mening faslim qish haqida nimalarni bilar ekansiz.

Tarbiyachi: bonojon bizning bolalarimiz bilimdon va zukko bolalar bo‘ladilar.

Savollaringizni bering bariga javob beradishga harakat qiladilar. Bolajonlar savollarga javob berishga harakat qilamizmi?

Bolalar: Ha albatta javob beramiz

Ayozbobo: Mayli unda mening topishmog‘imni diqqat bilan tinglang va o‘ylab javob bering.

-Osmondan par tushadi

Par emas zar tushadi (qor parchasi)

-Ayoz bobo navvot sotdi

Olgan edim, qo‘lim qotdi (muz)

-Sutday oppoq, parday yumshoq (qor)

-Qishda o‘simliklar nega bargsiz bo‘ladi?

-Nega qor yog‘adi?

-Nega suv muzga aylanadi?

-Nima uchun qor qo‘lga tushsa eriydi.

Ayozbobo: Barakalla bolajonlar qishki tabiat hodisalar haqida bilimga ega ekansiz meni juda xursand qildingiz shuning uchun sizlarga muz va qor haqida turli xil o‘yinlar olib keldim. SHularni sizga sovg‘a qilib ketaman. O‘yinlar mana bu sirli xalatacha ichida endi men boray boshqa guruh bolalarini ham bilimini sinab ko‘ray. Xayr! (Bolalar ham xayrlashadilar)

Tarbiyachi: Bolajonlar keeling bu sehrli xaltacha ichini ochib qaraylikchi ichida qanday o‘yinlar bor ekan. (deb xalatachani ochadi va bir bolani chaqirib xaltacha ichidan o‘yin tanlab olishni taklif etadi).

Bola: Xaltacha ichidan disk olib beradi.

Tarbiyachi: Bolajonlar ko‘raylikchi diskda qanday tasvir bor ekan deb televizordan (muzliklar va qorliklar tasvirlangan) lavhalarni ko‘rsatib qor va muzliklarni fizik xususiyatlari haqida suhbatlashadilar.

Keling endi bolalar mana bu stakandagi qor va muzni kuzatamiz.

Bolalar qor va muzni paypaslab ko‘rib qor va muzni qattiq va yumshoqligini, rangini, shaffofligini va haroratini his qiladilar

Tarbiyachi: Bolalarni javobiga qarab rag‘batlantiradi va yana bir bolani o‘yinga

taklif qilib o‘yinni tanlab berishini so‘raydi. (Bola tanlab beradi)

2-o‘yin: “O‘ynab turib o‘rganamiz”

Tarbiyachi: Bolajonlar bu o‘yinni o‘ynash uchun biz to‘rt guruhga bo‘linib markazlarda ish bajaramiz.

Bolalarni guruhga bo‘linishi uchun “Qorbo‘ron” o‘yinidan foydalanamiz Bolalar bir birlariga muzika sadolari ostida g‘ijimlangan qog‘ozlarni otadilar. Muzika to‘xtagach shu shug‘ijimlanganqog‘ozdan birini tanlab olibishlaydigan markazlarini teshib qarmoq orqali baliq ovlaydilar. Hozir siz ham matematikabaliq ovlaysiz.

Matematika markazi: Bolalar oldiga karton quttidan yasalgan muzlik ko‘l ichidan baliqlarni tutib olaveradilar. O‘yin davomida bolalar o‘zlarining tutgan baliqlari sonini, shaklini, rangini va katta-kichikligini aytib beradi

Qurish yasash markazida: Qor va muz tasvirlangan plazmalarni yig‘adilar.

3. Ilm fan va tabiat markazida: Muz va qor bilan tajribalar o’tkazadilar. 2 ta tog‘oraga biriga qor biriga esa muz solingan



1-chi tajriba: bolalarga qor ustiga rasm chizishni so‘ng esa tog‘oradagi muzga rasm chizishni buyuradi bu bilan bola qaysi biriga rasm chizib bo‘lishini bilib oladilar.

2-chi tajriba: Bunda qor va muzni qanday erishini tajriba qilib ko‘railar avval bir idishga qor olib unga tuz sepadilar va uni erishini kuzatadilar. So‘ngra bir parcha muzni olib uni ostidan yoqilgan shamni tutadilar va uni erishini kuzatadilar. Bu jarayonda tarbiyachi qor va muzni tuz va issiqlik bilan eritish

mumkinligini tushuntirib o‘tadi.

3-chi tajriba: Qor va muz ustiga mo‘yqalam va bo‘yoq bilan ishlab ko‘radilar. Qor ustiga bo‘yoqni kistochka bilan qor ustiga sachratadilar.

Muzga esa mo‘yqalam bilan chizib ko‘radilar. Bolalar bu usul bilan qor va muz ustida qanday manzara hosil bo‘lishini kuzatadilar.

4. Til va nutq markazida: Qish ajoyibotlari aks etgan suratlarni ko‘rib chiqib hikoya tuzadilar, hikoya tuzish jarayonida bolalardan ingliz tilida qor,yomg‘ir, sovuq, muz ,issiq kabi so‘zlar so‘raladi.

Har 5 minutda bolalar tarbiyachini ogohlantirishi bilan markazlarda o‘rin almashadilar.

Xulosa: Bolalarni ochiq maydonchaga chaqirib bolalardan qaysi markazlarda ishlaganlari va qaysi markazda ishlash ko‘proq yoqganligi haqida so‘rab qanday tushuchalarga ega bo‘lganliklarini “Yaxshi-yomon metodi” bilan mustahkamlanadi. Bolalarni ikki guruhga bo‘lib doskadagi suratlarni o‘z fikrlari bilan to‘ldirishlarini aytadi bunda 1-guruh qor parchasini 2-guruh tomda osilib turgan muzlarni o‘z fikrlari bilan to‘ldiradililar.

Bolalar rag‘batlantiriladi mashg‘ulot yakunlanadi.

Dekabr oyi 3-hafta

Mavzu: “Kiyim-kechak, bosh kiyim, poyabzal yasaladigan matolar nimadan tayyorlanadi”

Maqsad: a)bolalarga mato va terining kelib chiqishi haqida tasavvurlarni hosil qilish, matolarni sifatiga ko‘ra ajrata olishga o‘rgatish. Pillachilik, pilla qurti to‘g‘risidagi bilimlarini oshirish.

b) bolalarni kiyim-kechaklarini asrashga o‘rgatish, toza-ozoda bo‘lish orqali sog‘lom bo‘lishga undash.

Turli o‘yyinlar orqali va kiyimlarni kiyish orqali bolalardagi mayda motorikalarni rivojlantirish.

Kerakli jihozlar: paxta, jun, mo‘yna, teri, shoyi, poxol, pat namunalari, kiyimlar, bosh kiyimlar, rasm kartochkalari, qo‘g‘irchoqlar kiyimlari, poyabzallar, pilla qurti

to‘g‘risidagi video slayd, rangli qog‘oz, yelim, qaychi, qo‘g‘irchoqlar, sehrli xaltacha, plastilin.

Faoliyatning borishi:

Tashkiliy qism:

Tarbiyachi: Assalomu alaykum bolajonlar! O‘lkamizda qaysi fasl?

Bolalar: Qish fasli

Tarbiyachi: bu faslda qanday kiyimlarni kiyish kerak?

Bolalar: qishki kiyimlarni, bosh kiyim, qo‘l qop, palto, sharf.

Tarbiyachi: demak hamma shu kiyimlarni kiyganmi?

Boalar: ha. Shu payt bir bola yo‘talib guruhga kirib keladi.

Tarbiyachi: voy Jasur senga nima bo‘ldi?

Jasur: Oyim qish fasli keldi ko‘chaga issiq kiyimlaringni kiyib chiq desalar ham, quloq solmadim va ko‘chaga yengil kiyimda chiqdim, so‘ng shamollab qoldim.

Tarbiyachi: mana ko‘rdingizmi bolajonlar. Har bir faslga mos kiyimlar bo‘ladi. SHu sababli ham ularni faslga mos tarzda kiyish lozim bo‘lmasa Jasurga o‘xshab shamollab qolasizlar.

Yangi mavzu bayoni: bolalar keling bir o‘yin o‘ynaymiz. O‘yinimiz faollik markazlarida bo‘ladi. Bu yerda siz kiyimlar nimalardan tayyorlanishini bilib olasiz hamda ularni asrashni ham.

Buning uchun siz bahor, yoz, kuz, qish fasllari bo‘lasiz. Bahor faslida qanday kiyinishingiz kerak, yoz faslida qanday kiyinishingiz kerak, kuz faslida qanday kiyinishingiz kerak, qish faslida qanday kiyinishingiz kerak? SHu payt sehrli xaltacha paydo bo‘ladi va bolalarni faslllarga mos kiyintiradi.





Tarbiyachi: salom sehrli xaltacha. Sen bizni juda ham xursand qilding. Endi o‘yinlarimizni sen bilan davom ettiramiz. Hozir barchangizni diqqatingizni monitorga qarating va kiyimlar ingliz tilida nomlanadi bilib oling.

Bolalar kiyimlar haqidagi slaydni tomosha qiladilar va shu kiyimlar ingliz tilida qanday nomlanadi bilib oladilar.

Tarbiyachi: ingliz tilida kiyimlar qanday nomlanadi?

Bolalar: Clothes–kiyimlar, Shoes– tufli, Boots– etik, Dress – ko‘ylaklar, Jacket-kurtka, Hat-qalpoq(shapka) .

Tarbiyachi: mana ingliz tilida kiyimlarni nomini ham bilib oldingiz. Yana o‘yin o‘ynashga ega bo‘ldingiz. O‘yin “Paypaslab top”. Bu o‘yin orqali bolalar stol ustiga qo‘yilgan kiyimlarni ko‘zlari yumilgan holda paypaslab topadilar. Bahorgi kiyimlarni olgan bolalar ilm-fan va tabiat markaziga, yozgi kiyimlarni olgan bolalar san’at markaziga, kuzgi kiyimlarni olgan bolalar til va nutq markaziga, qishki kiyimlarni olgan bolalar qurish, yasash va konstruksiyalash matematika markaziga bo‘linib oladilar.

Tarbiyachi: sehrli xaltacha bolalarimizga topshiriqlarni bersak ham bo‘ladi.

1- topshiriq ilm-fan va tabiat markaziga. Bu markazda siz tabiatdan olingan jun, charm va teri xomashyosidan olinadigan kiyimlarni qanday tayyorlanishini bilib olasiz. Video rolik, charmdan tayyorlangan poyabzallar, jundan tayyorlanadigan kiyimlarni tayyorlanish jarayonini kuzatadilar.

Bu videorolikda nimalarni ko‘rdingiz?

Bolalar: biz kiyadigan oyoq kiyimlarni tabiatdagi daraxt po‘stlog‘idan hamda hayvonlarni terisidan, ustki kiyimlarimizni esa pilla va paxta tolasidan olinishini bilib oldik.

Tarbiyachi: bolajonlar kelinglar kiyimlaringiz orqali tajriba qilamiz. Hamma qo‘liga qog‘oz bo‘lakchalarini olsin va kiyimiga ishqalasin.

Bolalar: bu amaliy ishni bajaradilar.

Tarbiyachi: kimni qog‘oz bo‘lagi kiyimida qolgan bo‘lsa, uning kiyimi pilla tolasidan olingan. Chunki u sintetika hisoblanib, havo o‘tkazmaydi shu sababli ham o‘zidan elektr energiya chiqaradi. Kimni kiyimida qog‘oz bo‘lagi qolmagan bo‘lsa, u kiyim paxta tolasidan olingan bo‘lib, havo o‘tkazuvchan hisoblanadi va o‘zidan elektr energiya chiqarmaydi. Bu kiyimlarni kiygan insonlar hech qachon kasal bo‘lmaydi. Demak, nimaning tolasidan olingan kiyimni kiyishimiz kerak.

Bolalar: paxta tolasidan olingan kiyimlarni kiyishimiz kerak.

Tarbiyachi sehrli xaltacha sehrli so‘zini aytadi va bolalar til va nutq markazidagi vazifalarini bajaradilar. Bu markazimizda qo‘g‘irchoqlarimizni fasllarga mos kiyintiring.

Bolalar: vazifani bajaradilar.

Tarbiyachi: barakalla bolajonlar yana sehrli xaltachamizning sehrli so‘zlarini eshitib, keyingi markazning topshiriqlarini bajaramiz. Qurish-yasash va konstruksiyalash matematika markazi “Bo‘laklardan butun yasa” o‘yini orqali kiyimlarni o‘z holiga keltiring va necha bo‘lakdan yasalganini va qanday shakllardan tuzilganini aytib bering.

Bolalar: kiyimlarni birlashtirib yasaydilar va to‘rtta beshta bo‘laklardan yasalganini shakli to‘g‘ri to‘rtburchak va doira shakli ekanligini aytadilar.

Tarbiyachi: bolajonlar bu markazni ham topshiriqlarini a’lo darajada bajardingiz va keyingi markaz topshiriqlariga o‘tdingiz. Keyingi markazimiz





san’at markazi. Bu markazda kiyimlarni applikatsiya yordamida yelimlab plastilin orqali gullar bilan bezaysiz.

Bolalar: amaliy ishni bajaradilar

Tarbiyachi: bolajonlar bugungi o‘yinlarimizni BBB metodi orqali mustahkamlab olamiz. Bolalar bilganlirini va bilib olganlarini yana bilmoqchi bo‘lganlarini aytadilar.

Dekabr oyining 4-haftasi.

Mavzu: Daraxtning xususiyatlari.

Maqsad:Daraxtlar haqidagi tushunchalarini mustahkamlash.Tajriba tadqiqot orqali daraxt xususiyatlarini aniqlash. Xulosa chiqarish uchun o‘z shaxsiy tajribasiga tayanish.

Jihoz:CHizilgan daraxt,Suv to‘ldirilgan idishlar ,arralangan yog‘och ,

Faoliyatni olib borilishi:Bolajonlar hozir ulqamizda qaysi fasl ?

Bolalar javobi:

Tarbiyachi:To‘g‘ri hozir bahor fasli ekan tashqarida ob havo qanday?

Bolalar javobi:Bugun ob havo issiq quyosh charaqlab turibdi.

Tarbiyachi Keling shunday yaxshi kayfiyat bilan suhbatimizni davom ettiramiz.

Bolajonlar men sizlarga bir chiroyli surat ko‘rsataman(deb suratni ko‘rsatib savollar beradi)

-Bolalar siz bu surat buyicha qanday fikrlaysiz?

-Bu qaysi faslga mos daraxt?

-Daraxt hayoti bo‘yicha nimalar deyish mumkin?

-Daraxt qanday paydo bulgan ?

-Daraxtlarning bizning hayotimizdagi o‘rni qanday?

-Dehqon, bog‘bonlarni daraxt o‘stirishdagi faoliyatini bilasizmi?

-«Birni kessang-mingni ek» maqolini bilasizmi ?

Kabi savollarni berib bolalarni tabiatga ehtiyotkorono munosabatda bo‘lish hissini tarbiyalash.

Tarbiyachi :Bolajonlar keling endi bir o‘yin uynaymiz .O‘yinni nomi «SHamol va quyosh»deb nomlanadi .Bu o‘yinda bolalar sayr qilib yuradilar,birdan shamol esadi. Daraxtlarning shamolda esishini bolalar harakat bilan ko‘rsatadilar.Tarbiyachi «Quyosh chiqdi»desa bolalar sokinliqni namoyish etadilar.O‘yin 2-3marta takrorlanadi.

Keling endi daraxtlar turlarini AKT moslamasida «Uch og‘a-ini botirlar»ertagi daraxtlarni bir biri bilan so‘zlashuv lavhasini tomosha qilamiz.

Deb bolalar diqqatini monitorga qaratadi .Bu lavha orqali bolalar daraxtlarni

parvarishlash

Ularni jonli tabiat ekanligini tushunadilar.

Tarbiyachi Bolajonlar keling endi siz bilan guruhlarga bo‘linib ish bajaramiz .Deb bolalarni o‘zlari yoqtirgan mevalaridan tanlashlarini aytadi va bolalardan qaysi mevani tanlaganini surab 4 markazga quyilgan daraxtlardan o‘z daraxtini topib o‘rinlariga joylashadilar va markazda ishlaydilar.

1- Til va nutq markazida «Bu qanday daraxt» o‘yinini o‘ynaydilar .

Bu o‘yinda bolalar daraxtlarni nomini aytib uning foydali tomonlari haqida so‘zlab beradilar .daraxt mevalari nomini ingliz tilida aytadilar.



2-San’at markazida :Bolalar plakatga «Daraxtdan nimalar qilinadi?» o‘yini uynaladi .Bu o‘yinda daraxtdan qilingan jihozlarni suratini chizishadi .Buning uchun har bir guruhga bittadan plakat beriladi .

(Mebel, uy,qalamlar,gugrt,qabi suratlarni chizadilar.)

3-Syujetli va rolli o‘yin markazida: To‘g‘ri va noto‘g‘ri» o‘yinini o‘ynaymiz Bu o‘yinda to‘g‘ri va noto‘g‘ri holatdagi lavhani sahnalashtiradilar.

Tarbiyachi: Mana bolalar bu sahnani ko‘rdingiz bu bolaga nisbatan nima degan bular edingiz? Bolalar o‘z fikrlarini aytadi.

4-Fan va tabiat markazida: Tajriba joyiga bolalar diqqatini jalb qilib, daraxtning arralangan bo‘lagini o‘rganadilar va daraxt yoshini bildiradigan xalqalarini ko‘rib

chiqadilar.Daraxtning yoshini uning xalqalarini sanab o‘rganib oldilar va yana daraxtni pishiqligi, shaffofligi, issiqliqni o‘tkazuvchanligini bilib oladilar.Tog‘oradagi suvga daraxt yogochlarini tashlashadi,kuzatib hulosalaydilar.

Tarbiyachi: Har 5 minutda bolalarga signal chaladi bolalar bu tovushda o‘rnilaridan turib o‘rin almashadilar .Markazlarda ishlarini bajarib bo‘lgach ochiq maydonda bolalarni san’at markazida chizgan suratlarini taqqoslab ko‘proq jihozlarni chizgan guruhni bolalarni o‘zlari baholaydilar.Tarbiyachi bolalarni barchasini rag‘batlantirib mashg‘ulotni
yakunlaydi.

Yanvar oyining 1-haftasi

1. Mashg‘ulot Tabiat bilan tanishtirish

Mavzu: Muz va qor bilan tajriba

Maqsad: Bolalarni tabiatga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish. Qishki ob havo haqida tushunchaga ega bo‘lish, qor va muzning fizik xususiyatlarini bilishga oid masalalarni echadi va xulosalar chiqaradi. Turli tajribalar orqali bolalarda ixtirochilik qobiliyatini rivojlantirish.

Kerakli jihoz va materiallar: Audio yozuv, xaltacha, bo‘yoq mo‘yqalam disk, televizor baliq ovlash uchun muzli ko‘lcha, quttidagi baliqchalar, magnitli qarmoqchalar, suratli plazmalar, 2 ta tog‘oracha qor va muz. 2 ta stakan, sham, tuz, 2 ta magnit doska, qor va muz rasmli plakatlar

Mashg‘ulotning borishi: Tarbiyachi bolalarni diqqatini jamlash uchun o‘yin o‘ynashadi. O‘yin quyidagicha bo‘ladi:

Tarbiyachi: qo‘llarimizni ko‘taramiz

Bolalar: Daraxtlar kabi (qo‘llarini yuqoriga ko‘taradilar)

Tarbiyachi: qo‘llarimizni birlashtiramiz.

Bolalar: tog‘lar kabi (qo‘llar yuqorida birlashtiriladi)

Tarbiyach: Silkitamiz (qo‘llarini ikki tomonga silkitadi)

Bolalar: shamol kabi

Tarbiyachi: yog‘diramiz

Bolalar: qor kabi (bolalar aylanib o‘tiradi)

Tarbiyachi: mana bolajonlar tetiklashib ham oldik deb turgan bir mahal bir ovoz eshitiladi (audio diskada ayoz boboning ovozi yangraydi. Bolalar bilan salomlashib bolalarga savollar beradi.

Ayozbobo: “Huvilab” ovoz chiqaradi

Tarbiyachi: Ie bolajonlar bu kim bo‘ldiykan

Ayozbobo: salom bolalar men ayoz bobo, qish faslining elchisi bo‘laman

Bolalar: salomlashadilar

Ayozbobo: Bolajonlar men sizlarni bilimlarinigizni sinashga keldim. Qani mening faslim qish haqida nimalarni bilar ekansiz.

Tarbiyachi: bonojon bizning bolalarimiz bilimdon va zukko bolalar bo‘ladilar. Savollaringizni bering bariga javob beradishga harakat qiladilar. Bolajonlar savollarga javob berishga harakat qilamizmi?

Bolalar: ha albatta javob beramiz

Ayozbobo: Mayli unda mening topishmog‘imni diqqat bilan tinglang va o‘ylab javob bering.

-Osmondan par tushadi

Par emas zar tushadi (qor parchasi)

-Ayoz bobo navvot sotdi

Olgan edim, qo‘lim qotdi (muz)

-Sutday oppoq, parday yumshoq (qor)

-Qishda o‘simliklar nega bargsiz bo‘ladi?

-Nega qor yog‘adi?

-Nega suv muzga aylanadi?

-Nima uchun qor qo‘lga tushsa eriydi.

Ayozbobo: Barakalla bolajonlar qishki tabiat hodisalar haqida bilimga ega ekansiz meni juda xursand qildingiz shuning uchun sizlarga muz va qor haqida turli xil o‘yinlar olib keldim. SHularni sizga sovg‘a qilib ketaman. O‘yinlar mana bu sirli xalatacha ichida endi men boray boshqa guruh

bolalarini ham bilimini sinab ko‘ray. Xayr! (bolalar ham xayrlashadilar

Tarbiyachi: Bolajonlar keeling bu sehrli xaltachaichini ochib qaraylikchi ichida qanday o‘yinlar bor ekan. (deb xalatachani ochadi va bir bolani chaqirib xaltacha ichidan o‘yin tanlab olishni taklif etadi).

Bola: xaltacha ichidan disk olib beradi.

Tarbiyachi: Bolajonlar ko‘raylikchi diskda qanday tasvir bor ekan deb televizordan (muzliklar va qorliklar tasvirlangan) lavhalarni ko‘rsatib qor va muzliklarni fizik xususiyatlari haqida suhbatlashadilar.

Keling endi bolalar mana bu stakandagi qor va muzni kuzatamiz.

Bolalar qor va muzni paypaslab ko‘rib qor va muzni qattiq va yumshoqligini, rangini, shaffofligini va haroratini his qiladilar

Tarbiyachi: Bolalarni javobiga qarab rag‘batlantiradi va yana bir bolani o‘yinga taklif qilib o‘yinni tanlab berishini so‘raydi. (Bola tanlab beradi)

2-o‘yin: “o‘ynab turib o‘rganamiz”

Tarbiyachi: Bolajonlar bu o‘yinni o‘ynash uchun biz to‘rt guruhga bo‘linib markazlarda ish bajaramiz

Bolalarni guruhga bo‘linishi uchun “Qorbo‘ron” o‘yinidan foydalanamiz

Bolalar bir birlariga muzika sadolari ostida g‘ijimlangan qog‘ozlarni otadilar. Muzika to‘xtagach shu shu g‘ijimlanganqog‘ozdan birini tanlab olibishlaydigan markazlarini teshib qarmoq orqali baliq ovlaydilar. Hozir siz ham matematikabaliq ovlaysiz.

Matematika markazi: bolalar oldiga karobkadan yasalgan muzlik ko‘l ichidan



baliqlarni tutib olaveradilar. O‘yin davomida bolalar o‘zlarining tutgan baliqlari sonini, shaklini, rangini va katta-kichikligini aytib beradi

Qurish yasash markazida: Qor va muz tasvirlangan plazmalarni yig‘adilar.





4. Ilm fan va tabiat markazida: Muz va qor bilan tajribalar o’tkazadilar. 2 ta tog‘oraga biriga qor biriga esa muz solingan

1-chi tajriba: bolalarga qor ustiga rasm chizishni so‘ng esa tog‘oradagi muzga rasm chizishni buyuradi bu bilan bola qaysi biriga rasm chizib bo‘lishini bilib oladilar.

2-chi tajriba: Bunda qor va muzni qanday erishini tajriba qilib ko‘railar avval bir idishga qor olib unga tuz sepadilar va uni erishini kuzatadilar. So‘ngra bir parcha muzni olib uni ostidanyoqilgan shamni tutadilar va uni erishini kuzatadilar. Bu jarayonda tarbiyachi qor va muzni tuz va issiqlik bilan eritish mumkinligini tushuntirib o‘tadi.

3-chi tajriba: Qor va muz ustiga mo‘yqalam va bo‘yoq bilan ishlab ko‘radilar. Qor ustiga bo‘yoqni kistochka bilan qor ustiga sachratadilar. Muzga esa mo‘yqalam bilan chizib ko‘radilar. Bolalar bu usul bilan qor va muz ustida qanday manzara hosil bo‘lishini kuzatadilar.

4. Til va nutq markazida: Qish ajoyibotlari aks etgan suratlarni ko‘rib chiqib hikoya tuzadilar, hikoya tuzish jarayonida bolalardan ingliz tilida qor,yomg‘ir, sovuq, muz ,issiq kabi so‘zlar so‘raladi.

Har 5 minutda bolalar tarbiyachini ogohlantirishi bilan markazlarda o‘rin almashadilar.

Xulosa: Bolalarni ochiq maydonchaga chaqirib bolalardan qaysi markazlarda ishlaganlari va qaysi markazda ishlash ko‘proq yoqganligi haqida so‘rab qanday tushuchalargaega bo‘lganliklarini “Yaxshi-yomon metodi” bilan mustahkamlanadi. Bolalarni ikki guruhga bo‘lib doskadagi suratlarni o‘z fikrlari bilan to‘ldirishlarini aytadi bunda 1-guruh qor parchasini 2-guruh tomda osilib turgan muzlarni o‘z fikrlari bilan to‘ldiradililar.





Bolalar rag‘batlantiriladi mashg‘ulot yakunlanadi.

Yanvar oyining 2- haftasi

2-mashg‘ulot: Tabiat bilan tanishtirish

Mavzu: “Havo ko‘rinmas shamol”

Maqsad: Bolalar bilan tajriba ishini o‘tkazish orqali bolada ijodkorlik qobiliyatini muammoni echimini topishni o‘rgatish, tajriba masalasini ajratish mustaqil faoliyat uchun jihoz tanlash va haqida tushunchalar berish.

Kerakli jihoz va materiallar: qog‘ozdan yasalgan samolyot, bir tog‘oracha suv, sham, bo‘yoq cho‘tka oq qog‘oz, darvoza, ventilyator, mayda qog‘ozchalar va qurigan bargachalar, stakanlar, gel, suv, koptokchalar

Mashg‘ulotning borishi: Guruhni tabiat qo‘ynida sayr qilish uchun jihozlanadi. Tarbiyachi bolalarni sayrga taklif qiladi sayr vaqtida bexosdan shamol

ko‘tariladi va hamma yoqqa qog‘oz parchalari va barglar yoyiladi.
Tarbiyachi: Voy bolajonlar havo aynib shamol turdi osmonni bulut qopladi darhol o‘zimizni panaga olaylik.
Bola: shamol ko‘tarildi havo aynidi deyapsiz ammo nega havoni ko‘rmayapmiz?
Tarbiyachi: biz havoni ko‘rmaymiz chunki havoning ranggi yo‘q, biz uni ushlab bilmaymiz lekin u bizga juda muhim
Bolalar: qanday muhim?
Tarbiyach: SHu havo borligi uchun erimizda hayot bor, shu havodan biz nafas olamiz shuning uchun havomizni ifloslamasligimiz kerak.
Bolalar: qanday qilib havoni ifloslanganligini bilishimiz mumkin?
Tarbiyachi: kelinglar hozir bir tajriba orqali havoni ifloslanishini ko‘ramiz. Likopchani birqo‘lga olib shamni yoqiblikopchaga ushlab turadi tutuni likopchani qoraytiradi so‘ng havoni zaharlanishini likopchani qorayganini ko‘rsatib ifloslanishini aytadi so‘ng yoni turgan shamni puflab o‘chiradi shamol yordamida o‘chganini aytadi bolalar tajribani kuzatib xulosa chiqaradilar.



Bolajonlar yana bir tajribani kuzatamiz mana bu shisha idish buni og‘zi ochiqligida to‘la havo bor hozir gugurt yoqib ichiga tashlaymiz u yonib turadi agarda uni qopqog‘ini qo‘ysak uni ichida havo qolmaydi, ya’ni kislorod nomli modda qolmaydi natijada gugurt o‘chadi

Demak bolajonlar havo ko‘rinmaydi lekin shuncha xususiyatlarga ega ekan. Endi bolajonlar har doimgidek markazlarga tarqalib “Havo ko‘rinmas shamol” ekanligini bir qancha tajribalarda ko‘ramiz Turli rangdagi havo to‘ldirilgan sharlar yordamida 4 guruhga bo‘linib olamiz. SHarlarni balandga irg‘itib o‘zlariga yoqqan sharni tanlab oladilar va shu rangli

sharlar yordamida 4 guruhga bo‘linadilar





Tarbiyachi: Tarbiyachi bolalar qaysi amrkazda ishlashlari va nima ishlar bajarishlari haqida aytib bolalarni xoxishiga ko‘ra markazlarda ish bajarishlariga ruxsat beradilar

Ilm fan va tabiat markazi: Stakandagi suv ustiga gel solinadi. Naychalar orqali og‘izlariga havo to‘ldirib puflaydilar va suvda nima hosil bo‘lishini kutadilar. 4-5 idishga bo‘yoq aralash ganturli rangdagi gelli suv bo‘lib ularni ranglarini ham kuzatadilar



Matematika markazida: Futbol darvoza koptokchalarini puflab havo orqali darvozaga kiritadilar bu o‘yin jarayonida bolalar nechta to‘p kiritganini uning rangi, katta kichikligi sonini aniqlab aytib beradilar.
Qurish yasash markazida: Turli rangdagi rangli qog‘ozlardan samolyotcha yasaydilar origami usulida bu usulada bolalarning mayda motorikalari rivojlantiriladi.



San’at markazida: Plakatda moviy osmonni bo‘yoqlar va nafas bilan sun’iy shamol hosil qilib tasvirlaydilar bunda cho‘tkani bo‘yoqqa botirib plakat yuzasiga sachratadilar va puflash orqali bo‘yoqni yoyadilar



Xulosa: Hamma bolalar ochiq maydonchaga chiqariladi va markazlarda nimalar ko‘rganlikalri haqida so‘raladi

Bolalar bilimlarini mustahkamlab fikrlari so‘raladi

Tarbiyachi: bolajonlar meni juda ham xursand qildingizlar keling yana ham kayfiyatimizni ko‘tarish uchun samolyotlarimizni havoga uchiramiz.

Yanvar oyining 3-haftasi

Mashg‘ulot: Tabiat bilan tanishtirish.

Mavzu: «To‘g‘ri ovqatlanish- sog‘liq garovi»

Maqsad: Inson salomatligiga to‘g‘ri ovqatlanishi natijasida turli vitaminlarning ahamiyatli va foydali tomonlari qo‘pligi haqida bolalarga tushuncha berish.Meva va sabzavotlarning foydali tomonlari bilan tanishtirish.

Kerakli jihoz va materiallar: mavzuga oid suratlar, oziq-ovqat mahsulotlari, daraxt va chelaq rasmi, sut solingan yopiq stakan meva va sabzavotlar.

Faoliyatni olib borish:Tarbiyachi bolalar diqqatini o‘ziga qaratib sanama o‘yinini o‘ynab turgan 1vaqtda 1bola tomog‘i bog‘liq holda yo‘talib yig‘lab guruhga kirib keladi.

Tarbiyachi: Voy! Salimjon senga nima bo‘ldi nega yig‘layapsan?

Salimjon: Opajon tomog‘im juda ham qattiq og‘riyapti.

Bolalar: Nega tomog‘ing og‘rib qoldi.

Salimjon: Kecha uyda sovuq ichimlik ichgan edim, shunga tomog‘im og‘riyaptimi nima.

Tarbiyachi: Mana ko‘rdingmi Salimjon shunday holga tushishinga o‘zing sababchisan , ahir qish mavsumida sovuq suv yoqi ichimliqlarni ichish mumqin emas bolalar faqatgina qaynatilgan suv yoqi sharbatlar ichishing lozim .Sen sog‘lom yuray desang doimo to‘g‘ri ovqatlanishing lozim. Boboqalonlarimiz «To‘g‘ri ovqatlanish-sog‘liq garovi» deb bejizga aytishmagan.

Bola: Opajon qanday mahsulotlarni iste’mol qilsaq to‘g‘ri ovqatlangan bo‘lamiz?

Tarbiyachi: Keling bolajonlar hozir sizga ovqatlarimiz tarqibida qanday vitaminlar va minerallar borligi haqida aytib beraman. Buning uchun sizni

diqqatingizni ekranga qarataman diqqat bilan kuzatib tinglab o‘rganib oling. (Bolalarga uglevodli, oqsilli, yog‘li mahsulotlar lavhalari ko‘rsatiladi). Bolajonlar ovqatimiz tarqibida oqsillar,yog‘lar, uglevodlar ,vitamin va minerallarga boy mahsulotlar bo‘lishi kerak. Oqsilni qurilish materiallariga o‘hshatish mumqin. Oqsil yordamida organizm baquvvat va sog‘lom bo‘lib o‘sadi, u hammamiz uchun kerak. Uglevodlar yordamida quvvat ajralib chiqadi, Non mahsulotlari, sabzavotlar va mevalar uglevodlarga boy. Ushbu mahsulotlarni ko’proq yegansiz. Albatta sog‘lom va baquvvat bo’lasiz. Yog‘larni oziq ovqatlar omborhonasiga o‘hshatish mumqin. Agar organizm bir necha kun oziqlanmasa uning zahirasidagi yog‘lar ishga tushib faol ishlaydi. Sariyog‘, o‘simlik moylari, smetana tarqibidagi yog‘ miqdori yuqori. Mana bolajonlar oziq ovqatlarini foydali tomonlari haqida ma’lumotga ega bo‘ldingiz keling endi bilimlaringizni sinash uchun ta’limiy o‘yin o‘ynaymiz.

«Foydali va zararli yemaklar»

Bu o‘yinda bolalar foydali yemaklarni daraxtga ilasiz zararlisini esa chelaqqa solasiz.

Tarbiyachi : Borakalla bolajonlar kelinglar endi markazlarda ish bajarib bilimimizni yanada rivojlantiramiz .Qarang mevalarimiz yerda to‘qilgan mevalardan o‘zingizga yoqqanini tanlab olasiz.



Bolalar tanlab yerdan terib oladilar so‘ng shu mevalar yordamida guruhlarga bo‘linadilar.(shu mevalar qatta qo‘rinishidagi atrebuti ishlaydigan markazlarga

qo‘yilgan)

Demak bolajonlar bugun ham biz siz bilan 4 ta markazda ish bajaramiz .

1**) Ilm fan va tabiat markazida:** « Ta’midan top» va « Paypaslab top» o‘yinlari o‘ynaladi.

Bunda bolalar oldiga liqopchalarda turli hil mevalar bo‘laqlarga bo‘lib sabzavotlar bilan aralashtirib qo‘yiladi bolalar esa qo‘zlari bog‘liq holda ta’tib qo‘rib aytadilar. ‟« paypaslab top» o‘yinida meva va sabzavotlarni paypaslab qo‘zlari yumuq holda topadilar.

2) Syujetli rolli o‘yinlar va drammalashtirish markazida:

« Ishorasidan top» metodi o‘ynaladi. Bunda bolalar 2 guruhga bo‘linadi. bolalar bir qatorda saflanib turadilar ular boshiga taqinchoq taqiladi har birini taqinchog‘iga turli xil mahsulotlar qo‘yiladi bolalar bir birlarini boshlarida qo‘yilgan suratdagi mahsulotlarni nimaligini imo ishora orqali aytish kerak.Qaysi guruh tezlik bilan aytsa o‘sha guruh g‘olib bo‘ladi.

3. Til va nutq markazi: Bu markazda bolalar plaqatda tasvirlangan mahsulotlarni nomini bosma harflar yordamida yozadilar.

4. San’at markazida: Foydali vitaminlarni plastilin bilan yasaydilar va idishchaga joylashtiradilar



Tarbiyachi: Har 5 minutda tarbiyachi signal chaladi bolalar o‘rnini almashtiradi. Barcha markazlarda ishlab bo‘lgach bolalarni ochiq maydonga taqlif etadi . (Audio diskdan Vitaminjon ovozi eshitiladi)

Vitaminjon : hoy bolajonlar meni tanidingizmi ?

Tarbiyachi: Iye bolajonlar bu kim ?

Vitaminjon: Men vitaminjonman men sizni olgan bilimlaringizni sinab qo‘rish uchun so‘zlar aytaman, sizlar foydali mahsulotlar haqida gapirsam qarsaq chalasiz, agar aytgan gapim sog‘ligingizga zararli bo‘lsa oyoqlaringiz bilan to‘qillatasiz,

1 Sabzi qo‘proq esang sharbatini ichsang, sen albatta juda kuchli va baland bo‘yli bo‘lasan.

2 Sen kelishgan bo‘lishni xohlasang, shirinliklarni yahshi ko‘r, shokoladlar yesang sog‘ bo‘lasan .

3 Meva va sabzavotlar sog‘ligimiz uchun juda foydali.

4 Fanta, kola va soklarni sovuq holda ichsang, tomog‘ing og‘rimaydi.

5 Vitaminlarga boy mahsulotlarni esangiz, hech qachon qasal bo‘lmaysiz.

6 Popkorn va chips sog‘ligingiz uchun juda foydali .

Vitaminjon: Bolalar har bir savollarimga to‘g‘ri javob berdingiz Ofarin meni xursand qildingiz.

Tarbiyachi: Mana bolajonlar Vitaminjonni shodlantirdingiz qani bir o‘zimizni olqishlab qo‘yaylik. (bolalar rag‘batlantiradi)





	 www.RePul..NeT		





Yanvar oyining 4-haftasi

Mashg‘ulot: Tabiat bilan tanishtirish.

Mavzu: Qushlarni parvarishlash.

Maksad: Bolalardagi qushlar haqidagi bilimlarini va tasavvurlarini mukammallashtirish, bolalarda tasavvuriy fikrlashni, to‘liq va to‘g‘ri so‘zlashni o‘rgatish. Qishki qushlarni parvarishlash haqidagi ilk tushunchalarni rivojlantirish. Qushlarga bo‘lgan g‘amxo’rligini, mehrni oshirish. Mayda motorikani rivojlantirish, tilga bo‘lgan qiziqishini oshirish, bolalar lug‘atini yangi so‘zlar bilan boyitish. Jamoada ishlash orqali bir-biriga bo‘lgan do‘stona munosabatini yanada mustahkamlash.

Jihozlar:AKT vositalari va kushlar haqida video rolik,qushlar suratlari, donxurak,don, kafasdagi qush,maysa, qaychi,oq qog‘oz, yelim,keraksiz quttilar, qushlar haqida “Bo‘laklardan butun yasa” o‘yini ko‘rgazmasi, plastilin, taglik, qarag‘ay daraxtining mevasi, daraxt, qushlar va bosma harflar.

Faoliyatni olib borilishi.

Tarbiyachi: Bolajonlar xozir o‘lkamizda qaysi fasl?

Bolalar: Qish!

Tarbiyachi: To‘g‘ri,qishning qaysi oyi?

Bolalar: Yanvar.

Tarbiyachi: YAnvar qishning nechanchi oyi?

Bolalar: Ikkinchi.

Tarbiyachi: Qishning nechta oyi bor?

Bolalar: Uchta.

Tarbiyachi: Ular qaysilar? Qani sanab o‘taylikchi?

Bolalar: Dekabr, yanvar, fevral.

Tarbiyachi: To‘g‘ri,bolajonlar,bugun qanday xafta kuni?

Bolalar: CHorshanba

Tarbiyachi: Hafta kunlarini sanab beringlarchi.

Bolalar: Dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba,juma, shanba,yakshanba.

Tarbiyachi: Bolalar hafta kunlarini yana qaysi tillarda bilasizlar?

Bolalar: Rus va ingliz tilida bilamiz.

Tarbiyachi: Qani unda sanab beringlarchi?

Bolalar: Ponedelnik, vtornik, sreda, chetverg, pyatnitsa, subbota, voskresene.

Tarbiyachi: juda yaxshi endi ingliz tilida

Bolalar: Monday, Tuesday, Thursday, Wednesday, Friday , Saturday , Sunday.

(guruh deraza tomonidan audio magnitafonda qarg‘a tovushi eshittiriladi.)

Tarbiyachi: Bolajonlar bu nimaning ovozi edi?

Bolalar: Qarg‘aning!!!

Tarbiyachi: Qaranglar qarg‘a bizga nimadir qoldirib ketibdi.

Tarbiyachi va bolalar diqqatlarini deraza tomonga qaratishadi. Tarbiyachi deraza tokchasidan konvertni olib bolalarga ko‘rsatadi.



Tarbiyachi: Bolajonlar bu xat! Kelinglar uni ochamiz.

Konvert ochiladi, ichida bir necha bo‘laklardan tashkil topgan xat.

Tarbiyachi: Bolalar kelinglar xatni to‘g‘ri to‘liq yig‘ib ko‘ramiz va unda nima borligini aniqlaymiz. Bolalar xatni yig‘ishadi.

Tarbiyachi: Qaranglar bu yerda qushlarning surati aks ettirilgan ekan. Bugun biz sizlar bilan qushlar to‘g‘risida suhbat olib boramiz.



Bolajonlar sizlarning e’tiboringizni suratga qaratmoqchiman.

Qaranglar qanday qushlarni bu yerda ko‘rayapmiz?

Bolalar: kabutar,to‘ti,chumchuk,kaldirgoch,oqqush,qarg‘a.

Tarbiyachi:Bolajonlar bu qushlar nimasi bilan o‘xshab nimasi bilan farq qiladi?

Bolalar: Bolalar javobi

Tarbiyachi: Juda to‘g‘ri bolajonlar. Bu qushlar rangi, kattaligi, tumshug‘i va patlari bilan farq qiladi. Lekin hammasi qush ekani, ucha olishi, ozuqalanishi, sayrashi bilan o‘xshash ekan.Bolajonlar kim menga aytadi kushlar qayerlarda in kuradi?

Bolalar: Tom shiftida ,daraxtlarda in kuradi.

Tarbiyachi: Qarg‘a nimadan in kuradi?

Bolalar:Xas-chuplardan daraxtlarga in kuradi.

Tarbiyachi shu tarzda xar bir qush haqida suraydi va mavzuni tuldirib boradi.

Tarbiyachi: Bolajonlar suratdagi qushlar chiroyli ekan xa?

Bolalar : Xaaaaa!!!!

Tarbiyachi: Menda sizlar uchun syurpriz bor!

Tarbiyachi usti yopilgan qafasni ochib xaqiqiy qushlarni ko‘rsatadi.

Bolalar bu qafasdagi qush nomi nima?

Bolalalr: To‘ti!

Tarbiyachi: Juda to‘g‘ri , bu to‘ti qush. U issiq mamlakatlarda yashaydi.Lekin uy sharoitiga xam juda tez moslashuvchan qush. Qushlar tabiatda yashab urgangani

uchun ular ozuqa sifatida o‘tdan xam foydalanishadi. Ular o‘tlarni tumshuqlari bilan tortib eyishni xush kurishadi. Kelinglar xozir sizlar bilan tajriba o‘tkazamiz. Tarbiyachi ikki bolaga o‘t va qaychi beradi. Ular o‘tni mayda kesib qush qafasiga qoyishadi, yana ikkita tarbiyalanuvchi bolalar esa, o‘tni sim bilan o‘rab, qafasning devoriga maxkamlashadi.




Tarbiyachi: Bolajonlar kelinglar endi chetroqqa o‘tib kuzatamiz. Qani qaysi o‘tni to‘tilar tanlashar ekan?!

Tajriba –kuzatuvda kurib turganimizday to‘ti bog‘lamdagi o‘tni tanladi.

Bolajonlar qushlarga yashash uchun ozuqadan tashqari yana nima kerak?

Bolalar: Don, suv, havo kerak.

Tarbiyachi: Juda to‘g‘ri ona tabiatimiz saxovatlari quyosh, er, suv,havo kerak. Bu narsalarsiz bolajonlar biror jonli mavjudod yashay olmaydi. SHuning uchun nima qilishimiz kerak?

Bolalar: Ularni asrab, ulardan to’g‘ri foydalanish kerak.

Tarbiyachi: biz kurmaydigan havoni xozir tajribada kuramiz:

Bolajonlar qani qulimizdagi pufaklarni shishiramiz.

Bolalar pufaklarni shishirishadi.

Tarbiyachi: Pufak ichida nima?

Bolalar: Havo.

Tarbiyachi: Juda to‘g‘ri, endi shu havoni pufak ichidan chiqaramiz. Bolalar havoni qo‘yib yuborishadi.

Tarbiyachi: Pufak ichidagi havo ketib, pufagimiz qanday holatga keldi?

Bolalar: oldingi holiga.

Tarbiyachi: Ha, ilgarigi holatiga qaytdi. Bolalar, xozirgi kunda bu havomizni zavod va fabrikalar , mashinalardan chiqadigan tutun va gazlar, odamlarning har qayerga tashlab ketadigan axlatlari ifloslantiryapti. Kelinglar bu kurinmas ifloslanish jarayonini sizlar bilan tajribada ko‘ramiz.
Tarbiyachi: Likopcha tagiga sham yoqadi. Qaranglar shagam juda chiroyli yonayapti. Uning xech qanday zararini biz ko‘rmayapmiz.Ammo likopchani yuzasi kurganda shagamning havoni kanday zaharlashini guvoxi bulamiz. Qaranglar biz ko‘rmaydigan havoning ifloslanishi xam xuddi mana shu jarayon kabi bo‘ladi.





Bolajonlar, bu ifloslanish oldini olishimiz uchun nimalar qilishimiz lozim?
Bolalar: Tabiatni asrashimiz, turli xil gullar va o’simliklar, daraxtlar ekishimiz kerak.
Tarbiyachi: Juda to’g’ri aytdingiz, demak ko‘prok daraxtlar ekib, gullar va turli xildagi o’simliklar o’stirishimiz kerak ekan. Bog’chamizda bizning ham yer maydonchamiz bor. Maydonchamizda ham turli xil gullar va daraxtlar ekishimiz, shu bilan birgalikda bogchamizni obodonlashtirishga xam uz xissamizni kushishimiz kerak.Ana shundagina biz uz kuzlagan maksadimizga erishamiz.O‘simliklar o‘sishi uchun esa bizga quyosh nurlari er va suv kerak.
Keling yana bir tajriba o‘tkazamiz:
Tarbiyalanuvchilar oldida tuproq solingan yelim idishcha va shpritsda suv. Qani endi shpritsdagi suvni yelim idishdagi tuproqga yuboramiz va kuzatamiz.



Tarbiyachi: xo’sh bolajonlar nima sodir bo‘ldi?

Bolalar: tuproq suvni shimidi.

Tarbiyachi: Bolalar endi bu suvni qaytib shpritsga olib bilamizmi?

Bolalar: Yo‘q!

Tarbiyachi: Nimaga?

Bolalar: CHunki tuproqqa suv singib ketdi.

Tarbiyachi: shuning uchun bolajonlar suvning xar bir tomchisini asrashimiz kerak.

Ana endi kelinglar sizlar bilan bir o‘yin o‘ynaymiz.

Men qushlar nomini aytaman agar biror boshqa jonzotni aytsam sizlar qarsak chalasizlar.

Uchib keldi qarg’a. turna fil va mayna.

Bolalar qarsak chalishadi.

Tarbiyachi : nega qarsak chaldingizlar?

Bolalar : Fil bu qush emas hayvon.

Tarbiyachi: to‘g‘ri, uchib ketdi chumchuq,ari xakka va qaldirg‘och.

Bolalar qarsak chalishadi.

Tarbiyachi : nega qarsak chaldingizlar?

Bolalar : ari bu hasharot.

Tarbiyachi : osmonda uchar edi laylaklar, turnalar, qaldirg‘och va zag‘izg‘onlar Nega qarsak chalmadingiz?

Bolalar: Bularning hammasi qush.

Tarbiyachi: Juda yaxshi bolajonlar. Endi diqqat bilan hammamiz ekranga qaraymiz





Ekranda, qushlar videoroligi va qushlar ovozi eshitiladi.

Tarbiyachi: bolajonlar videolavxada qanday qushlarni kurdingiz?

Bolalar:CHumchuk,kabutar,tuti kushlarni kurdik.

Tarbiyachi:qanday qushlarni biz xozir ko‘ra olmaymiz?

Bolalar: javobi

Tarbiyachi:Nimaga ular uchib ketishgan?

Bolalar: javobi

Tarbiyachi:qanday qushlar bizning o‘lkamizda qishin xam yozin xam yashaydi?

Bolalar: javobi

Tarbiyachi: Bolalar qishda qolgan qushlar nima bilan oziqlanadi?

Bolalar: javobi

Tarbiyachi:biz ularga qanday yordam ko‘rsata olamiz?

Bolalar:javobi

Tarbiyachi: tugri aytdingiz donxuraklar yasaymiz endi aytingchi donxo‘raklarni qayerga ildirishimiz mumkin?

Bolalar:javobi

Tarbiyachi: kelinglar bolajonlar xozir sizlar bilan qiziqarli o‘yin o‘ynaymiz. Doskaga xar biringiz kelib birtadan qush tanlang va o‘sha qushning surati bor stolga borib o‘tiring.





Tartib bilan xar bir bola kelib qush tanlaydi va guruhlarga bo‘linadi.

Endi bolajonlar xar biringiz guruhingizga yuklatilgan vazifani to‘g‘ri va chiroyli bajaring.

SHartlar bilan tanishtiraman.

San’at markazidagi bolajonlar qani bor maxoratingizni ko‘rsatib plastelin va shishkalardan qushcha yasab ko‘ramiz.



Qurish-yasash markazidagi bolajonlar sizlar qushlar uchun donxo‘rak yasaymiz.



Savodga o‘rgatish markazidagi bolajonlar, qarang sizlarda qanday chiroyli daraxt bor, daraxtda o‘tirgan qushlar nomini bilasizlarmi?

Bolalar: Haa.

Tarbiyachi: Yaxshi unda ular nomini bosma harflar bilan yozamiz.

Stol ustida tayyor bosma harfchalar bo‘ladi.

Matematika markazida: Tarbiyachi: sizlarda juda ko‘p surat bo‘laklari bor ekan. Qani ularni kim yig‘ib suratni hosil qiladi.Suratni hosil qilish uchun raqamlardan foydalanasiz.Agar siz raqamlardan tugri foydalana olmasangiz kanaka surat ekanligini aniklay olmaysiz (kushlarni butun surati va bulaklangan holati).

Bulbul ovozi eshitiladi. Bolajonlar bu qanday ovoz?

Bolalar: bulbul ovozi

Tarbiyachi: endi guruhlar o‘rin almashish vaqti keldi degani bu. Qani ishimizni tugatib o‘rnimizni almashtiramiz.

Bolalar to‘rt guruhning to‘rt markazida ham ishlaydilar.

Ish jarayonida tarbiyachi bolalardan qushlar haqida she’rlar so‘raydi.

Ularga topishmoqlar berib, ruhlantirib turadi.

Mashg‘ulot yakunida bolajonlar ishlari ko‘rsatilib, har bir bolani maqtab, rag‘batlantirib boriladi. Mashg‘ulot davomida faol qatnashgan bolalar alohida aytib o‘tiladi.



Tarbiyachi: Bolajonlar bugungi o’yinlarimiz sizlarga yoqdimi?

Bolalar: xa!!!

Tarbiyachi: Endi kayfiyatimizni yanada a’lo qilishimiz uchun qushlar xaqqidagi qo‘shiqni kuylab hammamiz raqsga tushamiz! “Hakkalar” qushigi eshittiriladi.

Fevral oyining 1-haftasi

Mashg‘ulot: Tabiat bilan tanishtirish.

Mavzu: Piyoz va sabzi ekish.

Maqsad: Bolalardagi o‘simliklar haqidagi bilimlarini va tasavvurlarini muqammallashtirish,bolalarda tasavvuriy fiqrlashni, to‘liq va to‘g‘ri so‘zlashni o‘rgatish. O‘simliklarga bo‘lgan g‘amho‘rligini, mehrini oshirish va ularni parvarishlash haqidagi ma’lumotlarni berish.Mayda matoriqani rivojlantirish,tilga bo‘lgan qiziqishini oshirish,bolalar lug‘atini yangi so‘zlar bilan boyitish.Jamoada ishlash orqali bir-biriga bo‘lgan do‘stona munosabatini yanada mustahqamlash. Jihozlar:Ochiq maydon, sabzavotlar, sabzi va piyoz, Maydoncha er uchastkasi, qum,fialqa guli , banqa, suv.

Mashg‘ulotning borishi:

Tarbiyachi: Bolajonlar hozir o‘lkamizda qaysi fasl?

Bolalar: Qish!

Tarbiyachi: To‘g‘ri, qishning qaysi oyi?

Bolalar: fevral

Tarbiyachi: fevral qishning nechanchi oyi?

Bolalar: 3chi

Tarbiyachi: Qishning nechta oyi bor?

Bolalar: Uchta.

Tarbiyachi: Ular qaysilar? Qani sanab o‘taylikchi?

Bolalar: Dekabr, yanvar, fevral.

Tarbiyachi: To‘g‘ri,bolajonlar,bugun qanday hafta kuni?

Bolalar: CHorshanba

Tarbiyachi: hafta kunlarini sanab beringlarchi.

Bolalar: Dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba, juma, shanba, yakshanba.

Tarbiyachi: Bolalar hafta kunlarini yana qaysi tillarda bilasizlar?

Bolalar: Rus va ingliz

Tarbiyachi: Qani unda sanab beringlar chi!

Bolalar: Ponedelniq, vtorniq, sreda, chetverg, pyatnitsa, subbota, voskresene.

Tarbiyachi: juda yahshi endi ingliz tilida

Bolalar: Monday, Tuesday, Thursday, Wednesday, Friday , Saturday , Sunday.

Tarbiyachi: Bolajonlar qish fasli tugayotgan bo‘lsada, havo hali sovuq. Kelinglar bugungi mashg‘ulotimizni har kungidan farqliroq boshlaymiz. Qani hamma ochiq maydonchaga kelsin-chi, qo‘llarimizdan mahkam ushlab katta doira yasaylikchi!!!

(Bolalar katta halqa bo‘lib turishadi)

Tarbiyachi: qani ana endi har birimiz navbatma navbat o‘ng tomondagi sherigimizga eng ezgu tilaklarni bildiramiz.

Bolalar navbat bilan tilak bildirishadi.

Tarbiyachi: Bolajonlar bu tilaklardan ko‘nglimiz dilimiz isib, yorishib ketdimi?

Bolalar: ha.

Tarbiyachi: bolajonlar, endi men sizlarga topishmoq aytaman, diqqat bilan tinglang. Qani qaysi biringiz to‘g‘ri javob bera olasiz.

YAshil rangli aka-ukalar jo‘yada yotishar,

uzib olib tishlasangiz qarsillab ketishar

Bolalar: bodring.

Tarbiyachi: juda to‘g‘ri. Tarbiyachi shu asnoda sabzavotlar haqida topishmoqlar berib o‘tadi.

Bolalar: Bolalar javobi

Tarbiyachi: Juda to‘g‘ri bolajonlar. Endi aytinglar-chi bu topishmoqlar nimalar haqida edi.

Bolalar: javobi.

Tarbiyachi: to‘g‘ri, sabzavotlar haqida. Kelinglar bir o‘yin o‘ynaymiz. “sehrli haltacha”. Bu haltachamiz ichida juda qo‘p sabzavotlar bor. Kelinglar hozir ko‘zimiz yumuq holda haltachamiz ichidagi sabzavot haqida ma’lumot beramiz, o‘rtoqlarimiz esa topishadi.

(har bir bola chiqib, sabzavotni haltacha ichida ushlab, uni shakli,rangi, ta’mi haqida ma’lumot beradi. Qolganlar esa gap nima haqida ketayotganini aniqlab aytishadi.)

Tarbiyachi: Juda yaxshi. Hammangiz yaxshi uddaladingiz. Endi yana bir topishmoq :

o‘n qavat to‘nli bobo, har ovqatda bor bobo,

to‘nini echar bo‘lsang ,ko‘zingni yoshlar bobo.

Bu qanday sabzavot?

Bolalar: piyoz!!!!

Tarbiyachi: to‘g‘ri, qani hamma yonidagi piyozchasini qo‘liga olsin. Endi uni kaftimizda dumalatamiz. Uning shakli qanday?

Bolalar: bolalar javobi.

Tarbiyachi: Juda to‘g‘ri , aylana. rangichi ? qanday ranglarda bo‘lishi mumqin eqan ? Bolajonlar, piyozning ta’mi qanaqa bo‘ladi?

Bolalar: Bolalar javobi.

Tarbiyachi: Juda to‘g‘ri, lekin u achchiq bo‘lishiga qaramay bizning organizimimizga juda katta foyda keltiradi. Endi esa, sabzini olamiz. Uni kaftimizda dumalatib ko‘ramiz. Dumaladi? Uning shakli qanaqa eqan?

Bolalar javobi.

Tarbiyachi: sabzining foydali xususiyatlarini aytib beradi.Bolajonlar, sabzi va piyoz qanday etishtiriladi? Qim aytadi?

Bolalar javobi.

Tarbiyachi: yahshi, to‘g‘ri bu sabzavotlar yerda o‘sadi. Uning yahshi o‘sishi uchun nimalar kerak?

Bolalar javobi.

Tarbiyachi: to‘g‘ri, suv, havo, er, quyosh nurlari kerak. Ularsiz biror o‘simlik o‘smaydi.

Suvning muhimligini ko‘rishimiz uchun bir tajriba o‘tkazamiz.

Suv hayot manbai, tarbiyachi bankadagi suvni bolalarga ko‘rsatadi. Uni rangsiz, toza va hidsizligini aytib beradi. Suvni so‘lib borayotgan gulning tuvak tagidagi likopchaga kuyadi (tajribada Fialka guli) Gul 5-6 daqiqada jonlana boshlaydi.

Nima sodir bo‘ldi?

Bolalar: Bolalar javobi.

Tarbiyachi: shuning uchun bolajonlar suvning har bir tomchisini asrashimiz kerak. Ana endi kelinglar sizlar bilan birgaliqda, bu piyoz va sabzilarimizni bog‘chamizning bizga tegishli yer maydochamizga ekamiz. Bolalar navbat bilat o‘z sabzavotlarini ekishadi..

Tarbiyachi: endi ulardan, xabar olib turishimiz, ularni parvarishlab turishimiz zarur.

Tarbiyachi: Qaranglar bolajonlar mening qo‘limlagi idishda nima bor ekan?

Bolalar: qum

Tarbiyachi: Bu qanday qum?

Bolalar: bolalar javobi.

Tarbiyachi: qum turlari haqida gapiradi. Kelinglar biz sizlar bilan qum bilan ekkan sabzavotlarimiz rasmni chizamiz.

Bolalar hovuchlab qumni olib, sepish yordamida sabzi va piyozni chizishadi.Mashg‘ulot yakunida bolajonlar ishlari ko‘rsatilib, har bir bolani maqtab, rag‘batlantirib boriladi. Mashg‘ulot davomida faol qatnashgan bolalar alohida aytib o‘tiladi.

Fevral oyining 2-haftasi

Mashg‘ulot: Tabiat bilan tanishtirish

Mavzu: Tajriba: “Elektr haqida tushuncha”.

Masad: bolalarning hiqoya mazmunini tushunishlariga erishish. Qichqintoyga chiroq orqali uylarimiz yorug ekanini tushuntirish. Elektr energiyasini tejash va undan oqilona foydalanish kerakligi haqida tushuncha berish. Kunduz kunlari chiroqni o‘chirish, yoqish tugmalarini bekorga o‘ynamasliq, undan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatish. Elektr haqida tajribalar o‘tqazish orqali bolalarda ixtirochilik qobiliyatini oshirish

Kerakli jihozlar: mavzuga mos rasmlar. Plastmas chizg‘ich junli mato qog‘oz parchalari va yaltiroq qog‘oz (falga)

Mashg‘ulotning borishi

TARBIYACHI: – Bolalar, Qanday uyni yorug‘ uy deymiz?

Chiroqni qaysi vaqtda yoqamiz?

O‘yingizda hamma honalarning chiroqlari yoniq turadimi?

Kim behuda chiroq yoqilib turishining oldini oladi?

Hozir men sizlarga bir hiqoyani o‘qib beraman. Agar uni yahshilab eshitsangiz, elektr energiyasini tejash, ya’ni isrof qilmaslik kerakligini bilib olasiz. *(Tarbiyachi hiqoyani ifodali o‘qib beradi)*

Chiroq-yorug‘liq!

Umar bilan Abdusamad bahorda olti yoshga to‘ladi. Ular qo‘shni yashaydi, bog‘chaga ham birga boradi. hozir bolalar gilam ustiga yoyilgan qizil, sariq, ko‘k legolardan uycha qurishyapti.

– Men uyimni qurib bo‘ldim. qara, chiroylimi? – dedi Umar.

– Voy, juda chiroyli uy quribsan, – dedi astoydil sevinib Abdusamad.

– Agar, uydagi hamma chiroqlarni yoqib qo‘ysam, uy yana ham chiroyli, yop- yorug‘ bo‘ladi.

– Men uydagi hamma chiroqni baravar yoqmayman. Dadam “CHiroqni o‘chirib yurgin. Elektr toqini isrof qilma!” deganlar.

–men dadang, yop-yorug‘ uyni yomon ko‘rar ekanlarda,–dedi Umar masharalagandeq.

– O‘zing yomon qo‘rasan. Mening dadam yorug uyni yahshi ko‘radi, – dedi asabiylashib Abdusamad.

– Unda nega “chiroqni o‘chirib yur!” – deydilar.

– CHiroq bekorga yonib tursa, u isrof bo‘ladi-ku, shuni ham bilmaysanmi?

– Ko‘p chiroq yonib tursa, hamma joy charaqlab ketadi, bildingmi? – dedi bo‘sh kelmay Umar.

Tortishuvga zimdan quloq solib turgan bog‘cha tarbiyachisi –Bashorat opa bolalarning yoniga qeldi va stulchalardan biriga o‘tirdi. –Umarjon, bolajonim, charaqlagan, yop-yorug‘ uyni hammamiz yaxshi qo‘ramiz. To‘g‘rimi, bolajonlar? Atrofda to‘planib turgan bolalar “To‘g‘ri!” deb tasdiqlashdi. Abdusamadga dadasi yahshi va foydali narsani o‘rgatibdi. Elektr tokini tejash kerak. SHunda uyimiz hamisha yorug‘ bo‘ladi.

–Tejash… nima u? - hayron bo‘lib so‘radi Umar.
– Yonib turgan ortiqcha chironi o‘chirib qo‘ysang, elektr tokini tejasang, ya’ni isrof qilmagan bo‘lasan, – dedi Bashorat opa jilmayib.
–Jo‘mraqdan oqib yotgan suvni o‘chirib qo‘ysak, suvni tejagan bo‘lamiz-a, Bashorat opa? – dedi Munisa.
– Barakalla, shirin qizim! Suv, elektr toki, ovqatlarimizni pishiradigan, choyimizni qaynatadigan tabiiy gaz bizga berilgan ulug‘ ne’matlardan biridir. Ularni isrof qilmay, tejab ishlatish kerak. Sizlar chiroyli odatlarga amal qilishni yahshi qo‘rasizmi?
– Men yahshi qo‘raman, – dedi Umar.
– Men ham, – dedi ko‘zlari chaqnab Hasan.
Guruhdagi boshqa bolalar ham quvnoqlik bilan ularning gapiga qo‘shildi.
– Unday bo‘lsa, kelinglar, birgaliqda qaytaramiz.
Bashorat opa dona-dona qilib, asta takrorladi:
-Chiroq-yorug‘lik! Suv-hayot! Biz hayotni, yorug‘likni yaxshi ko‘ramiz.Ularni bekorga isrof qilmaymiz! Bolalar ustozlarining so‘zlarini baland ovozda, barallaqaytarishdi. Bugun bog‘cha bolalari, ayniqsa, Umarjon elektr tokini isrof qilmasliq haqida ana shunday chiroyli saboq oldi.

Hikoya bo‘yicha savollar:

1.Umar legodan nima qurdi?
2.Qurilgan uyni qo‘rib Abdusamad Umarga nima qilishni taklif etdi?
3.Umar Abdusamadga nima deb javob berdi?
4.Bogcha tarbiyachisi bolalarga chiroqni o‘chirish haqida nima deb tushuntirdi?
–Bolalar tarbiyachi opa bilan birgalikda qanday jumlalarni qaytarishdi?
(Chiroq-yorug‘lik! Suv-hayot! Biz hayotni, yorug‘liqni yahshi qo‘ramiz. Ularni bekorga isrof qilmaymiz!)
5.Bolalar, hikoyani eshitib, qanday saboq oldingiz?
TARBIYACHI:-Sizlar bundan buyon yonib turgan ortiqcha chiroqni o‘chirib qo‘ysangiz, elektr tokini tejagan bo‘lasiz, elektr tokini tejasak, uyimizda hamisha chiroq yonib turadi. Jo‘mraqdan oqib turgan suvni ko‘rsangiz,

o‘chirib qo‘ying, shunda suvni tejagan bo‘lasiz. Suv hammamiz uchun kerakli ne’mat. Suvsiz o‘simliklar o‘smaydi, odamlar, hayvonlar usiz yashay olishmaydi. Suvni tejab ishlatsaq, hammaga etadi, tugab qolmaydi. Doimo ana shunday yaxshi odatlarga amal qiling. Bolajonlar kelinglar endi sizlar bilan elektor tajribalarini o‘tkazamiz

1-Tajriba: Bolalar o‘z o‘rinlarini egallaydilar . CHizgichni jun matoga ishqalab qog‘oz parchalariga yaqinlashtiradilar



2-Tajriba: “SHiftdagi pufakcha” deb nomlanadi bunda bolalar avvalo to‘ldirilgan pufaklarni sochga yoki jun matoga ishqalaydilar va natijani kuzatadilar.



3. Tajriba: Raqsga tushuvchi buyumlar deb nomlanadi .Bunda jun matoga yoki sochga ruchkani ishqalash va yaltiroq qog‘ozga (falgaga)yaqinlashtirib yengil harakatlantirish kerak,natijada yaltiroq qog‘oz qimirlashni boshlaydi (o‘ynashni)

Tajribalar bajarilgandan so‘ng bolalar ochiq maydonga chaqirilib qilgan tajribalari haqida suhbatlashadi.Bolalar rag‘batlantiriladi va mavzuga oid multfilm ko‘rishga taklif qilinadi.



Fevral oyining 3 haftasi

Mashg‘ulot: Tabiat bilan tanishtirish

Mavzu: Kun va tun almashinuvi (lampochka va globus bilan taqdimot quyosh sistemasi quyosh tutulishi.

Maqsad: bolalarning kun va tun ketma-ketligi, kundaliq faoliyatlarining taqsimlanishi haqidagi tasavvurlarini kengaytirish maqsadga yunaltirilgan holda tadqiqot olib borish, kuzatish bilish faoliyatini va tajriba ishini o‘tkazishga va tajriba ishini o‘tkazishga qiziqish uyg‘otish.

Kerakli jiozlar: Quyosh, oy, yulduzlar rasmi. Globus, fonar, topshiriqlar aks etgan kartochkalar.

Mashg‘ulotning borishi: Tarbiyachi: -Aziz bolajonlar, sizlarga o‘tgan mashg‘ulotlarimizda “Kenja botir” o‘zbek halq ertagini aytib bergan edim. Kelinglar, bolalar, ertakni yana bir bor eslaylik.

Qadim zamonda uch aka-uka bor ekan, to‘ngich va o‘rtancha akalar biroz maqtanchoqroq, Kenja botir bo‘lsa aqlli, mulohazali, odobli ekan. Bir kuni ular

yashaydigan yurtda odatdagidek, atrofga tun cho‘kibdi va odamlar uyquga ketibdilar. Ular uyqudan uyg‘onishsa ham tong otavermabdi, uxlayverib-uxlayverib zerikishibdi va qorinlari ochib ketibdi. Oxiri tashqariga chiqib, osmonga qarashsa, osmonda oy ham, yulduzlar ham yo‘q emish. Garchi yonma-yon turgan bo‘lsalar-da, tun zulmati bois bir-birlarini ko‘ra olmas emishlar. SHunda keksalar “ha, bundan yuz yil oldin ham huddi shunday bo‘lgan edi, quyosh, oy va yulduzlarni yana devlar o‘g‘irlab ketibdi. Kim ularni devlardan qaytarib olib keladi?” deyishibdi. Uch aka-uka ularni tutqunliqdan ozod etish uchun yo‘lga tushibdilar, ko‘p sarguzashtlarni boshdan kechiribdilar.

Nihoyat, Kenja botir o‘zining aqlli va donoligi bilan quyosh, oy va yulduzlarni qaytarib olib kelibdi va
bu yurtda vaqt yana o‘z iziga tushibdi.

Bolalar, agar quyosh, oy, yulduzlar bo‘lmasa, biz vaqtni bilishga qiynalar ekanmiz-a?

Bolalar javobi. – Bolajonlar, kelinglar, “Topgan-topaloq” o‘yinini o‘ynaymiz. Men sizlarga biror- bir vaqtni ta’riflab beraman, sizlar ta’rif bo‘yicha bu qaysi vaqt ekanligini topasizlar.

U vaqtda insonlardan oldin qushlar uyg‘onadi va bir-biri bilan suhbatlashib, sayraydi. Bu qaysi vaqt? (Tong, sahar)

– U vaqtda onalarimiz nonushta tayyorlaydilar va biz nonushta qilgach bog‘chaga kelamiz. (Ertalab)

–Mashg‘ulotlarni o‘tib bo‘lib, sayrga chiqamizva o‘ynaymiz. (Kunduz)

– U vaqtda sayrdan kelib, yuz-qo‘llarimizni yuvib, ovqatlanamiz, so‘ng biroz dam olish uchun uxlaymiz.(Kunduz)

– Uyqudan uyg‘ongach ovqatlanamiz, bu qaysi vaqt? (Kunduz)

– U vaqtda biz bogchadan uyga ketamiz. (Kechurun)

– Uyga borgandan so‘ng ovqatlanamiz va bu vaqtda barcha uyquga ketadi. Aytinglarchi, bu qaysi payt? (Tun)

Tarbiyachi o‘yin davomida bolalarga yana savollar berib boradi.

TARBIYACHI: – Bolajonlar, endi ushbu topishmoqning javobini toping:

Har kun yerga tushadi,

Ikkita sara parda.

Ikki rangda ikkovi,

Oq parda, qora parda.

Tushganda qora parda,

Oq parda berkinadi.

Oqi tushsa agarda,

qorasi chekinadi.

(Kun va Tun)

Bilimlarni mustahqamlash uchun o‘yin: “Pantomima”

Tarbiyachi bolalarni 3 tadan qilib guruhlarga bo‘lib, har bir guruhga o‘yin shartini tushuntiradi. O‘yin sharti: kun-tunni ovozsiz harakatlar bilan ko‘rsatib berish.

Bolalar bilimini tekshirish va mustahqamlash uchun savollar:

1. Siz ertalab bo‘lganini qanday bilasiz?
2. Tush bo‘lganini qanday bilamiz?
3. Bog‘chaga qaysi vaqtda kelasiz?
4. Bog‘chadan uyga qaysi paytda ketamiz?
5. Oy osmonga qachon chiqadi?

Tarbiyachi;Borakalla bolajonlar,kelinglar endi sizlar bilan markazlarda ish bajaramiz.buning uchun guruhlarga bo‘linamiz

Bolalarga (quyosh, oy, yulduz,er.)nomlari bilan guruhlarga bo‘linib oladilar bir markazda qilinadigan ishlar tarbiyachi tomonidan tushuntiriladi,

1-Fan va tabiat markazi: Bunda fonar yordamida Yerning o‘z o‘qi atrofida aylanishini tajrib



2-qurish yasash markazida quyoshni disqda quloq tozalagich yordamida hosil qilishadi hosil bo‘lgan quyoshda quloq tozalagichlar soni rangi aytiladi va soni taqqoslanadi.



3-San’at markazida bolalar kun tartibi kalendarini tuzadilar bunda har bir bolaga doira shakli beriladi .Bolalar bu shaklni 4 qismga bo‘lib 4 hil rangda tasvirlaydilar (masalan ertalabni-och pushti, kunduzini-sariq, kechqurunni ko‘k rangda, tunni qora rangda bo‘yaydi.





4 Til va nutq markazida bolalar kun tartibida qilinadigan ishlar suratlarini o‘z o‘rniga joylashtiradilar.

Bolalar markazlarda ishlab bo‘lgach tarbiyachi bolalarni ochiq maydonga chaqirib «kun va tun» o‘yinini o‘ynashadi va bolalar bilimini mustakamlash uchun mavzu yuzasidan savollar berilib rag‘batlantiriladi va mashg‘ulot yakunlanadi

Fevral oyining 4- haftasi.

Mashg‘ulot: Tabiat bilan tanishtirish.

Mavzu: «Qog‘ozning xususiyatlari»

Maqsad: Bolalarga turli hil tajribalar orqali qog‘ozning xususiyatlari bilan tanishtirish .Tajribalar davomida bolalarni matematiq bilim ko‘nikmalarini shakllantirish suhbat davomida so‘z boyligini oshirib lug‘atida yangi so‘zlarni kiritish, qog‘ozdan narsalar yasash orqali bolani mayda motorikasini rivojlantirish .

Jihoz: o‘quv qurollari, monitor, qog‘oz ishlab chiqarish jarayoni lavhasi, rangli qog‘oz, qaychi bola soniga karton, mato, yog‘och kubik, qutti, yaltiroq rangli qog‘oz bo‘laklari, yelim, oddiy qog‘oz bo‘laklari, “QANDAY?” metodik ko‘rgazmasi.

Faoliyatni olib borilishi:

Tarbiyachi: Bolajonlar kelinglar o‘yinlarimizni boshlashdan avval tetiklashib olish uchun harakatli o‘yin o‘ynaymiz. Bolalar doira shaklida turib she’rni aytib harakatlanadilar:

Little hop, little hop, hop-hop-hop.(bolalar o‘tirib turib sakraydilar)

Little frog, little frog, stop-stop-stop(bolalar to‘xtaydilar)

Tarbiyachi: Mana bolajonlar tetiklashib kayfiyatimizni yahshilab oldik, keling endi suhbatimizni davom etamiz. Bolajonlar qani shu rasmga diqqat qilingchi. (kitob muqovasini yirtib g‘ijimlab turgani tasvirlangan rasm)

Bolalar: Opajon qarang kitobni muqovasini yirtib tashlayapti axir bunday qilish mumkinmi?

Tarbiyachi: Yo‘q albatta bolajonlar, kitob bu bizning do‘stimiz, u orqali biz bilimga ega bo‘lamiz kitobni toza ozoda saqlashimiz lozim. Aytingchi bolajonlar kitoblarimiz nimadan tayyorlangan? (bolalar javobi)

- Va yana nimalar qog‘ozdan bo‘ladi?

Bolalar: Kitoblar qog‘ozdan tayyorlangan. Bundan tashqari daftar, albom, jurnallar, gazetalar ham qog‘ozdan tayyorlanadi.

Tarbiyachi: Juda to‘g‘ri aytdingiz qog‘ozdan tayyorlanadi, lekin bu qog‘ozlarimizni ishlab chiqarish uchun uning ostida juda katta mashaqqatli mehnat

yotadi. Bilasizmi bolajonlar qadimda qog‘oz bo‘lmagan. Odamlar savod chiqarish uchun daraxt po‘stloqlariga, hayvonlar terisiga, toshlarga
yozishgan. Ammo biz hozirgi kunda komil inson bo‘lib ulg‘ayishimiz
uchun barcha sharoitlarni yaratib beryaptilar shuning uchun biz ulardan oqilona foydalanishimiz kerak.

1- Qog‘oz bizga nima uchun kerak?

2-Qog‘ozdan nimalar yasaymiz?

3-Qog‘ozlar qanday ko‘rinishda bo‘ladi?

4-Namlangan Qog‘ozni ishlatib bo‘ladimi? (Bolalar javobi)

Tarbiyachi: Keling monitorga e’tiborimizni qarataylik va unda qog‘ozni qayta ishlab chiqarish jarayonlarini kuzatib ma’lumotga ega bo‘lamiz (bolalar bilan hujjatli film) Bolalar lavha haqida o‘z fikrlarini bildirishadi.

Tarbiyachi: Bolajonlar mana qog‘oz haqida ozgina bo‘lsa ham ma’lumotga ega bo‘ldingiz. Keling endi mana shu qog‘ozlar bilan tajribalar o‘tkazamiz

1- Tajriba: «Qog‘ozni g‘ijimlash» mashqi



Bu tajribada qog‘ozdan nima qilish mumkin va yog‘ochdan nima qilish mumkin ekanligini tushuntirib qo‘g‘irchoq «Bilag‘on» bolalarga qog‘ozni g‘ijimlashni aytadi buni bajarish osonmi,- deb so‘raydi.So‘ng yog‘och kubikni g‘ijimlashni taklif etadi.

Bolalar : Daraxtdan tayyorlangan kubik qattiq-mustahkam, qog‘oz esa mustahkam emas, yumshoq, uni g‘ijimlash mumkin. (deb javob berishadi.)

2 -Tajriba: «Turli qog‘ozlarni taqqoslash»



Bunda bolalarga qog‘ozning 2 turi ko‘rsatiladi: karton qog‘oz va oddiy qog‘oz
Tarbiyachi bolalarga avval oddiy qog‘ozni qirqishni aytadi (Bolalardan qanday qirqilganini so‘raydi)



Bolalar: Qog‘oz oson va tez qirqildi (deyishadi)
So‘ng karton qog‘ozni qirqishlarini aytadi (bolalar qirqib ko‘rishadi)
Tarbiyachi : karton qog‘ozni qanday qirqdingiz?
Bolalar ; karton qog‘ozni qirqishda biroz qiynaldik chunki qattiq ekan .
Tarbiyachi: demak bolajonlar karton qog‘ozdan qalin ekan.
3-Tajriba «Qog‘ozni yirtish »Bunda qo‘g‘irchoq «Bilag‘on « bolajonlarga ikki xil

ashyo : mato va qog‘oz ko‘rsatilib qog‘ozni yirtishni aytadi (bolalar tezda yirtib bo‘laklarga bo‘ladilar qog‘oz tez va oson bo‘laklarga bo‘linadi)

Matoni yirtishni buyuradi (bolalar yirtishga qiynaladi)

Bolalar fikri so‘raladi

Tarbiyachi: Demak bolajonlar mato qog‘ozdan mustahkam ekan .

Kelinglar bolajonlar tajribalarimizni markazlarda davom etamiz.Buning uchun biz to‘rt guruhga bo‘linishimiz kerak ,kelinglar qor bo‘ron o‘yini orqali guruhlarga bo‘linamiz

(Bolalar g‘ijimlangan qog‘ozlarni bir birlariga otadilar muziqa tuhtagach birtadan qor parchasini qo‘llariga olib qog‘ozni ochib qaraydilar Qog‘ozda qaysi markaz belgisi chiqsa shunga qarab markazga bo‘linib oladilar .)

Tarbiyachi markazlarda bajaradigan ishlarini tushuntiradi.

1-Qurish yasash markazida: Origami usuli bilan elpig‘ich yasaydilar.



2-San’at markazida: Tajriba «Qog‘ozni yelimlaymiz »

bo‘laklarga bo‘lingan qog‘ozni yelimlab butun holatiga qeltiradilar (Bu bilan bolalar qog‘ozli buyumlarni yelimlash mumkinligini bilib oladilar)

3-Til va nutq markazida : Tajriba «Uchar qog‘ozlar»

Bu markazda Qo‘g‘irchoq « Bilimdon» bolalarga etarli rangdagi yaltiroq qog‘oz bo‘laklarni ko‘rsatib .Bolalar mana bu yaltiroq qog‘ozlar ucha oladimi? (Bolalar javobi)

Tarbiyachi : Kelinglar uni tajribada sinab ko‘ramiz .

Buning uchun bizga karton yashik va elpig‘ich kerak deb stol ustiga yashiqni quyib ichiga yaaltiroq qog‘oz bo‘laklarini soladi, so‘ng bolalardan yaltiroq qog‘ozlarning rangini ingliz tilida so‘raydi

Masalan: Savol: what it is color?-buning rangi qanaqa?

Javob: It is red. –bu qizil rangda.

So‘ng bolalar elpig‘ich bilan shamol qiladilar turli rangdagi yaltiroqlar har tomonga uchib ketadi .Bu tajriba bolalarga juda yoqadi.

Tarbiyachi :bolalar kesma yaltiroq qog‘ozlar juda yengilligi uchun shamol bo‘lganda uchar ekan



4-Syujetli va rolli o‘yinlar markazi: «Kuylovchi va shiqirlovchi qog‘oz» deb nomlanadi.

Bu o‘yinda guruh bolasi ikkiga bo‘linadi 1chi guruh turli hil qog‘ozni olib qir yuvgandeq ishqalaydi va bu qog‘ozlardan chiqgan ovazga 2chi guruh birin ketin ya’ni 1- yuz harakati 2-qo‘l harakati ,3-gavda harakati, 4-oyoqlarni harakatga keltirib raqsga tushadilar. YAna guruh almashib shu mashq bajariladi.

Tarbiyachi : Ko‘rdingizmi bolajonlar ishqalangan gijimlangan qog‘oz ovoz

chiqarar ekan .

Barcha bolalar markazlarda tajribalarni bajarib bo‘lgach ochiq maydonga chaqirib markazlarda nima ishlar bajarganlarini so‘rab «QANDAY» metodi orqali bolalalarga savollar berib baliq qiltig‘ini

bergan javoblar bilan to‘ldiradi va bolalarni bilimini mustahkamlab bolalarni rag‘batlantiradi.

Tadqiqot hulosalari:

1.Qog‘oz xususiyatlariga ko‘ra yupqa va qalin bo‘ladi .

2.Qog‘oz mustahkam va mustahkam emas .

3.Qog‘oz suvdan qo‘rqadi.

4.Qog‘ozdan ko‘ra mato pishiq.

5.Qog‘oz qaychi yoki mato bilan qirqilishi mumkin.

6 Qog‘oz g‘ijimlanganda tovush chiqaradi .

7.Qog‘ozdan o‘yinchoqlar qilish mumkin .

8.Qog‘oz shamol bo‘lganda uchib ketadi .

9.Qog‘ozni yopishtirish mumkin.

Mart oyining birinchi haftasi

Mashg‘ulot:Tabiat bilan tanishtirish.

Mavzu: Maktabgacha ta’lim muassasasi hududida soya tutish.

Maqsad: Bolalarni tabiat hodisalariga bo‘lgan hodisalarga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otishi bolalar bilan quyoshdan tushgan nurning soyasini kuzatish orqali bolalarni harakati va diqqatini muvofiqlashtirish. Soyani tutishga doir turli xil o‘yinlar o‘ynashi orqali quvonchli muhitni yaratish. Soya haqida tushunchaga ega qilish.

Jihoz: Kubiklar, quyosh momo, bolalar soniga ko‘zgular, daraxt ko‘chatlari mehnat qurollari.

Bolajonlar sayrga chiqishni xohlaysizmi?

Bolalar: Albatta xohlaymiz.

Tarbiyachi: Keling bugun biz siz bilan toza havoda turli hil o‘yinlar o‘ynaymiz (bolalar guruh maydonchasiga olib chiqiladi)

Tarbiyachi: Bolajonlar hozir o‘lkamizda qaysi fasl? (bolalar javobi)

Tarbiyachi: Bahor faslining qaysi oyi? (bolalar javobi)

Tarbiyachi: Juda to‘g‘ri bolajonlar bahor fasli kelishi bilanoq tabiatimiz uyg‘ona boshlaydi, yerdan maysalar unib chiqadi, issiq o‘lkalarga uchib ketgan qushlar yurtimizga uchib kela boshlaydi, tog‘dagi qorlar quyosh nurida eriy boshlaydi havo isishi bilan uyquga ketgan jonzotlar uyqudan uyg‘onadi.

Hozir sizga topishmoq aytaman sizlar o‘ylab fikrlab javob bering. Kessa kesilmas, chopsa chopilmas.

Quyosh momo paydo bo’ladi.

Quyosh momo: Salom meni aziz bolajonlarim men Quyosh momo bo‘laman bahor fasli kelishi bilanoq meni o‘z nurlarimni o‘lkamizga ko‘proq sochishga oshiqaman. Bugun men sizlarga o‘z nurim bilan bog‘liq bir qancha o‘yinlar olib keldim shuni sizga topshirib ketaman. (qo’lidagi xaltachani tarbiyachiga topshirib ketadi)

Tarbiyachi: Demak bolajonlar bugun biz Quyosh momomiz bilan bog’liq soya tutish mavzusida suhbatlashib, o‘yinlar o‘ynab, tajribalar o‘tkazamiz. Qarang

bugun ob – havo qanday? (bolalar javobi)

Tarbiyachi: Bolajonlar quyoshning xususiyatlari va foydali tomonlari juda ko‘p , quyoshning nuridan jamiki jonli tabiat bahra oladi unib o‘sadi. Quyoshli kundagina biz o‘z soyamizni yoki biror predmetni soyasini ko‘rishimiz mumkin. Aytingchi biz qanday kunda o‘z soyamizni ko‘rmasligimiz mumkin?

(bolalar javobi)

Tarbiyachi: Juda to‘g‘ri aytdingiz qachonki osmonni bulut qoplasa bizga biror bir narsani soyasi ko‘rinmaydi.Keling bolajonlar atrofimizdagi daraxtlar va jihozlarni soyasini kuzatamiz

(Bolalar kuzatadilar)

Tarbiyachi: Bolajonlar soya bu o‘zi nima?

U qanday hosil bo‘ladi?

Bolalar fikri so‘raladi

Tarbiyachi: Keling bolalar endi quyosh momo keltirgan xaltacha ichidagi o‘yinlarni tanlab birma bir bajaramiz (deb bir bolani chaqirib o‘yinni tanlab berishni aytadi)

1. O‘yin: «Soyasidan top»



Bu o‘yinda bolalarga turli xil predmetlar suratlarining soyasi ko‘rsatiladi bolalar esa uni nima ekanligini topib aytadilar o‘yinni o‘ynab bo‘lgach tarbiyachi yana savol beradi.

Bolajonlar har bir predmetni soyasi bor ekan, soyasi yo‘q narsalar ham bormi?

Bolalar javobi:

Tarbiyachi: Juda to‘g‘ri bulardan tashqari shamol havo,quyosh,oy va yulduzlarning soyasini ko‘ra olmaymiz chunki havo ko‘rinmas bo‘lsa quyoshni nurlari soyani hosil qiladi.

(Yana bir bola o‘yinni tanlaydi)

2. O‘yin:«Kim ko‘p soya tutadi»

Bu o‘yinda bolalar doira shaklida turadilar kubiklar doira ichida terib chiqiladi Bolalar muziqa ostida raqsga tushadilar muziqa to‘xtagach bolalar kubiklar soyasiga turib olishlari kerak. O‘yin oxirigacha qim etib bor o‘sha ko‘p soya tutgan hisoblanadi.

Tarbiyachi: Bolajonlar bu o‘yin orqali bir joyda turgan predmetni soyasini tuta



olishini bilib oldik.Keling endi yana bir o‘yinni tanlaymiz.YAna bir bola chiqib o‘yin tanlaydi.

3-o‘yin “Harakatdagi soyani tut” deb nomlanadi bu o‘yinda bolajonlar sizni harakatdagi soyangizni qanday tutishingizni sinab ko‘ramiz.(Bunda bolalar 2 juft bo‘lib bir birlarini soyasini tutishga harakat qiladilar va bu o‘yin bilan harakatdagi soyani tutish mushkul ekanligini tushunib oladilar) Tarbiyachi: Bolajonlar o‘yinlar qiziqarli bo‘ldimi?

Bolalar :Ha albatta qiziqarli bo‘ldi

Tarbiyachi: Bolajonlar kelinglar endi biz o‘yinlarimizga sababchi bo‘lgan quyoshni nurlarini kuzatamiz

(Bolalar quyoshga qarashga harakat qiladi)

Tarbiyachi: Bolalar nurlarimiz ko‘rinadimi?

Bolalar : Yo‘q

Tarbiyachi:Sababi

Bolalar: Quyosh ko‘zimizni qamashtiradi.



Tarbiyachi :Bilasizlarmi bolajonlar quyosh nurlari hohlagan joyiga bora oladi,hattoqi soyaga ham quyosh nurlarini qura olamiz.Buning uchun bizga oddiy quzgu kerak buladi

(deb quzgu bilan quyosh nurini tutib soyada yurgizamiz)

Bolalar quzatib ular ham shu tajribani bajarishadi.

Tarbiyachi: Bolajonlar yozning issiq kunlarida quyoshning tik nurlaridan bizni nima asraydi?

Bolalar javobi: Soya!

Tarbiyachi: Juda to‘g‘ri aytdingiz biz sizlar bilan qanday soyalarni hosil qilishimiz mumkinki ulardan nafaqat biz, balki boshqalar ham foydalana olsin.

Bolalar javobi:

Tarbiyachi:juda to‘g‘ri bolajonlar gulchambarlar daraxt ko‘chatlarini ekib soyalar yaratishimiz mumkin.shuning uchun kelinglar bugun biz sizlar bilan olma ,o‘rik, shaftoli daraxt ko‘chatlarini ekamiz.Bu ko‘chatlar katta bo‘lganida nafaqat bizlarni balkim atrofdagi barcha mevali hosili,salqin soyasi ,mayin shabodasi va havoni tozalovchi xususiyati bilan foydasi tegadi.

Ko‘chat ekib bo‘lindi

Tarbiyachi :Bolajonlar qaranglar quyosh charaqlab turibdi, hozir biz sizlar bilan quyosh momo yordamida turli predmetlarning tasvirini chizamiz, qanday qilib deysizmi?

Asvaltga o‘yinchoqni qo‘yib uning soyasini qonturlab olamiz.Qaranglar bolajonlar quyosh nurlari orqali hosil bo‘lgan soyadan men qo‘g‘irchoq tasvirini chizdim. Qani sizlar ham o‘rinib ko‘ringchi (tarbiyachi bolalar qo‘liga bo‘r berib chiqadi va bolalar ishini kuzatadi so‘ng

bolalar rag‘batlantiriladi)

Mart oyini 2- haftasi

Mashg‘ulot: Tabiat bilan tanishtirish.

Mavzu: Tajriba «Muzlatish»

Maqsad: Suv haqida ma’lumot berish uni asrashga isrof qilmaslikga o‘rgatish, suvning xususiyatlari bilan tanishtirish, amaliyotlar o‘tkazish suratlar orqali ishlash,muz va suvning farqiga borishga o‘rgatish.

Jihoz:

Faoliyatning borishi:Bolajonlar topishmoq eshitishni hohlaysizmi? Unda diqqat bilan tinglang

1 Oyni ko‘rdim yaltiroq

Tagi nuqul qaltiroq. (Muz-suv)

2 Sovuq olmos

Qo‘lga olmas

Yozda hech kim

Topa olmas. (Muz)

Tarbiyachi :Bolajonlar juda to‘g‘ri topdingiz dyemak bugun biz sizlar bilan birgaliqda Muzlatish haqida suhbatlashamiz va tajribalar o‘tkazamiz. Men bugun o‘zim bilan muz olib kelgan edim.Bilmaysizlarmi u qayerga g‘oyib bo‘ldi?

Bolalar: erib ketdi

Tarbiyachi : Ha xonamiz issiq bo‘lgani uchun muz erib ketdi va suvga aylanib qoldi.Suv sovuq havo tufayli muzga aylanar eqan. Suvni qaynatib ko‘rsak qanday holatga kelar ekan

Bolalar : Bug‘ga aylanadi deyishadi

Tarbiyachi :Suvni choynakda qaynatadi va bolalarga undan chiqadigan bug‘ni kuzatishlarini aytadi.

(Suv qaynaganda baqir buqur tovush chiqaradi va pufaklar hosil bo‘lishini quzatadi tarbiyachi qaynab turgan suvning ustiga oyna qo‘yadi va uning ustida hosil bo‘lgan suv tomchilarini bolalarga ko‘rsatadi

Tarbiyachi: Bolalar oynada nima hosil bo‘ldi?

Bolalar Suv tomchilari.

Tarbiyachi: To‘g‘ri bug‘ suvdan iborat .Sizlar o‘yingizda ham kuzatganmisiz?

Bolalar: Ha choy va ovqat qaynaganda bug‘ chiqishini kuzatganmiz

Tarbiyachi juda to‘g‘ri aytdingiz mana shu bug‘lar osmonga ko‘tarilib qaytib yerga yomg‘ir tomchilari bo‘lib yerga tushadi, havo soviy boshlagandan so‘ng bu yomg‘irdan hosil bo‘lgan ko‘lmak suvlari muzga aylanadi mana shu tariqa tabiat moddalarining davriy aylanishi kuzatiladi

(Masalan suvni bug‘ bo‘lib osmonga chiqishi va qayta yomg‘ir va qor bo‘lib yerga tushishi)

Tarbiyachi: Bolajonlar hozir men sizlarga «Tomchi « haqida ertak aytib beraman

Ertak qahramonlarini suratlar orqali ko‘rsataman.



Bir bor ekan bir yo‘q ekan bitta tomchi bo‘lgan ekan. Tomchi onasi ukasi va singlisi bilan yashar eqan bir kuni ular o‘ynab yurishganida birdan quchli bo‘ron turib qattiq sovuq tushibdi shamol tomchilarini osmonga uchirib yuboribdi tomchilar tepaga chiqgani sari savuqdan muzlab qorga aylanib qolishibdi qorga aylangan tomchilar yengil bo‘lib yanya yerga tushishibdi. Tomchi uqasi singlisi bilan yerga yaqinlashganda shamol boshlanibdi. Qor parchasiga aylangan tomchilar shamol ta’sirida muzga aylanib qolishibdi, muzlab qolgan tomchilar o‘zining bu holatidan zerikib o‘tirganida zum o‘tmay bulutlar orasidan quyosh mo‘ralabdi.



Quyosh nuri muzlarni eritib tomchilarni o‘z holatiga qaytaribdi.



Bundan quvongan tomchilar issiq quyosh nuridan bug‘ga aylanib onalarining oldiga chiqibdilar.

Tarbiyachi: Mana ko‘rdingizmi bolajonlar sovuq natijasida birgina tomchimiz qanday ko‘rinishlarda bo‘lar ekan. Kelinglar bolajonlar sizlar bilan bugun mana shu muz parchalarini turli markazlarda ishlab yasashga harakat qilamiz. Buning uchun biz hozir “ob-havo holati”o‘yini orqali guruhlarga bo‘linib olamiz

(Stol ustiga ob-havo holati suratlari to‘nkarilib qo‘yilgan bo‘ladi, bolalar esa ingliz tilida o‘rgangan ob-havo haqidagi she’rlarini aytib surat tanlab oladilar va shu orqali guruhga bo‘linadilar.



She’r:Days-kunlar, turli ular

Sunny –quyoshli ,kun kular.

Kun ko‘rinmas uncha quvnoq

Bo‘lsa Thunder –momaqaldiroq

Ammo kunlar Happy –quvnoq

YUzing kulib tursa har chog‘.

Hatto yog‘sa Rain-yomg‘ir

YO Wind –shamol essa g‘ir g‘ir

YO Cold –sovuq bo‘lsa takror

YOki yog‘sa Snow -qor

Tarbiyachi :Mana bolajonlar guruhlarga bo‘linib oldik.Endi guruh bo‘lib o‘zingiz xohlagan markazga yo‘l olasiz

(Bolalar markazlarda ish bajaradilar)

1 San’at markazida : Bolalar plastilin va quloq tozalagich bilan qor parchasi yasaydilar



2 Matematika markazida: Bolalar turli xildagi shakllardan muz parchalarini yasaydilar



3. Ilm-fan va tabiat markazida: Rangli muz hosil qilishadi (Bunda bolalar idishlardagi muzlarga turli rangdagi buyoqlardan sachratadilar so‘ng uni xona haroratida buyoqlarni muzga singib borishini guzatadilar.



4 Nutq markazida: Bolachalarni mavsumga mos qiyinliradilar





Barcha markazlarda bolalar ishlab bo‘lgach bolalarni ochiq maydonga taklif qilib «Zinama –zina» metodi orqali bolalar bilimi mustahqamlanadi.







Mart oyini 3 haftasi.

Mashg‘ulot: Tabiat bilan tanishtirish.

Mavzu: Bug‘doy ekyapmiz!

Maqsad: Bolalarni bug‘doy haqidagi tushunchalarini keng bug‘doyni non bo‘lgunga qadar bo‘lgan jarayonini o‘rgatish amaliy ishlar bajarish orqali bolalar mayda motorikasini rivojlantirish, sahnalashtirish orqali bolalarda aktyorlik qobiliyatini uyg‘otish.

Jihoz: Robenzon Kruzo o‘rmonda hikoyasi sahnasi uchun jihozlar : daraxtlar, 3 qutticha tuproq, bug‘doy , bug‘doy boshoqlari, undirilgan maysa, guruch, chambarak, rangli qog‘oz yelim naychalar, qaychi, suratlar

Faoliyat olib borilishi: Bolajonlar bugun biz sizlar bilan «Bug‘doy ekyapmiz» mavzusida suhbatlashamiz.

- Aytingchi bolajonlar bug‘doy bu sizningchi nima? (bolalar javobi)

Tarbiyachi: Juda to‘g‘ri aytdingiz bug‘doy bu non demakdir, bug‘doy nonni dasturxonimizning eng qadrli noz ne’matidir. U insoniyat hayotining sog‘lom rivojlanishi uchun vitaminlarga boy insonning qadimdan ochlikdan saqlab qolgan beminnat rizqu nasibasidir. Keling hozir chet el sayohatchisi Robenzon Kruzoning o‘rmonda qanday kun kechirgan hayoti haqidagi sahna ko‘rinishini tomosha qilamiz. (Bu sahnada Robenzon Kruzoni hayotda qiynalib topgan noni haqidagi sahnani tomosha qilamiz. Bu sahna orqali bolalar bug‘doyni ekish, maysa unishi, bug‘doy boshog‘i holatiga kelishini kuzatadilar.

Tarbiyachi: Ko‘rdingizmi bolajonlar Robinzon Kruzo hayotda yashash uchun kurashdi U bir dona bug‘doy urug‘ini ekdi uni asrab parvarishlab bug‘doyzorni kengaytirdi hosilini yig‘ib terib, un qilib, non tayyorlab, uni yeb, chekka orolda kun kechirdi. Ko‘rdingizmi bolajonlar bug‘doyni yetishtirib non holatiga keltirguncha uning ortida qancha mehnat yotar ekan Kelinglar yana bunga ishonch hosil qilish uchun diqqatingizni monitorga qaratamiz. (Bolalarga bug‘doyni non holatiga kelgunga qadar bo‘lgan jarayonni ko‘rsatiladi.)



Mana jarayonni tomosha qildik keling endi sizlar bilan markazlarda ish olib boramiz. Bolalar sizlar bilan 4 ta markazda ish olib boramiz. Buninig uchun biz, rangli kapalaklarni tanlash orqali guruhlarga bo‘linib olamiz bolalar musiqa ostida o‘zlari yoqtirgan rangli kapalaklarni tanlab, 4 guruhga bo‘linadilar va o‘zlari yoqtirgan markazga yo‘l oladilar.

1-Sanat markazi: Bolalar bug‘doy boshog‘ini rangli qog‘oz va naycha yordamida yasaydilar. (Yasash davomida bug‘doyning foydali tomonlari, shakli rangi haqida so‘raladi)



2-Qurish yasash markazida bolalar aralashgan guruch va bug‘doyni alohida likopchalarga ajratadilar

(Bu bilan bolalarni mayda motorikasi rivojlanadi va bu bilan birga ajratgan bug‘doylari bir birlarinikidan taqqoslaydilar.





3-Nutq markazida :Bug‘doyni non holatiga kelguniga qadar bo‘lgan jarayonni suratlarini tartib raqamiga qarab joylashtirishadi. Bu o‘yin orqali bolalarning nutqi rivojlantiriladi)

4. Tabiat markazida : Bolalar bug‘doyni ekadilar va uni unib o‘sishini hafta davomida kuzatadilar.



Har 5 minutda tarbiyachi signali orqali bolalar o‘rin almashadilar.

Barcha guruhlar markazlarda ishlab bo‘lgach bolalar ochiq maydonga taklif yetiladi va FSMU metodi yordamida bolalar fikri umumlashtiriladi

F-Fikrlarini bayon qiladi.

S-Sababi so‘raladi.

M-Misollar keltiriladi.

U-Umumlashtiriladi.

Tarbiyachi tomonidan bolalar rag‘batlantiriladi mashg‘ulot yakunlanadi.

Mart oyining 4-haftasi.

Mashg‘ulot : Tabiat bilan tanishtirish.

Mavzu: O‘zbekiston qushlari mavzusida suhbat

Maqsad: Bolalarni tabiatga bo‘lgan qiziqishini oshirish bolalarga O‘zbekistonga uchib keluvchi va uchib ketuvchi qushlar haqida tushuncha berish, ularni tashqi ko‘rinishi ularni o‘ziga hos xususiyatlari hamda hayot tarzi bilan tanishtirish va bilimlarini mustahkamlash.

Jihoz: monitor qushlar haqida lavha, qushlar surati , matematik ko‘rgazma, rangli qalamlar, plakat

Faoliyat borishi: Tarbiyachi bolalarni o‘ziga jalb qilib sanama o‘yinini o‘ynashni taqlif etadi

Chumchuqcha uchdi

O‘raga tushdi

Iq –biq tur sen chiq

Deb o‘ynab turgan bir vaqt guruhda turli hil qushlarni ovozi eshitiladi

Tarbiyachi : Iye bolalar bu nimalarning ovozi ?

Bolalar: Bu qushlarning ovozi

Tarbiyachi : Juda to‘g‘ri aytdingiz keling “Ovozidan top” o‘yinini o‘ynaymiz Hozir men audioda qushlar ovozini eshittiraman siz esa qaysi qush ekanligini .aytasiz (Bolalarga qarg’a, bulbul, chumchuq, turna kabilarning ovozi eshittiriladi) Tarbiyachi :Juda yaxshi bolajonlar qushlar ovozini to‘g‘ri topdingiz .Bugun biz sizlar bilan «O‘yla izla top» o‘yinini o‘ynaymiz bu o‘yin orqali qushlar haqida olgan bilimlaringizni sinab ko‘ramiz va mustahkamlaymiz. Keling o‘yin o‘ynashdan avval qushlar va ularning hayoti haqida suhbatlashib olaylik.

Tarbiyachi: Bolajonlar hozir o‘lkamizda qaysi fasl?

Bolalar: Hozir o‘lkamizda bahor fasli.

Tarbiyachi: Aytinglarchi bolalar bizning O‘zbekistonga Janub tomondan qanday qushlar uchib keladi?

Bolalar: Qaldirgoch laylak, turna, bulbul.

Tarbiyachi : Bolalar nega ularni uchib kelib ketuvchi qushlar deymiz?

Bolalar: Chunki ular kuzda issiq o‘lkalarga uchib ketadi, bahorda esa uchib kelishadi.

Tarbiyachi bolalarni diqqatini ekranga qaratadi va ularga qushlar galasi lavhalarini namoyish etadi, bolalardan qaysi qush galasi ekanligini so‘rab oladi.

Tarbiyachi : Mana endi bolajonlar o‘yin o‘ynashimiz uchun guruhlarni shakllantirib olishimiz lozim buning uchun men sizga savol beraman kim javob bersa o‘sha bola o‘zi xohlagan ishtirokchilarni tanlab oladi va o‘z guruhini shakllantiradi.

1-Savol: Yomg‘ir yoqqanda qush qanday daraxtga qo‘nadi ?

2- Savol: Daraxtdagi bargni qushni cho‘chitmasdan olish mumkinmi?

3-Savol: Simyog‘ochdagi qo‘nib turgan 5 ta chumchuqga Salim tosh otgan edi 3 tasi uchib ketdi, simyog‘ochda nechta chumchuq qoldi?

4-Savol: Daraxt orasida 12 ta qushning tumshug‘ini ko‘rdim, daraxtda nechta qush bor?

(bolalar savolga javob berib o‘z guruhdoshlarini tanlab olish orqali 4 guruhga bo‘linadilar va o‘zlariga nom qo‘yadilar)

1-Qaldirg‘ochlar 2-Lochinlar

3-Bulbullar 4-Kabutarlar



Tarbiyachi o‘yin shartlari bilan tanishtiradi

1 - O‘yin: Matematikaga oid «Biz kichik hisobchilar”. Bu o‘yinda bolalar suratdagi qushlar sonini aniqlaydilar va sonlarni bir biri bilan taqqoslaydilar.

2-O‘yin:Syujetli rolli o‘yin : “Pantomima” deb nomlanadi bu o‘yinda qushlarning hatti-harakati, ko‘rinishilarini imo ishora orqali har bir guruh bir biriga tushuntirishga harakat qiladi. Boshqalar esa qush nomini topishga harakat qiladi.



3-O‘yin Tasviriy san’at bo‘yicha : «Men qushlarni sevaman» mavzusida noan’anaviy usulda rasm chizadilar (jamoa bo‘lib) so‘ng qaysi qushlarni chizganlarini aytib beradilar.



4-O‘yin: Nutq. Bu o‘yinda monitorda qushlar hayoti tasvirlangan lavha ko‘rsatiladi shu lavhaga qarab har bir guruh bir biriga o‘xshamagan qisqa hikoya tuzadilar. Har bir o‘yin so‘ngida jamoalar ishi rag‘batlantirib boriladi. O‘yin oxirida g‘olib guruh aniqlanadi va taqdirlanadi.



Aprel oyining 1- haftasi.

Mashg‘ulot: Tabiat bilan tanishtirish.

Mavzu: «Gul ochilmoqda » suv va qog‘oz bilan tajriba ishi.

Maqsad: Bolalarni tabiatga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otish tabiatdagi o‘zgarishlarni ajrata olish va tabiat go‘zalliklariga bo‘lgan ishtiyoqini shakllantirish. Gullar haqida lavhalarni ko‘rishlari orqali bolalar diqqatini va nafosatini o‘stirish Faoliyatni olib borilishi: Bolajonlar bugun ob havo qanday? Bolalar javobi: Bugun ob havo issiq chunki osmonda quyosh charaqlab turibdi. Tarbiyachi : Juda to‘g‘ri aytdingiz quyosh charaqlab turibdi. Keling shunday yaxshi kayfiyatda o‘yinlarimizni boshlaymiz. Hozir bir birimizga bo‘lgan do‘stona munosabatimizni yahshilashi uchun « Tilak» o‘yinini o‘ynaymiz. Bunda siz qo‘lda gul bilan yaxshi tilak tilab gulni do‘stingizga uzatasiz. Bolalar o‘yinni o‘ynaydilar va kayfiyatlarini yanada yaxshilab oladilar Tarbiyachi: Bolajonlar men bejizga bu o‘yinni o‘ynatmadim chunki gulni ko‘rganda odamni bahri dili ochiladi kayfiyati ko‘tariladi. Bolajonlar bugun biz sizlar bilan huddi mana shunday gullar haqida suhbatlashamiz.Sizlarga chiroyli bir surat ko‘rsataman tomosha qilishni hohlaysizmi?

Bolalar :Ha hohlaymiz

Tarbiyachi :-Qarang mana bu suratda qaysi fasl tasvirlangan?

-Erta bahorda tabiatda qanday o‘zgarishlar ?

-Bahorda birinchi bo‘lib qaysi gul ochiladi?

-Suratda qanday gullarni ko‘ryapsiz?

-Gullar nomini ingliz tilida aytadilar(

-Gullar ichidan siz qaysi gulni yoqtirasiz?

Bolalar fikri so‘raladi.

Shu payt Bahoroy Savatda gullar bilan kirib keladi bolalar bilan salomlashadi . Bahoroy: Salom mening aziz bolajonlarim men sizlarga bahor faslimni ko‘rki bo‘lgan go‘zallikda tengi yo‘q gullarimdan olib keldim . Men gullarim haqida yaxshiroq ma’lumotga ega bo‘lishingizni istayman Tarbiyachi: Bolajonlar kelinglar ko‘raylikchi Bahoroy keltirgan savatda

qanday gullar bor ekan. (gullar nomini aytib tanishtiradi) Bolalar gullarni nomi, rangi, ko‘rinishi, hidi haqida so‘zlaydilar. Tarbiyachi: Bolajonlar kelinglar toza havoda maydonchamiz gulzoriga sayrga chiqib u yerdagi chiroyli gullarimizni kuzatamiz. Buning uchun siz ketma ket turgan holda sayrga chiqamiz va yo‘l yo‘lakay gul haqidagi she’rni aytamiz:
Gul bog‘imiz chiroyli
Chaman chaman ochilgan
Bunda o‘yin quraylik
Gullar har yon sochilgan. (She’rni hamma jo‘rlikda aytishadi)
Tarbiyachi : Qarang bolalar gulzordagi gullarni ko‘rib bahru dilingiz ochiladi. Bu gullarimizning chiroyli bo‘lib ochilishida kimning hissasi bor? (Bolalar javobi)
Tarbiyachi: To‘g‘ri aytdingiz, bog‘bon bobolarimizni hissalari bor.
(bolalar diqqati gulzordagi gullarga qaratiladi) Kelinglar, gullarimizni o‘rganamiz. (Gulning poyasi, uning g’unchasi, unga hasharotlardan arilar va kapalaklar qo‘nib changlanishi oqibatida g‘uncha ochila boshlashi va quyoshning issiq taftida gullar ochilishi so‘ng mana shunday gul hosil bo‘lishini aytadi)
Keling endi bolajonlar, Bahoroy keltirgan o‘yinlarni va topshiriqlarini bajarishga harakat qilamiz.
1- O‘yin: «Kim chaqqon?» Bu o‘yinda yoyib qo‘yilgan gullarini tarbiyachi signali bilan teradilar bunda qaysi bola ko‘proq gul tergan bo‘lsa o‘sha g‘olib bo‘ladi, o‘yin jarayonida bolalarni matematik bilimlari mustahkamlanadi.
2-Bolajonlar gulzorimizdagi gullarimizni unib o‘sishida yana nimalar yordam beradi?
Bolalar: Yer, suv, Quyosh yordam beradi
Tarbiyachi: Juda to‘g‘ri suv bu jonli tabiatimizning yashashi unib o‘sishi uchun eng zarur bo‘lgan ne’mat hisoblanadi. Endi aytingchi qaysi gulimiz boshqa gullarga nisbatan suvni juda yaxshi ko‘radi?
Bolalar javobi: Nilufar gul ekanligini aytadi
Tarbiyachi: Barakalla bolajonlar, kelinglar, hozir siz bilan suv va qog‘oz bilan

tajriba o‘tkazamiz bu tajriba uchun bizga qog‘oz sochiqlar (salfetqa) va oq qog‘oz kerak bo‘ladi. So‘ng tarbiyachi idishga 2 xil qog‘ozni soladi. Qog‘oz sochiq suvga darrov bo‘kib bolalarni qo‘lida oson yirtiladi 2 chi idishdagi qog‘oz esa ho‘l bo‘ladi, ammo yirtilmaydi. Ko‘rdingizmi bolajonlar qog‘ozlarimiz ham barcha suvdan qo‘rqar ekan suvga kirsalar sifatlarini yuqotar ekanlar. Kelinglar hozir biz oddiy qog‘ozdan nilufar gulini yasab mana bu tog‘orani ichidagi suvga qo‘yamiz va uni kuzatamiz. Bolalar maydonchaga o’tib tayyorlab qo‘yilgan jihozlar yordamida nilufar gulini tarbiyachi ko‘magida taxlashadi va suvga quyishadi gul suv yuzida qalqib turadi. Tarbiyachi bolalarga qog‘ozni yengil ekanligini shuning uchun suvda cho‘kmasligini aytadi. Kelinglar bolajonlar sizlar bilan birgalikda maydonchamiz gulzoriga gullar ekib gulzorimizni ko‘rkiga ko‘rk qo‘shishga o‘z hissamizni qo‘shamiz (bolalar bilan birgalikda gulzorga rayhon, ra’no, gulsafsar hamda atirgul ko‘chatlarini ekadilar) Tarbiyachi bolalar ishini kuzatib rag‘batlantiriladi va audio diskda gullar haqidagi qo‘shiqni qo‘yadi, bolalar raqsga tushishadi

Aprel oyining 2-haftasi.

Mashg‘ulot: Teleskop bilan ishlash

Maqsad: Bolalarni diqqatini xotirasini, obrazli va mantiqiy tafakkurini rivojlantirish, do‘stlari bilan kosmos, quyosh tizimidagi sayyoralar haqidagi bilimlarini oshirish.

Jihoz: Plakat, sham, paxta, yaltiroq karton, yulduzchalar, qaychi, qalam, plastilin taglik, AKT jihozi lavhasi va ertak, samoga oid suratlar.

Faoliyatni olib borilishi: Bolajonlar bugun biz sizlar bilan teleskop va samo sirlari haqida suhbatlashamiz. Aytingchi samo deganda nimani tushunasiz?

Bolalar javobi: Samo bu osmon

Tarbiyachi: To‘g‘ri aytdingiz samodagi yulduzlarni birinchi bo‘lib qaysi buyuk olim o‘rgangan?

Bolalar javobi: Mirzo Ulugbek bobomiz

Tarbiyachi: Juda to‘g‘ri aytasiz u kishi yulduzlarning 5 ta turkumini o‘rganganlar. Ular qaysilar?

Bolalar :

- Zuhro yuldizi

-CHo‘mich yulduzi

-Katta ayiq yulduzi

-Samon yo‘li yulduzi

-Etti og‘a ini yulduzi

Tarbiyachi: Barakalla bolajonlar hozirgi kunda astronomiq olimlar osmondagi jismlarni teleskop orqali kuzatib turadilar. Kelinglar, astronomik olimlarimizni teleskop orqali kuzatishlarini monitorda tomosha qilib sayyoralar nomlarini o‘rganib olamiz. Kelinglar, biz ham o‘zimizni kichik astronomlarday his qilamizda, o‘zimizning samoni hosil qilamiz buning uchun avval 4 guruhga bo‘linib olishimiz kerak guruhlarga bo‘linishda 4 xil rangdagi pufaklar yordam beradi. Bu o‘yinda pufaklarni bir biringizga irg‘itasiz musiqa ostida musiqa tugagach, har kim o‘zi yoqtirgan pufagini tanlab oladi va pufaklar rangiga qarab 4 guruhga bo‘linib oladilar. Bolalar o‘zlari xohlagan markazga joylashadilar tarbiyachi bolalarga bajaradigan ishlarini tushuntiradi.

San’at markazida: plakatga avval sham bilan bulutlar chizib so‘ng suyiltirilgan bo’yoqqa paxtani botirib paxta bilan plakatni to‘q rang yoki qora rangga bo‘yab chiqadilar.

Qurish yasash va matematika: Oy va yulduzlarni yaltiroq kartondan chizib qirqadilar (Avval tayyor yulduzchani yaltiroq qog‘ozga qo‘yib chizadilar so‘ng qaychi bilan qirqadilar.)



Fan va tabiat markazida: Plastilindan sayyoralarni yasaydilar (bunda plastilinni dumaloq shakliga keltirib yuzasiga har hil dog‘lar qiladilar)



Til va nutq markazida: samo tasvirlangan suratlarni tomosha qilib sayyoralar nomini takrorlaydilar



Tarbiyachi har bir markazga borib bolalar ishini kuzatadi, ishlarini yakunlash uchun ochiq maydondagi stol oldiga qilgan ishlarini olib chiqishlarini aytadi (Bolalar plakatni stolga qo‘yib birma bir samo jismlarini joylashtiradilar) Tarbiyachi bolalar ishini kuzatib turib rag‘batlantiradi. Mana bolajonlar bizning samomiz ham paydo bo‘ldi. Bu sizga yoqdimi? (Bolalar fikri so‘raladi)

Tarbiyachi : bolajonlar meni juda xursand qildingiz. Kelinglar men endi sizlarni xursand qilish uchun ekranda «Samo sirlari» nomli ertakni qo‘yib beraman, marhamat tomosha qiling, deb mashg‘ulotni yakunlaydi.

Aprel oyining 3-haftasi.

Mashg‘ulot: Tabiat bilan tanishtirish:

Mavzu: Suvga ranglarni tomizish

Maqsad : Tabiatda suvning o‘ziga xos xususiyatlari bilan qiziqtirish suv va ranglar bilan tajribalar o‘tkazish orqali bolani ijodiy qobiliyatini rivojlantirish.kuzatish davomida fikrlash qobiliyatini o‘stirish.

Jihoz: Suv idishlar, suv, turli rangdagi buyoqlar, oq qog‘oz,

Faoliyatning olib borilishi: Tarbiyachi bolalar diqqatini o‘ziga jalb qilib tetiklantiruvchi mashq bajarishni aytadi va bolalarni doira shaklida saflantiradi Bolalarga o‘yin shartini tushuntiradi. Tarbiyachining signali bilan bolalar harakatlarni bajara boshlaydilar (Yurib turgan holatda)

1. Suv sepamiz - bolalar bir birlarini orqalariga barmoqchalari bilan uradilar.
2. Supuramiz - orqalarini siypalaydilar.
3. Yomg‘ir yog‘di - orqalariga mushtchalari bilan sekin uradilar .
4. Do‘l yog‘di - orqalariga shapatilab uradilar

Tarbiyachi: Mana bolajonlar tetiklashib ham oldik

(shu payt Nozimjon degan bola qo‘l betlari iflos holda guruhga kirib keladi)

Tarbiyachi : Voy Nozimjon na muncha qo‘l betlaring iflos ertalab turib qo‘l betingni yuvmadingmi, axir toza-ozodalik bu sogliq garoviku. Agar sen toza ozoda yursang kasalliklar sendan doim yiroqda bo‘ladi .

Nozimjon: Kechirasiz opajon endi doim qo‘l betimni yuvib toza ozoda yuraman .

Tarbiyachi: Qani Olima qizim do‘stingiz qo‘liga suv solib qo’ychi, Nozimjon qo‘llarini yuvib olsin.

(Olima suvni Nozimjonning qo’llariga to‘ldirib quyadi)

Tarbiyachi : Hay –hay Olima qizim suvni tejab oz ozdan solgin

Olima: Nega opajon?

Tarbiyachi: Qani aytingchi bolajonlar nega suvni tejashimiz kerak ekan?

(Bolalar fikri)

Tarbiyachi: Juda to‘g‘ri aytdingiz, suv bu obi hayot demakdir. Suv chanqoqimizni bosadi, jonli tabiat va hayot uchun suv juda muhimdir. Suv tugab qolsa, biz

yashay olmaymiz shuning uchun suvni tejab ishlatishimiz lozim.

Tarbiyachi:

-Bolajonlar aytingchi suvda rang bo‘ladimi?

- Ta’mchi bo‘ladimi?

-Suv qanday ko‘rinishlarda bo‘ladi?

-Qanday suvni iste’mol qilamiz?

Suv haqida maqollar bilasizmi?

Bolalar: Suvni bersang elga

Yasharsan ming yilga.

-Suv - zar, suvchi - zargar

-Suv ichadigan qudug‘ingga tupurma…..

Barakalla bolajonlar, suv haqida juda ko‘p tushunchaga ega ekansiz, sizni diqqatingizni «Til va nutq» markazidagi monitorga qarataman. Monitorda suvni tejash haqidagi lavhalarni kuzatamiz (lavhalarni ko‘rsatiladi)

(Bolalar lavhada ko‘rganlari haqida fikrlarini aytadilar)

Tarbiyachi: Bolajonlar keling suv va ranglar bilan tajribalarni amaliyotda sinab ko‘ramiz.

1. Tajriba: Fan va tabiat markazida: Yelim idishdagi toza suvlarga turli rangdagi buyoqlardan tomizib suvning rangi o‘zgarishi kuzatiladi va ranglarni ingliz tilida aytadilar (red, yellow, blue, green.)



2-Tajriba: San’at markazida: Bunda bolalar Idishdagi suvga mo‘yqalamni buyoqga botirib suv yuziga sachratadi va jarayonni kuzatadi so‘ng oq qog‘ozni asta sekinliq bilan suv ustiga qo‘yib sekin tortib olishadi va qog‘ozda hosil bo‘lgan manzarani kuzatadilar.



Tarbiyachi: mana bolajonlar tajribada suvga ranglarni birma bir tomizib jarayonni kuzatdik. Sizga bu tajribalar yoqdimi?

(Bolalar o‘z fikrlarini aytadilar)

Tarbiyachi: Kelinglar, toza havoga chiqib guruh maydonchamizdagi suv havzamizga o‘yinchoqlar bilan o‘ynaymiz. (mashg‘ulot yakunlanadi)

Aprel oyining 4-haftasi:

Mashg‘ulot : Tabiat bilan tanishtirish.

Mavzu: «Sayyoralarni taqqosla»

Jihoz: Koinot tasvirlangan surat, lavha, globus, oq qog‘oz, qalam, rangli qum, yelim, penoplast, najdak, uchi o‘tmas pichoq, disklar, zarli qog’ozlar, halqa.

Maqsad: Inson va tabiat uyg‘unligi to‘g‘risidagi tasavvurlarini kengaytirish, sayyoralarni bir-biridan farqlash, Yer to‘g‘risida tasavvurga ega qilish.

Faoliyat olib borilishi:

Tarbiyachi: Bolajonlar kelinglar, bir o‘yin o‘ynaymiz (deb bolalarni diqqatini o‘ziga qaratadi va o‘yinni nomini aytib, shartini tanishtiradi) Bolajonlar o‘yinni nomi «Yer va Osmon» deb ataladi. Bu o‘yinda tarbiyachi “Yer” desa, bolalar o‘tiradi, “osmon” desa turadilar.

Tarbiyachi: Bolajonlar, mana tetiklashib oldik. Bu o‘yinni o‘ynashimizdan maqsad bugun biz sizlar bilan sayyoralarga sayyohat qilamiz. (bolalar diqqati monitorga qaratadi va sayyoralar haqidagi lavhalarni ko‘rsatib sayyoralar haqida ma’lumot beriladi)

Tarbiyachi: Bolajonlar koinotda 8 ta sayyora mavjud:

1- Yupiter
2- Merkuriy
3- Neptun
4- Venera
5- Saturn
6- Yer
7- Mars
8- Pluton

Eng katta sayyora -Yupiter

Eng kichik va tez aylanadigan sayyora - Merkuriy.

Eng uzoq va sovuq sayyora - Neptun.

Eng issiq va yorqin sayyora - Venera.

Eng katta yo‘ldosh sayyoralari Yupiter va Saturnlar hisoblanadi.

Eng zich tarkibga ega sayyora Yer hisoblanadi.

Bolajonlar, aytingchi shu sayyoralar ichidan biz qaysi birida yashaymiz?

(bolalar javobi)

Tarbiyachi: Juda to‘g‘ri aytdingiz biz Yer sayyorasida yashaymiz chunki Yer sayyorasida barcha jonli mavjudotlar yashashi uchun imkoniyat bor. Biz ham o‘sha mavjudotlar bilan birga yashaymiz. Bolajonlar kelinglar sizlar bilan markazlarga ish bajaramiz. Buning uchun guruhga bo‘linib olamiz . Guruhlarga bo‘linish uchun tabiat hodisalari nomlaridan tanlaymiz. Masalan: yomg‘ir, shamol, qor.

Yomg‘ir guruhi a’zolari – qo‘llarini yuqoridan pastga qarab silkitadilar.

Shamol guruhi a’zolari - qo‘llarini yon tomonlarga silkitadi.

Qor- guruhi a’zolari - aylanadilar. Shu tariqa bolalar guruhlarga bo‘linadilar. Ularga markazlarda qilinadigan ishlar tushuntiriladi.

Qurish yasash va matematika markazida: Bolalar sayyoralardan birini yasaydilar. Buni yasash uchun bolalar penoplast disk zarli kukun va yelimdan foydalanadilar. Yasash qoidasi: avval penoplastni olib burchaklari qirqilib silliqlanadi. So‘ng uni ikki qismga bo‘lib birinchi qismiga diskni qo‘yib ikkinchi qismi yelimlanadi. Disk ustiga qo‘yib so’ng doira ustiga yelim surtib yaltiroq zardan sepiladi.

San’at markazida: Bolalar sayyoralar suratini chizadilar. Koinot sirlari surati asosida hikoya tuzadilar.

Fan va tabiat markazida bolalar diqqatini globusga qaratib tarbiyachi shunday deydi: Bolajonlar biz yashaydigan Yer sayyorasida tortishish kuchi borligi sababli biz yerda erkin yura olamiz. Ba’zi bir sayyoralarda tortishish kuchi yo‘qligi sababli ular samoda uchib yuradi. Kelinglar, hozir yasagan sayyoralarimizni halqaga bog‘laymiz va globus ustida tutib sayyoralarni aylanishini tajribada kuzatamiz. Bolalar o‘zlari yasagan sayyoralarini halqaga bog‘laydilar va kuzatadilar. So‘ng bolalar bir birlarini qilgan ishlarini baholaydilar.

Tarbiyachi: Mashg‘ulotni yakunlab bolalarni toza havoga taklif etadi.

May oyining 1-haftasi.

Mashg‘ulot: Tabiat bilan tanishtirish.

Mavzu: To‘kiladigan jismlarning hajmini o‘lchash.

Maqsad: Bolalarning suyuq, sochiluvchi va to‘kiluvchi jismlarning miqdorini o‘lchash haqidagi tasavvurlarini mustahkamlash. O‘lchashni o‘rgatish, o‘lchamning natijasi o‘lchashning aniqligiga bog‘liq ekanligini tushuntirish.

Kerakli jihozlar: Suyuq jismlar: Sut, suv, yog‘. To‘kiluvchi jismlar: Un, guruch, shakar, mosh, grechka, stakanchalar, banka, chelak, cho‘mich, qoshiq, turli o‘lchamdagi idishlar, tog‘oracha, plakat, suyuq va to‘kiluvchi mahsulotlar surati, shakar, tuz, krupa.

Mashg‘ulotning borishi: Bolalar, bugungi mashg‘ulotimizni bog‘chamiz oshxonasida o‘tkazamiz. Chunki u yerda suyuq va to‘kiluvchi jismlarni o‘rganishingiz uchun barcha sharoitlar bor. Bolalar, suyuq jismlar nima bilasizmi?

Bolalar: sut , suv, yog.

Tarbiyachi: Barakalla bolajonlar, endi aytingchi, to‘kiluvchan jismlar nimalar?





Bolalar javobi: Un, guruch, shakar, krupalar.

Tarbiyachi: Juda yaxshi, suyuq va to‘kiluvchi jismlarni nimada o’lchash mumkin?

Bolalar javobi: Tarozi bilan o‘lchash mumkin.

Tarbiyachi: Tarozi bo‘lmasachi? (Bolalar javobi)

Tarbiyachi: Bolalar hozir har kuni shirin - shirin taomlar pishirib beradigan oshpaz opalarimizni oshhonada suyuq va to‘kiluvchan jismlarni qanday o‘lchab sizlarga ovqat tayyorlab berishlarini ko‘rsatadilar. **Oshpaz avval bolalarga shartli o‘lchov birliklariga** banka (1litrli va 0,5 litrli), cho‘mich piyola, kosa, chelak, qoshiqlar kirishini aytadi. Yog‘ni bankada cho‘michda o‘lchash, sutni banka bilan o‘lchab chelaklarga solish mumkinligini tushuntiradi. Chelakka esa necha banka suv sig‘ishini ko‘rsatadi. Guruchni stakan, piyola bilan o‘lchab, palov pishirishni ko‘rsatib tushuntiradi. Tuzni taomga qoshiq yordamida solishni ko‘rsatadi. Bolalar qoshiq ham o‘lchov birligi bo‘lishi mumkinligini bilib oladilar.

Tarbiyachi: Mana bolajonlar suyuq va to‘kiluvchi jismlarni o‘lchash haqida bilimga ega bo‘ldingiz, keling endi guruhga borib markazlarda shu jismlar orqali tajribalar qilib ko‘ramiz. (bolalarni guruhga olib chiqib kichik guruhlarga bo‘linadilar) so‘ng markazlarda ish bajaradilar.

1-Fan va tabiat markazida: Bolalar stakanga 1 qoshiq shakar solib, uning ustiga suv quyib uning erishini kuzatadilar.



Tarbiyachi: Qanday holat yuz berdi?

Bolalar: suvda shakar erib ketganini aytadi.

Tarbiyachi : bolalar endi suvni ta’mini ko‘ringchi qanday ekan .

Bolalar suvni ichib ko‘rib suv shirin bo‘lganini aytadilar.

Tarbiyachi: bolajonlar keling endi boshqa stakandagi toza suvga tuz solib ko‘ringchi qanday holat yuz berar ekan.

Bolalar aytilgan vazifani bajaradilar.

Tarbiyachi : Xo‘sh bolajonlar bu suv bilan qanday holat yuz berdi?

Bolalar: Suv sho‘r bo‘ldi.

2 - Qurish-yasash va matematika markazida: Har bir bola oldiga turli o‘lchamdagi idishlar, stol o‘rtasida esa kattaroq idishda suv qo’yiladi. Bolalar qoshiq yordamida tog‘orachadagi suvdan olib o‘z idishlariga soladilar va har bir bola o‘z qarshisidagi idishda necha qoshiq suv siqqanini sanab aytadi. (Bunda bolalarning bilish jarayonlari faollashadi)



3. Til va nutq markazida: Bolalar suyuq va to‘kiluvchi mahsulotlarni «Guruhlarga bo‘l» o‘yini orqali ajratadilar va bu o‘yin davomida bolalarni zehni rivojlanadi va suhbat davomida nutqi ravon bo‘ladi.



4. San’at markazida: Bolalar to‘kiluvchi jismlar(no‘xat, mosh, guruch, grechka)dan foydalanib, tabiat manzarasini tasvirlaydilar (1-guruh no‘xat bilan quyosh, 2-guruh guruch bilan bulutlarni tasvirlab ularni moviy bo’yoq bilan bo‘yaydilar, 3-guruh

grechka bilan tog‘lar, 4-guruh mosh bilan maysalar tasviridan dekorativ applikatsiya bajaradilar.



Tarbiyachining yo’naltirishi bilan bolalar o‘rin almashtiradilar, markazda ishlab bo‘lgach bolalar ochiq havoga taklif etiladi. Ulardan olgan yangi bilimlari haqida fikrlari so‘raladi va bolalar rag‘batlantirib mashg‘ulot yakunlanadi.

May oyining 2-haftasi.

Mashg‘ulot: Tabiat bilan tanishtirish

Mavzu: Daraxtning xususiyatlari bilan tanishtirish.

Maqsad: Daraxtlar haqidagi tushunchalarini mustahkamlash. Tajriba tadqiqot orqali daraxtlarning xususiyatlarini aniqlash. Xulosa chiqarish uchun o‘z shaxsiy tajribasiga tayanish.

Jihoz: Daraxt tasviri, suv to‘ldirilgan idishlar, arralangan yog‘och bo’lagi

Faoliyatni olib borilishi: Bolajonlar hozir o’lkamizda qaysi fasl? (Bolalar javobi)

Tarbiyachi: To‘g‘ri, hozir bahor fasli. Ob havo qanday?

Bolalar javobi: Bugun ob havo issiq quyosh charaqlab turibdi.

Tarbiyachi Keling shunday yaxshi kayfiyat bilan suhbatimizni davom ettiramiz. Bolajonlar men sizlarga bir chiroyli surat ko‘rsataman (suratni ko‘rsatib savollar beradi)

-Bolalar siz bu suratda nimalarni ko’ryapsiz?

-Bu qaysi faslga mos daraxt?

-Daraxt haqida nimalar deyish mumkin?

-Daraxt qanday paydo bo’lgan?

-Daraxtlarning bizning hayotimizdagi o‘rni qanday?

-Dehqon, bog‘bonlarning daraxt o‘stirishdagi faoliyatini bilasizmi?

-«Birni kessang-mingni ek» maqolining ma’nosini bilasizmi?

Kabi savollarni berib bolalarni tabiatga ehtiyotkorono munosabatda bo‘lish hissini tarbiyalash.

Tarbiyachi :Bolajonlar keling endi bir o‘yin o’ynaymiz .O‘yinni nomi «Shamol va quyosh» deb nomlanadi .Bu o‘yinda bolalar sayr qilib yuradilar,birdan shamol esadi. Daraxtlarning shamolda esishini bolalar harakat bilan ko‘rsatadilar.Tarbiyachi «Quyosh chiqdi»desa bolalar sokinliqni namoyish etadilar. O‘yin 2-3marta takrorlanadi.

Keling endi daraxtlar turlarini AKT moslamasida «Uch og‘a-ini botirlar»ertagi daraxtlarni bir biri bilan so‘zlashuv lavhasini tomosha qilamiz.

Deb bolalar diqqatini monitorga qaratadi .Bu lavha orqali bolalar daraxtlarni

parvarishlash

Ularni jonli tabiat ekanligini tushunadilar.

Tarbiyachi Bolajonlar keling endi siz bilan guruhlarga bo‘linib ish bajaramiz .Deb bolalarni o‘zlari yoqtirgan mevalaridan tanlashlarini aytadi va bolalardan qaysi mevani tanlaganini surab 4 markazga quyilgan daraxtlardan o‘z daraxtini topib o‘rinlariga joylashadilar va markazda ishlaydilar.

2- Til va nutq markazida «Bu qanday daraxt» o‘yinini o‘ynaydilar.

Bu o‘yinda bolalar daraxtlarni nomini aytib uning foydali tomonlari haqida so‘zlab beradilar .daraxt mevalari nomini ingliz tilida aytadilar.



2-San’at markazida :Bolalar plakatga «Daraxtdan nimalar qilinadi?» o‘yini uynaladi .Bu o‘yinda daraxtdan qilingan jihozlarni suratini chizishadi .Buning uchun har bir guruhga bittadan plakat beriladi .

(Mebel, uy, qalamlar,gugurt kabi suratlarni chizadilar.)







3-Syujetli va rolli o‘yin markazida: “To‘g‘ri va noto‘g‘ri” o‘yinini o‘ynaymiz. Bu o‘yinda to‘g‘ri va noto‘g‘ri holatlari to’g’risidagi lavhani sahnalashtiradilar.

Tarbiyachi: Mana bolalar bu lavhani ko‘rdingiz, qanday fikr bildirasiz? Bolalar o‘z fikrlarini aytadi.

4-Fan va tabiat markazida: Tajriba joyiga bolalar diqqatini jalb qilib, daraxtning arralangan bo‘lagini o‘rganadilar va daraxt yoshini bildiradigan halqalarini ko‘rib chiqadilar. Daraxtning yoshini uning halqalarini sanab o‘rganib oldilar va yana daraxtni pishiqligi, shaffofligi, issiqliqni o‘tkazuvchanligini bilib oladilar. Tog‘oradagi suvga daraxt yogochlarini tashlashadi, kuzatib xulosalar chiqaradilar.





Tarbiyachi: Har 5 minutda bolalarga signal chaladi bolalar bu tovushda o‘rnilaridan turib o‘rin almashadilar .Markazlarda ishlarini bajarib bo‘lgach ochiq maydonda bolalarni san’at markazida chizgan suratlarini taqqoslab ko‘proq jihozlarni chizgan guruhni bolalarni o‘zlari baholaydilar.Tarbiyachi bolalarni barchasini rag‘batlantirib mashg‘ulotni yakunlaydi.

May oyining 3-haftasi.

Mashg‘ulot :Tabiat bilan tanishtirish.

Mavzu. «Loy bilan tajriba» idish yasaymiz.

Jihoz: 2 ta tog‘ora ichida nam va quruq gil, yasash uchun tayyorlangan loy, AKT orqali kulol mehnati haqida lavha, xaltacha, turli xil o‘yinchoqlar, dasturxon, ko‘rpacha

Maqsad: Bolalarni qumni xususiyatlari bo‘yicha olgan bilimlarini mustahkamlash Loyni xususiyatlarini o‘rganish. Loy ishi orqali mayda motorikani rivojlantirish. Qum va gilni farqlash ikki hil tuproqdan shakllar yasashga o‘rgatish.

Faoliyatning olib borilishi. Tarbiyachi bolalar diqqatini likopchadagi quruq va nam gilga qaratadi. Bolajonlar bu nima? (bolalar javobi)

Tarbiyachi: juda to‘g‘ri aytdingiz bu namlangan va quruq gil biz sizlar bilan bular haqida suhbatlashgan edik, keling, bugun olgan bilimlarimizni yanada mustahkamlaymiz. (bolalarga savollar beradi)

- Bolalar likopchadagi quruq gil namlangan gildan nimasi bilan farq qiladi?
- Quruq gil qanday, namlangan gil qanday?
- Tuproqda qanday xususiyatlar bor edi?

Bolalar javoblarini orqali ularning bilimlari mustahkamlanadi.

Tarbiyachi: Bolalar hunarmand kulollarimizni qanday qilib loydan turli xil buyumlar yasashlarini kuzatishni xohlaysizmi?

Bolalar: albatta

Tarbiyachi: unda keling diqqatingizni monitorga qarating (bolalarga kulol mehnati haqidagi lavhaga qaratiladi)

Tomosha qilib bo‘lgach bolalardan nimalarni ko‘rganliklari haqida so‘raladi. So’ng guruhlarga bo‘linib markazlarda loydan turli xil vazifalarni bajarish orqali loyning xususiyatlari haqida tushunchaga ega bo‘lishadi.

Tarbiyachi: Bolalar o‘yin o‘ynashni xohlaysizmi?

Bolalar Ha-a-a albatta xohlaymiz!



Tarbiyachi: unda keling avval sanama orqali guruhlarga bo‘linib olamiz so‘ng o‘yinlarimizni markazlarda davom etamiz. (bolalar guruhlarga bo‘linadilar, ularga markazlarda bajaradigan o‘yin qoidasi tushuntiriladi)



San’at markazida: Bolalar loy bo‘lakchalarini taqsimlab turli xil idishlar (choynak, piyola, kosa, likopchalar yasaydilar. (Yasash davomida

bolalardan idishlar haqida topishmoqlar, idishlardan qanday foydalanish kerakligi haqida suhbatlashiladi)

Til va nutq markazida: «sehrli xaltacha» o‘yini o‘ynaladi. Bu o‘yinda bolalar xaltacha ichidagi buyumni qo‘li bilan paypaslab uning foydali tomoni haqida buyumni nomini aytmasdan tushuntiradi. Bolalar gap nima haqida ekanligini aytadilar. Idishlar nomini ingliz tilida aytadilar.



Piyola – tea bowl , Choynak - teapot , Likopcha – plate, Kosa - large bowl

Fan va tabiat markazida: Bolalar ikkita tog‘orada namlangan va quruq qum bilan tajribalar o‘tkazadilar. Bunda bolalar ikki tog‘orani ichida yashirib qo‘yilgan, bolalar buyumlarni qidirishga harakat qiladilar shu jarayonda bolalardan qaysi bir qumda buyumlarni qidirish oson ekanligi so‘raladi .



Bolalar quruq qumda oson ekanligi, chunki u yumshoqligi, namlangan qumda qiyin ekanligini aytishadi.

2-tajribada bolalar ikki xil qumdan hovuchlariga olib shakl berishga harakat qiladilar va bu bilan quruq tuproq to‘kiluvchan, undan hech nima yasab bo‘lmasligi, nam tuproq yumshoqligi sababli undan buyum yasab bo‘lishi degan xulosaga keladilar.

Tarbiyachi markazlarda ishlab bo‘lgan bolalarni syujetli va rolli o‘yinlar markaziga taklif etadi.

Syujetli va rolli o‘yinlar markazida: bolalar o‘zlari yasagan idishlar va shirinliklarini olib chiqib dasturxonni tuzatadilar va “Mehmon-mehmon“ o‘yinini o‘ynaydilar. (Bu o‘yin orqali bolalar mehmon kutish urf-odatlarini namoyish etish davomida o‘rganib oladilar)



O‘yin so‘ngida bolalar bilimlarini mustahkamlash uchun savollar berilib, bolalar rag‘batlantiriladi. Mashg‘ulot yakunlanadi.

May oyining 4–haftasi:

Mashg‘ulot: Tabiat bilan tanishtirish.

Mavzu: Qum bilan tajriba «Qumning xususiyatlari»

Maqsad: Bolalarni qum turlari bilan, uning xususiyatlari va inson hayotidagi o‘rni bilan tanishtirish. Bolalarni tabiatga bo‘lgan mehri va g‘amho‘rligini oshirish. Qumning o‘simliklar va hayvonot olamida tutgan o‘rni.Bolalar so‘z lug‘atini boyitish, tajribalar orqali ho‘l va quruq qum o‘rtasidagi farqlarni aniqlash. Mashg‘ulotning borishi: tarbiyachi: bolajonlar bugun tashqarida ob-havo qanday? (bolalar javobi)

Tarbiyachi: ha, ob havo bugun juda yaxshi. Kelinglar bugungi faoliyatimizni toza havoda, bog‘chamizning bizga ajratilgan guruh maydonchasida olib boramiz. Ammo u yerga borish uchun bir nechta shartlarni bajarishingiz lozim. Tarbiyachi bolalarga topishmoqlar aytib qadam-baqadam maydoncha tomon yo‘l oladi.

Bolajonlar havo juda yahshi, quyosh charaqlab turibti, biz sizlar bilan inson hayotida zarur bo‘lgan omillar : suv, havo, quyosh haqida gapirgan edik. Bizda yana bir omil qolibdi, qani kim aytadi, yana nima inson hayoti uchun muhim? (bolalar javobi)

Tarbiyachi: juda ham to‘g‘ri Yer, qum. Bolajonlar uning muhimligi nima bilan izohlanadi? Biz asfaltda yurib bilamiz, suvda suzib bilamiz, qum nimaga kerak? (bolalar javobi)

Tarbiyachi: to‘g‘ri, qum bo‘lmasa yer yuzida hech qanday o‘simliklar bo‘lmas edi. O‘simliklarsiz esa biror bir jonzot yashay olmaydi. Bugun biz sizlar bilan qum bilan yanada yaqindan tanishamiz. Qani kim menga aytadi, qanday qum turlari mavjud, bizning o‘lkada qanaqasi uchraydi. (bolalar javobi)

Tarbiyachi: Bolajonlar bizda nafaqat ho‘l va quruq qum, balki boshqa qum turlari ham mavjud. (Tarbiyachi 4 ta idishda 4 xil qum olib chiqadi. Mana qarang – bu qizil qum. U sohil bo‘ylarida, anhorlar bo’yida uchraydi. Bu esa tuproq. U ekin ekadigan yer maydonchalarida bo‘ladi. Bu qumning nomi esa bizda chaga deb yuritiladi. Undan qurilishda, o‘yinlarda foydalaniladi. Unda o‘simliklar o‘smaydi.

Ba’zi turdagi qumlar kamyob sanaladi. U dengiz va daryolar sohilida uchraydi. Bu - quruq qum. Ammo bizda ushbu turlarinigina uchratish mumkin. Bolajonlar qumning juda ko‘p foydali xususiyatlari bor. Qani qaysilarini siz bilasiz? Kim menga aytib beradi? (bolalar javobi)

Tarbiyachi: To‘g‘ri agar qum bo‘lmasa, insoniyat hayotida o‘simliklar, yegulik, idish-tovoq, boshpana bo‘lmas edi. Chunki bularning har biri qum bilan bog‘liq. Albatta bir qum bilan ish bitmaydi. Tabiat bir biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Kelinglar tajriba o‘tkazamiz, bolalar, bu qum. Men hozir shu quruq qumni elakda elab ko‘ramiz. Qani aytingchi nima yuz berdi?

Bolalar: Quruq qum elakdan tez o‘tdi

Tarbiyachi: To‘g‘ri aytdingiz bolajonlar demak, quruq qum elakdan tez o‘tar ekan, keling endi namlangan qumni elakdan qanday o‘tishini tajribada sinab ko‘ramiz.

(bolalar bilan namlangan qumni elakdan elab ko‘rishga harakat qiladilar)

Tarbiyachi: Bolajonlar bu tajribamizda nima yuz berdi?

Bolalar : Namlangan qum elakdan o‘tmadi

Tarbiyachi: Mana bolajonlar biz bu tajriba bilan quruq qum bilan namlangan qumning bir biridan bitta farqini aniqlab oldik. Bundan ko‘rinib turibdiki qumlardan turli xil usullarda turlicha buyumlar ham yasasa bo‘lar ekan. Kelinglar, hozir tayyorlangan rangli qum va tuproqdan turli xil buyumlar yasab tajribada sinab ko‘ramiz. Avval to‘rt guguhga sanama orqali bo‘linib olamiz.



San’at markazida: Bolalar stolga to‘shalgan polietilen ustiga qo‘l bilan sochish orqali tabiat manzarasini tasvirlaydilar. (bu bilan bolalar qum orqali biror bir manzarani hosil qilish mumkin ekanligini tushunib oladilar va bolalarni tasavvuri kengayib mayda motorikasi rivojlanadi)
Qurish-yasash va matematika markazida: Bolalar namlangan qum ustida shaklli qolipchalar yordamida turli xil shakllarni hosil qiladilar. (Bu tajribani bajarish orqali namlangan qumda nima ishlar bajarish mumkinligini bilib olish bilan birgalikda bolalarning bilish jarayonlari ya’ni shakllar haqidagi tasavvurlari kengayadi) Tajriba jarayonida bolalarga qilayotgan ishlari yuzasidan savollar beriladi.



San’at markazida: Bolalar «Men yoqtirgan o‘yinchoq» mavzusida qizil tuproqdan tayyorlab qo‘yilgan loydan turli xil o‘yinchoqlar yasaydilar. (Bu tajriba orqali bolalar loyning xususiyatlari haqida tushunchaga ega bo‘ladilar va ularda haykaltaroshlik hunariga bo‘lgan qiziqishlari uyg‘onadi)



Fan va tabiat markazida: quruq qumga va tuproqda daraxt ko‘chatini ekadilar.
(Bu bilan bolalar quruq qumga daraxt ko‘chati ekib bo‘lmasligini, ko‘chatni albatta nam tuproqga ekib bo‘lishini bilib oladilar)
Tarbiyachi :Tajriba yuzasidan savollar beradi



1-savol Quruq qumga daraxt ekib bo‘lar ekanmi? (bolalar javobi)
2-Savol .Nega quruq qumga daraxt ko‘chati ekib bo‘lmadi? (bolalar javobi)
3-Savol.Nam tuproqgachi? (bolalar javobi)
Tarbiyachi: Barakalla bolajonlar bugungi qum haqidagi tajribalarimiz sizga yoqdimi?
Bolalar rag‘batlantirib mashg‘ulot yakunlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag’ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo’shma majlisidagi nutqi. T.: “O‘zbekiston”, 2016.
2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. -T.: “O‘zbekiston”, 2017.
3. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standarti, T.: 2020 y.
4. Altshuller GS, Zlotin BL va boshqalar. Yangi g'oyalarni izlash: tushunchadan texnologiyagacha (ixtirochilik muammolarini hal qilish nazariyasi va amaliyoti). - Kishinyov: Kartya Moldoveneaske, 1989 yil.
5. Азларов Ю. Болаларни севиш санъати. — Т., 1992.
6. Ахмедов М., Шоумаров О. Ватан маҳалладан бошланади. Ҳаёт ва иқтисод. 1992.

33.G‘oziev E. Tafakkur psixologiyasi. - T.: O‘qituvchi, 1990.

34.Hasanboeva.O.U.va boshqalar. «Maktabgacha ta’lim pedagogikasi».T.., «Ilm ziyo» 2006.

35.Иващенко Е.В. Профессиональная подготовка будущего учителя начальной школы к оценке учебных достижений младших школников //Начальная школа/. - 2007. № 11.

36.Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.T.: “Nihol” nashriyoti, 2013, 2016.

37.Ishmuhamedov R. O‘quv jarayonida interfaol usullar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uslubiyati. T.: RBIMM, 2008.

38.Kryuchko C., Azarenko T. Katta maktabgacha bo’lgan bolalarning bilish qobiliyatini rivojlantirishda ko’rgazmali modellashtirish usulidan foydalanish. M.Prosvesheniye, 1996

39.Мавлонова Р.А., То‘раева О.Т., Холиқбердиев У.М.Педагогика. — Т.: Ўқитувчи, 2001.

40. Минавваров А. Педагогика. — Т., « Ўқитувчи ». 1996.